

**NEW !!!**

**SJIF: 4.995**

*Volume - 10*

*Issue - 2*

# PEDAGOGS

International research journal

ISSN:2181-3027



Google  
Scholar



**PEDAGOGLAR.UZ**

*Scientific Research Center*

# **PEDAGOGS**

*legal, medical, social, scientific journal*

**IN ALL AREAS**

*Volume-10, Issue-2, May-2022*



## TAHRIRIYAT | EDITORIAL

### Editor in chief

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

### Executive Secretary

Abdurahmonov Boburjon

*He is mathematic teacher at  
Uzbekistan District 49 Secondary School*

### Preparing for publishing

Xoliqov Toxirjon Shavkatjon ugli

### Bosh muharrir

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

### Mas'ul kotib

Abdurahmonov Boburjon

*O'zbekiston tumani 49-umumiy o'rta  
ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi*

### Nashrga tayyorlovchi

Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li

## TAHRIRIYAT KENGASH A'ZOLARI | EDITORIAL BOARD MEMBERS

### *Inobatxot Mirzaraximova*

*Rishton tuman XTB mudiri*

### *Umida Barzиеva*

*Farg'ona viloyat xalq ta'limi boshqarma metodisti*

### *O'rinov Ahmadjon Qo'shaqovich*

*Farg'ona Davlat Universiteti, Matematika fanlari doktori, professor*

### *Toshboltayev Muhammadjon*

*Toshkent mashinasozlik institute, Texnika fanlari doktori, Professor*

### *Qodirov Nabijon O'lmasovich*

*O'zbekiston xalq ustasi, (usta kulol)*

### *Turdiyev Azizbek Anvarovich*

*O'zbekiston madaniyat va san'at vazirligi, journalist*

### *Ne'madaliyev A'zam Muhammadjonovich*

*Cyberlayn firmasi asoschisi, iqtisod fanlari nomzodi, PhD*

### *Mohinur Saidova*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

### *Sharifaxon Xakimova*

*Farg'ona tumani 4-maktab matematika fani o'qituvchisi*

## TAHRIRIYAT MANZILI | EDITORIAL ADDRESS

**UZB: 712000. Farg'ona viloyati, Rishton shahri, Istirohat bog'i ko'chasi 24-uy**  
**[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz), E-mail: [info@pedagoglar.uz](mailto:info@pedagoglar.uz) Tel: +998 90 905-14-30**

**ENG: 712000. Fergana region, Rishtan city, Park park street 24**  
**[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz), E-mail: [info@pedagoglar.uz](mailto:info@pedagoglar.uz) Tel: +998 90 905-14-30**

**DAVLAT TILIDAN TA'LIM BERISHDA O'ZIGA XOSLIK**

*Aliyeva Nigoraxon*

*QDPI akademik litseyi, Oliy toifali o'qituvchi (ona tili va adabiyot)*

*[aliyevanigoraxon@gmail.com](mailto:aliyevanigoraxon@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Davlat tili, ya'ni o'zbek tilidan ta'lim berishning ahamiyati ilmiy yoritib beriladi. Ilmiy qarashlar ilmiy faktlarga asoslanib dalillab o'tiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Til, bilim, malaka, dars, jarayon, mashg'ulot, mahorat, mavzu, ma'lumot, asar.*

**SPECIFICITY IN TEACHING THE STATE LANGUAGE**

*Aliyeva Nigoraxon*

*QDPI Academic Lyceum, Higher category teacher (mother tongue and literature)*

*[aliyevanigoraxon@gmail.com](mailto:aliyevanigoraxon@gmail.com)*

**Annotation:** *This article scientifically explains the importance of teaching the state language, Uzbek. Scientific views are based on scientific facts.*

**Keywords:** *Language, knowledge, skills, lesson, process, activity, skill, topic, information, work.*

Davlat tilidan, ya'ni ona tilidan o'quvchilarga bilim, malaka, asosan, dars jarayonida beriladi. Bundan tashqari, o'quvchi o'zi mustaqil o'qib-o'rganishi ham mumkin. Lekin ona tili o'qitishning eng samarali va unumli shakli dars bo'lib, bir vaqtning o'zida o'qituvchi bir necha o'quvchi bilan ishlaydi va ma'lum bir mavzu bo'yicha ma'lumot beradi. Odatda, katta mahorat bilan yozilgan asar o'quvchini zavqlantiradi. Ta'sirli o'tilgan dars ham o'quvchiga ijobiy ta'sir qiladi. Shu ma'noda ta'sirli o'tilgan darsni yaxshi badiiy asarga ham o'xshatiladi.

Dars o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining ko'zgidir. Ona tili darslarida yuqori natijaga erishish uchun ham mo'ljallangan materialni ilmiy jihatdan yuksak saviyada o'tish, ham o'quvchilarni uyushtira bilish, ham ularning faolligini oshirish kerak. Shunga ko'ra har bir dars oldiga shunday talablar

qo'yiladi:

- a) o'qituvchining rahbarligi;
- b) o'quvchiga ta'lim va tarbiya berish;
- d) o'quv ishlarini o'quvchilarning yoshiga qarab tashkil etish;
- e) to'g'ri o'qish, to'g'ri so'zlash, to'g'ri yozish malakasini oshirish.

Har bir darsning saviyasi o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlay olish mahoratiga bog'liq.

1. Ona tilidan yangi bilimlar berish darsi.
2. O'tilganlarni musahkamlash darsi.
3. Bilim va malakalarni tekshirish darsi.
4. Olingan bilimlarni umumlashtirish-takrorlash darsi.

Ona tili darslarini shu tarzda 4 ga bo'lish shartli. Chunki har bir dars faqat bilim berish yoki faqat takrorlashlarni ko'zda tutmaydi. Dars shakli deganda u yoki bu fandan o'quv ishini uyushtirish va o'tkazish shakli tushuniladi. O'quv ishini tashkil etishda "o'quvchi - o'quv material - o'qituvchi" munosabatlari muhim o'rin egallaydi. O'qituvchi ta'lim jarayonining tashkilotchisi, boshqaruvchisi sanaladi. U o'quvchi faoliyatini tashkil etadi, uning bilim olishi, bu bilimlarning ko'nikma hamda malakaga aylanishiga rahbarlik qiladi. O'quv material o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'zaro bog'laydi, o'qituvchining vazifasi bu materialni eng oson va qulay yo'l bilan o'quvchiga berish, o'quvchining vazifasi esa uni oson va qulay yo'l bilan qabul qilish hamda amaliy faoliyatda tatbiq etishdan iboratdir. Ona tilidan o'quvchilarni zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishning shakllari ko'p.

Dars - o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli. Bundan tashqari, fakultativ mashg'ulotlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash, mustaqil ish, matbuot va ommaviy axborot vositalari, sayohatlar o'quv ishlarini tashkil etishning muhim shakllari sanaladi. O'quvchi ona tilidan zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni asosan dars orqali oladi. Dars - bir xil sinfdagi o'quvchilar bilan qat'iy jadval asosida o'tkaziladigan mashg'ulot turi. "Dars" va "mashg'ulot" tushunchalari garchand bir - biriga yaqin bo'lsa-da, ammo ular bir ma'noni ifodalamaydi. Mashg'ulot-darsga qaraganda keng tushuncha. Agar dars

[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

belgilangan qat'iy jadval asosida va qat'iy vaqt ichida o'tkazilsa, mashg'ulot dars bilan bir qatorda o'quvchilar bilanbirga yoki yakkama - yakka holda o'tkaziladigan ta'limiy ishlarni ham o'z ichiga oladi.

Maktab tarixida sinf - dars o'qitishning ishonchli va qulay usuli bo'lib, u davr sinovlaridan o'tgan va o'zini to'la oqlagan. Bu usulning qulayligi shundaki, o'quvchilar jamoa bo'lib o'qiydilar va bir vaqtning o'zida sinfdagi barcha o'quvchilarni zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish imkoniyati tug'iladi. Ona tili darsi o'quvchilarni nutq ko'nikmalari bilan qurollantirishning asosiy vositasidir. Darsga ajratilgan vaqt 45 daqiqani tashkil etadi. Ona tili darslari oldiga muayyan talablar qo'yiladi. Bu talablar ona tili darsining maqsadiga bog'liq.

Ma'lumki, boshqa o'quv fanlari singari ona tili mashg'ulotlari ham ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko'zlaydi. Darsning ta'limiy maqsadi o'rganilayotgan til hodisasi yuzasidan o'quvchilarda puxta bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, uni amaliy nutqiy faoliyatda qo'llash kabilarni talab etsa, tarbiyaviy maqsad shu til hodisasi orqali bolalarda milliy tilga muhabbat, uni puxta egallashga kuchli ishtiyoq, milliy qadriyatlar, an'analar, urf - odatlar ruhida tarbiyalashni asosiy talab darajasiga ko'taradi. Rivojlantiruvchi maqsad o'quvchilarni mustaqil xulosalar chiqarish, yuzaga kelgan o'quv qiyinchiliklarini mustaqil ravishda yengish, o'zida qat'iylik, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga o'rgatishni talab qiladi.

Darsni xulosalash ham ancha mas'uliyatli jarayon bo'lib, u egallangan bilimlar amaliy faoliyatda sinalgandan so'ng o'tkaziladi. O'quvchilar darsning bu bosqichida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarga tayangan holda o'zlari ta'rif va qoidalar chiqaradilar.

Uyga vazifa berish darsni xulosalash bilan birga qo'shib olib boriladi. O'qituvchi uyga berilayotgan topshiriq sharti o'quvchilarga tushunarli bo'lishini ta'minlashi, zaruriyat tug'ilsa, uni bajarish usuli haqida qo'shimcha ma'lumot berishi zarur. Uy vazifasi darsning tarkibiy qismi bo'lganligi uchun ham u qo'ng'iroq chalinmasdan oldin berilishi kerak. Vaqt taqsimoti ham dars samaradorligini ta'minlashning muhim omili sanaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. M. Sobirova. O'qitishga yangicha yondoshish hozirgi kun talabi. Olima ayollarning fantexnika taraqqiyotida tutgan o'rni. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalari to'plami. Toshkent, 2006 yil, 55-56-betlar.
2. M. Sobirova. Til ta'limiga yangicha yondoshish. XXI asrda o'zbek tili ta'limi masalalari. «O'zbek tili» doimiy anjumani 9-yig'ini materiallari. Toshkent, O'zb. Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007 yil, 279-bet
3. M. Sobirova. Fazilatli ismlar fozillikka chorlaydi. «Ta'lim va tafakkur» jurnali. Namangan, 2005 yil, 2-son.

## ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ ПРОСТОРЕЧНОЙ ЛЕКСИКИ В РАССКАЗАХ А. П. ЧЕХОВА

*Мухтарова Манзура Магистрант*

*2-курса русской Филологии НамГУ*

### **Аннотация**

Функция просторечий в рассказах А.П. Чехова мало изучена в работах литературоведах и лингвистах, хотя лексика чеховских работ и подвергалась серьезному изучению. Данная работа дает нам понятие о функции просторечий в рассказах Чехова, их стилистической окраске и роли в художественном тексте.

### **Annotation**

The function of vernaculars in the stories of A.P. Chekhov has been little studied in the works of literary scholars and linguists, although the vocabulary of Chekhov's works has been seriously studied. This work gives us an idea of the function of vernaculars in Chekhov's stories, their stylistic coloring and role in a literary text.

### **Anotatiya**

A.P. Chexovning hikoyalarida mahalliy tillarning vazifasi. Chexov adabiyotshunos olimlar va tilshunoslar asarlarida kam o'rganilgan, garchi Chexov asarlarining lug'ati jiddiy o'rganilgan bo'lsa ham. Ushbu asar bizga Chexovning hikoyalaridagi mahalliy tillarning vazifasi, ularning uslubiy ranglanishi va badiiy matndagi o'rni to'g'risida tushuncha beradi.

**Ключевые слова:** лексика, просторечные слова, вульгаризмы, философско-публицистическая лексика, жаргон, образ, стиль.

**Key words:** vocabulary, common words, vulgarisms, philosophical and journalistic vocabulary, jargon, image, style.

**Tayanch so'zlar:** so'z boyligi, keng tarqalgan so'zlar, vulgarizmlar, falsafiy va jurnalistik lug'at, jargon, obraz, uslub.



Современные исследователи, изучающие особенности языка произведений того или иного писателя, давно подметили, что художественная ценность текстов определяется не количеством изобразительно-выразительных единиц (тропов), а своеобразной, присущей данному автору организацией различных по характеру и качеству языковых средств. Поскольку долгие годы остается актуальным вопрос самобытности языка его творчества, интерес к которому не иссякает. Рассмотрения языка рассказов А.П.Чехова постоянно рождает споры и научные дискуссии. Хотя интерес исследователей к «живому разговорному языку» его произведений не ослабевает, о чём свидетельствует целый ряд проблемных статей, а также исследований внелитературной лексики в его произведениях.

Изучая произведение А.П. Чехова каждый человек открывает для себя новое. Интерес к его творчеству не угасает, даже разгорается с новой силой раскрывая его творчества с новой стороны. Творчество писателя многогранно, постепенно раскрывает свои секреты. Это работа посвящена функционированию просторечной лексики в чеховских рассказах, позволяющий изучить его рассказы с точки зрения стиля и лексики.

Этой теме посвящены множество работ литературоведов и лингвистов, которые раскрывают необходимые для нашего исследования лексические пласты чеховской прозы: работы В. В. Виноградова, О. В. Левковича, Л. В. Азаровой, С. В. Тихомирова, М. П. Громова, Л. М. Цилкевич, К. М. Милых.

А.П.Чехов - это писатель, стремящийся довести форму своих произведений до совершенства. Его работа над словом либо фразой может служить образцом того, как следует добиваться точности, своеобразной эксклюзивности текста при условии, когда максимум содержания должен быть выражен минимумом языковых средств. Он активно использует ненормированные единицы языка в текстах произведений, акцентируя внимание и на информативности подобных единиц, позволяющей указать на социальное положение персонажа, место, время повествования и т.п., и на эстетических возможностях просторечий.

Просторечие — одна из форм национального языка, наряду с диалектной, жаргонной речью и литературным языком; вместе с народными говорами и жаргонами составляют устную некодифицированную сферу общенациональной речевой коммуникации - народно-разговорный язык; имеет наддиалектный характер. Просторечие, в отличие от говоров и жаргонов, - общепонятная для носителей национального языка речь»

Активное участие в языковых процессах XIX-XX вв. значительной части носителей русского языка, не владеющих нормой, а таковыми оказывались жители сёл и представители городских низов, со всей остротой обозначило проблему реального разграничения просторечных и диалектных языковых фактов. В полной мере эту актуальность мы ощутили в процессе работы над ненормированными элементами языка произведений А.П.Чехова, поскольку простая классификация этих элементов уже предполагала их отнесённость к определённой форме языка - просторечию или диалекту..

В рассказах А.П.Чехова разговорная лексика эмоционально окрашена, поэтому использование элементов этого стиля дает автору возможность наиболее точно и доходчиво передать характер своего героя и его речи, а читателю позволяет легко воспринимать суть написанного. Разговорная лексика очень хорошо воспринимается любым человеком, потому что ежедневно человек употребляет ее в своей речи. А.П.Чехов - мастер создания образов. Главное его задачей было, показать реального русского человека. Более того, его герои - представители русского народа.

Автор использует лексику разговорно-литературного пласта. В основном используется уменьшительно-ласкательная форма, которая выражает снисхождение к обозначаемому словом предмету, нежное и доброе к нему отношение, умиление.

Слова с уменьшительно-ласкательными суффиксами, в которых суффиксы указывают на разговорный характер слов и не вносят субъективной оценки ласкательности. Поблескивающий на солнце ледок. С помощью суффикса - ок - слово приобретает разговорный характер, уменьшительно-

ласкательная форма слова указывает на то, что слой льда тонкий. Через речку Еланку. С помощью суффикса -к слово приобретает разговорный характер, его форма указывает на небольшой размер описываемой реки. Сказал приглушённым баском. Басок - не особенно сильный голос с низким тембром. Разговорный характер слову придаёт суффикс -к-. Выломав... хворостинку. Слово приобретает разговорное значение с помощью суффикса -инк - с уменьшительным значением. Окончил семилетку. Семилетка - семилетняя школа. Легкий ветерок - уменьшительная форма слова ветер. Образовано с помощью суффикса -ок-, форма слова указывает на то, что ветер слабый, несильный.

Слова, в которых эти суффиксы выражают отношение автора и повествователя к описываемым явлениям. Характерно для рассказа, что автор использует лексику разговорно-литературного пласта для описания добрых персонажей, или же для их речи. Уменьшительно-ласкательные суффиксы участвуют в описании портретов персонажей. Андрей Соколов, главный герой рассказа, говорит баском, в описании его спутника использованы такие ласкательные слова как сынишка, курточка, бровки, жена Андрея Соколова при прощании делает шажки. Всё это показывает, с какой любовью относится к этим героям автор, показывает нежность, хрупкость описываемых персонажей. Старенький, выдавший виды "виллис". Достигший старости. С помощью суффикса -еньк - слово приобретает разговорный характер. Папенька - ласкательное или почтительное обозначение отца, разговорных характер придаёт слову суффикс -еньк-. Легонько потряс её. Слово образовано с помощью суффикса -оньк-, имеет значение: слабо, несильно, чуть заметно. Белесые бровки - уменьшительное от брови, образовано с помощью суффикса -к-. Сынишка, сапожки, курточка, латка - все эти слова использованы для описания мальчика.

В работе над текстом А.П.Чехов вновь и вновь обращается к просторечиям и диалектизмам. Следует отметить, что основная текстологическая работа производилась писателем при переизданиях его

произведений, особенно при подготовке «Собрания сочинений» в издательстве А.Ф. Маркса. Работая над ранними произведениями, А.П.Чехов не включил в собрание сочинений огромное количество текстов, считая их недостаточно художественными, а над остальными произвёл скрупулёзную текстологическую работу. Сравнивая первоначальный текст и окончательный, можно наглядно убедиться в том, как писатель относится к ненормированным единицам речи. Кажется, что А.П.Чехов движется в одном направлении, заменяя диалектизм его литературным эквивалентом. Но эта кажущаяся простота практически ничего не выявляет. Дело в том, что, отказываясь от диалектного слова в одном тексте, А.П.Чехов оставляет его или подобное ему в другом. По-видимому, установление критериев текстологической работы автора с диалектными словами возможно лишь при анализе конкретного материала, причём следы этой работы обнаруживаются практически во всех группах диалектизмов Чехов-редактор исключает лишь часть фонетических особенностей, имеющих диалектный характер, в результате чего «наша "гар адская голова" идёт» заменяется на «наша городская голова идёт» [мороз. VI, 4бз], «сикреты говорила» - на «секреты говорила» [пьяные (в) VI, 479], «мужицкой» — на «МуЖИЦКИЙ» [Умный дворник (в). II, 396], «грибов» ~ на «грибов» [Шведская спичка (в). II, 423 ], «без хфаСШОвСТВО» — На «без ХВаСТВОСТВЯ» [Письмо к учёному соседу (в). I, 498]. Подобные замены не случайны. Они вызваны конкретными обстоятельствами. Попробуем проанализировать логику замен. Формами «городская голова» и «сикреты говорила» А.П.Чехов подчёркивает аканье и иканье южнорусского типа в речи своих персонажей, но практически такое же произношение характеризует литературный язык, следовательно, любой читатель, владеющий литературным языком, данные слова именно так и прочтёт: акая и икая. Таким образом, нет никакой нужды в намеренно диалектной их передаче - этот приём не срабатывает, а иной информации формы не несут.

## Литература

1. Rayfield D. Anton Chehov. A, life. New York, 1998 - цит. по работе Е.А.Шапочка. Первоначальный виновник бытия. // Поэтика, истоки, влияние. Межвузовский сборник научных трудов. - Таганрог, 2000. -С.164-171.
2. Аванесов Р.И. Очерки русской диалектологии. М.: Учпедгиз, 1949. -375 с.
3. Аванесов Р.И., Орлова В.Г. Русская диалектология. М.: Наука, 1964.-306 с.
4. Агаронян И.В. О некоторых способах образования окказиональных слов в письмах А.П.Чехова. // Учёные записки Куйбышевского пед. института. 1969. - вып.66. - С. 3-22.

## КОМИЧЕСКИЕ ПОИСКИ РЕАЛЬНОСТИ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА

*Азимова Нигора*

*Магистрант 2 курса русской филологии НамГУ*

### **Аннотация**

Набоков однажды сказал, что «реальность» — это «одно из немногих слов, которые ничего не значат без кавычек». Он часто выражал свой скептицизм относительно того, возможно ли когда-либо знать вещь: все, что можно сделать, это собрать как можно больше фактов и данных о вещи, накопить информацию о ней и таким образом попытаться приблизиться к ее реальности. Вопросание Набокова проникает в область метафизики, когда он исследует природу пространства и времени, когда он спрашивает, не может ли жизнь быть иллюзией, сном; является ли жизнь просто чередой бессмысленных совпадений, или она имеет какой-то разумный и значимый образец. Наконец, он исследует природу смерти и ставит вопрос, действительно ли смерть является концом всего.

### **Abstract**

Nabokov once said that "reality" is "one of the few words that means nothing without quotation marks." He often expressed his skepticism as to whether it is ever possible to know a thing: all one can do is collect as many facts and data about a thing as possible, accumulate information about it, and thus try to approximate its reality. Nabokov's questioning enters the realm of metaphysics when he investigates the nature of space and time, when he asks if life could not be an illusion, a dream; whether life is just a series of meaningless coincidences, or does it have some reasonable and meaningful pattern. Finally, he examines the nature of death and questions whether death is really the end of everything.

### **Annotatsiya**

Bir paytlar Nabokov "reallik" " hech narsani anglatmaydigan kam sonli so'zlardan biri" deb aytgan edi. U biror narsani bilish mumkinmi degan shubhasini

bildirgan: biror narsa haqida iloji boricha ko'proq fakt va ma'lumotlarni to'plashga va shu tariqa uning haqiqatiga yaqinlashishga harakat qilish mumkin deb hisoblagan. Nabokovning so'rovi metafizika sohasida u tabiat qonuni va vaqt birligini o'rganib, hayot illyuziya, tush bo'lishi mumkin emasligini anglab yetadi; hayot shunchaki ma'nosiz tasodiflar ko'rinishi yoki u qandaydir oqilona va mazmunli naqshga ega deb xisoblaydi. U va nihoyat, o'z oldiga savol qo'yadi, hayot haqida o'ylaydi, tekshiradi va o'lim haqiqatan ham hamma narsaning oxiri yoki yo'qligini bilishga urinadi.

**Ключевые слова:** жанр, проза, поэзия, роман, Мэтораман, Америка, Защита Лужина

**Kalit so'zlar:** nasr janri, she'riyat, roman, metoraman, Amerika,

**Keywords:** genre, prose, poetry, novel, roman, America,

Американский писатель, критик Р. Диллард, рассуждая о романах Набокова, обнаруживает в них близкое родство с русской литературой. Он говорит, что одна из ее характеристик состоит в том, что ее мир... это мир, в котором совпадение является контролируемым событием и в котором творческая свобода человека связана с открытием модели его судьбы, а не с формированием ее. Ряд романов Набокой по-разному иллюстрирует точку зрения Дилларда на русскую литературу. Ранний роман «Защита Лужина» и два романа, написанные Набоковым, когда он уже давно начал считать себя американским писателем: «Бледный огонь» и «Прозрачные вещи», по видимому, продолжают русскую традицию. Набоков делает «открытие закономерности» частью своих поисков «истинной реальности». Обычно люди не видят ничего, кроме «средней реальности» или даже «тонкой оболочки непосредственной реальности» своей жизни: то, что они видят, кажется им хаотичным. События и случаи их жизни не кажутся им никаким образом логически связанными, а следуют друг за другом бессистемно и без какого-либо узнаваемого замысла или цели. Однако ни один из процитированных романов не оставляет сомнений в том, что «случайность — это управляемое событие». За кажущейся хаотичной поверхностью и [www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

«средней реальностью» открывается другая (истинная) реальность. В нем можно видеть, что каждое событие и инцидент имеют свою функцию и цель, и в нем даже кажущиеся совпадения жизни теряют свойство случайности и становятся значимыми элементами запутанной, логичной и целенаправленной схемы, "паутины смысла". Второе утверждение Дилларда необходимо изменить, чтобы оно стало применимым к работе Набокова. В трех вышеназванных романах он исследует возможность открытия закономерности судьбы, но у него эта возможность дается не каждому. Только художник обладает «творческой свободой», о которой говорит Диллард; только он обладает даром понимать с помощью своего искусства дела судьбы, видеть и раскрывать целеустремленный замысел в том, что простым смертным представляется беспорядочным и безумным нагромождением не связанных между собой совпадений. В «Бледном огне» и «Прозрачных вещах» это стало возможным благодаря писательскому искусству. В «Прозрачных вещах» характерно, что сам герой, довольно заурядный молодой человек, не видит сквозь узор своей судьбы. Именно его создатель, художник, раскрывает эту закономерность читателю. В «Защите Л» именно шахматы дают герою возможность заглянуть в картину своей жизни. Шахматы для Набокова, безусловно, форма искусства: он ссылается на них, говоря о своей концепции композиции романов, а в «Защите Л» показано, что они имеют близкое родство с музыкой. Три романа также подтверждают третий пункт Дилларда и соединяются между собой. в этом Отчаяние. Все они с большой определенностью заявляют, что человек не может сформировать его собственное будущее, и становится ясно, что это нечто такое, что выходит за рамки даже возможностей художника. Человек не может принимать участие в «игре богов», в которой определяется его судьба, и еще более важным фактом, ответственным за неудачи тех, кто этого не осознает, является то, что будущего не существует; это «лишь фигура речи, призрак мысли». Все это достаточно очевидно в «Защите Л». Лужин, герой романа замкнут и неразговорчив, как ребенок, и интересуется только теми вещами, в которых из кажущегося хаоса чудесным образом выявляется какая-то закономерность и



порядок: математикой головоломки, которые при правильном соединении кусочков «в последний момент образовывали внятную картинку» Истории о Шерлоке Холмсе, которые ведут «через хрустальный лабиринт возможных выводов к одному блестящему заключению». Во всем этом, объединенном в шахматах, он находит качества, которые его очаровывают: их логика узор, который сначала скрыт, но постепенно раскрывается и становится прозрачным; и их гармония. Мало-помалу он погружается в шахматы, фактически до такой степени, что становится не в состоянии справиться с жизнью и на некоторое время вообще теряет с ней связь. Если поначалу он просто перестает видеть границы между шахматами и жизнью, то постепенно шахматы становятся для него навязчивой идеей и в конце концов принимают в его сознании роль жизни, тогда как «все, кроме шахматы были только феерическим сном». Излечившись от нервного срыва — следствия этого навязчивого и изматывающего занятия — Лужин некоторое время повинуется указанию относиться к шахматам как к «холодной забаве», и он "не может думать об этом без чувства отвращения". Он мягко подчиняется жене, управляющей его жизнью, и смутно, мечтательно даже наслаждается этим. Затем мало-помалу шахматы овладевают снова, более фатально и пугающе, чем раньше. Он смутно осознает, что ряд событий, кажется, повторяет некоторые решающие события из его прошлого. Он постепенно понимает, что это не может быть чистым совпадением, но сначала не может называет сочетание, и тогда, наконец, наступает момент, когда все становится на свои места, когда сочетание открывается ему, и это для него момент эстетического и художественного наслаждения, он испытывает то же наслаждение, опыт в связи с математикой и головоломки, но прежде всего с шахматами. Гордость и облегчение наполняют его, потому что он чувствует, что проник в тайну. Он уловил сочетание и систему в схеме своей жизни, нашел схему там, где ее, казалось, не было и где никто, кроме него самого, ее не увидит. Он испытывает «то физиологическое ощущение гармонии, которое так хорошо знакомо художникам» и которое предвещает «комбинационное наслаждение», которое испытывает «Тень в бледном огне», когда он

[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

открывает в своем искусстве узор и замысел, лежащие в основе его собственной судьбы.

Однако, в отличие от Шейда, Лужин не может принять то, что находит. Его восторг сменяется страхом и ужасом, когда он понимает, что обнаруженная им гармония на самом деле является гармонией шахмата. Движение за движением он обнаруживает, что устрашающе, изящно, гибко повторены образы его детства ...как некоторая комбинация, известная из шахматных задач, может неявно повторяться на доске в реальной игре, - так теперь последовательное повторение знакомого рисунка становилось заметным в его теперешней жизни . Он подозревает, что повторение будет продолжаться, и знает, что если это произойдет, то оно будет фатальным, ибо приведет к той же страсти и последующей катастрофе, что и прежде, и еще раз размышлять, что он стал называть мечта о жизни» . С того момента, как он в состоянии различить комбинацию, которая его давно беспокоит, вся его жизнь принимает в его уме подобие чудовищной партии в шахматы. Хотя он и запрещает себе думать о реальных партиях, он способен мыслить только шахматными образами , и даже сон состоит из шестидесяти четырех клеток, гигантской доски, посреди которой, дрожа и совершенно голый, стоял Лужин. , величиной с пешку, и вглядеться в тусклое положение крупных фигур, мегацефальных, с коронами и гривами . Высказывания Дилларда точно описывают то, что Лужин испытывает отныне. Хотя он пришел к пониманию через свое искусство схемы событий и происшествий в своей жизни, и хотя он думает, что знает, к чему она приведет, если ее развить дальше, он все же совершенно не в состоянии вмешиваться и вмешиваться. формируют образец своего будущего сам. Он воображает, что является участником игры в шахматы, которая составляет его жизнь, и пытается обмануть своего противника: уже накануне он придумал интересное устройство, которое, возможно, могло бы сорвать замыслы его таинственного противника. Прием заключался в том, чтобы добровольно совершить некий абсурдный неожиданный поступок, выходящий за рамки систематического порядка жизни, противодействуя таким образом последовательности ходов,

[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

запланированных его противником. Но кем бы ни был его противник, его не одурачить. Из того, что происходит, выходит, что ход Лужина был предвиден и учтен. Его защита оказывается ошибочной, и развитие, которого он опасался, почти доведено до фатального завершения. Становится очевидным, что Лужин не столько игрок за доской, сколько фигура на доске, передвигаемая по своей воле и с определенной целью таинственными силами, играющими в игру. На самом деле его искусство может позволить ему проникнуть в структуру и работу судьбы, причем правила и ходы в обоих случаях одни и те же. Но хотя он и свободен передвигает фигуры на доске, он не имеет права вмешиваться в «игру богов», в которой он сам не более чем крошечная шахматная фигура и в которой вершится его судьба. Чувство абсолютной беспомощности и отчаяния, наступающее на него при осознании этого факта, допускает только один способ действия, а именно: «выпасть из игры», чтобы спастись. По иронии судьбы, последнее, что он замечает, когда выпрыгивает из окна своей ванной в вечность, это то, что, по-видимому, его основная конструкция совсем не отличается от того, что он узнал основную закономерность жизни: ...оконные отражения собрались и выровнялись, вся пропасть разделилась на темные и бледные квадраты, и... он точно увидел, что это за вечность услужливо и неумолимо простиралась перед ним.

### **Литература.**

1. Marianna Walenda doctor of philosophy 1980г
2. Юлий Айхенвальд. Литературные Заметки(“Король, дама, валет”)
3. Зинаида Шаховская, “В поисках Набокова”
4. Куиццын В.Н. Набоков без Лолиты. Новое издательство, 2013

## SHASHMAQOM IJROCHILIGIDA KOMMUNA ISMOILOVANING IJRO TALQINI

*Mamadolimova Malikaxon Mamatisak qizi*

*Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti*

*“O'zbek musiqa san'ati” fakulteti*

*“Maqom xonandaligi” kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Xalqimizning musiqa boyliklari juda ham ko'p qirrali, sermazmun va rang-barangdir. Ushbu maqolada O'zbek xalqining sevimli san'atkori, O'zbekiston xalq artisti, betakror ovoz sohibasi Kommuna Ismoilova maqom ijrochiligidagi serqirra faoliyatini, o'ziga xos ijro maktabini baholi qudrat yoritishga harakat qildik.

**Kalit so'zlar:** Shashmaqom, Xonandalik uslubiyoti, Kommuna Ismoilova, Xiva kommunasi, Chapandozi Navo, Savti Ushshoq Qashqarchasi, Saraxborlar taronalari, O'ylanma, Ey chexrasi tobonim, Bir go'zal, So'lim bahor, Do'ppi tikdim, Shifokorlar.

“Dunyoda musiqasiz hayotini tasavvur eta olmaydigan, ulkan qalb egasi va o'z kasbiga fidoiy shunday insonlar borki, ularning taqdirida insoniyatga, xalqiga xizmat qilishdek mashaqqatli, beminnat, lekin sharaflı mehnat bitilgan. Binobarin, ularga Yaratgan tomonidan benazir ovoz, iste'dod va shunga mos bardosh in'om etilgan. Tabiatning ushbu ne'matlarini anglab, undan hayotida to'g'ri, oqilona foydalana olgan san'atkorgina, avvalo, ijobatini, qolaversa, hayotdagi o'rni va mavqeini topa oladi. Pirovardida el sevgan san'atkor bo'lib, xalq orasida doimo ardoqda bo'ladi”<sup>1</sup>.

O'zbek xalqining sevimli san'atkori, O'zbekiston xalq artisti, betakror ovoz sohibasi Kommuna Ismoilova 1927-yilning 15-dekabrida Xorazm viloyati Xiva shahrida, ziyolilar oilasida tavallud topgan. Otasi Qurbon Ismoilov o'qimishli, ziyoli

<sup>1</sup> “Коммуна Исмоилова” ., А.Жалилов., Тошкент – 2019, 3 – бет

inson bo'lib, Xiva shahridagi «Xiva kommunasi» gazetasining muharriri bo'lgan. Onasi Bekajon Ismoilova esa, o'sha davrdagi xotin – qizlar maktabida o'qigan. Ular to'ng'ich farzandlariga Ullibibi deb nom qo'yishgan. Hayot taqozosi bilan shahar hokimi Qurbon Ismoilovning farzand ko'rganidan xabar topadi va o'zi muharrirlik qilayotgan gazetaning nomiga mos qilib, qizini Kommuna deb atashni maslahat beradi va bu fikr hammaga ma'qul bo'ladi. Shu bahona Ismoilovlar oilasining to'ng'ich farzandi jaji qizaloqni Kommuna deb atay boshlaydilar.

Kommuna Ismoilova maktabda o'qish bilan birga, ko'ngil qo'ygan qo'shiqlarini kuylab, ustozlaridan san'at sirlarini o'rganib, ijrochilik malakasini ham oshira boradi.

R.Yunusov «Faxriddin Sodiqov» monografiyasida yozadi: «Bir muddat o'tgandan so'ng harbiylashgan san'atchilar guruhi Xorazm tomon xizmat safariga o'tlanadi. Bu yerda ko'plab kontsertlar uyushtiriladi, ijodiy uchrashuvlar bo'lib o'tadi. Berilgan tomoshalarda mahalliy yosh havaskor xonanda va sozandalar ham o'z mahoratlarini namoyish etishga oshiqardi. Ular orasida Kommuna Ismoilova o'zining musiqiy iqtidori, shirador ovozi va jasur fe'li bilan G.Rahimova bilan F.Sodiqov nazariga tushadi.

Kommuna Ismoilovanning xonandalik sohasidagi ilk ustози F.Sodiqov. «Faxriddin Sodiqovning xonandalar ichida ilk shogirdi, ikkinchi jahon urushi faxriysi, o'z vaqtida mazkur front-kontsert brigadasi tarkibiga qo'shib olingan asli xorazmlik yosh havaskorlardan biri, O'zbekiston xalq artisti, Kommuna Ismoilova bo'lgan»<sup>2</sup>

«O'zbekiston xalq artisti Urganch pedagogika institutining havaskorlik to'garagida Xorazm termalarini ijro etib tanilgan. Ikkinchi jahon urushi yillari Gavhar Raximova rahbarligidagi xotin-qizlar konsert brigadasida ishtirok etgan. 1946 – yilda Xorazm musiqali drama teatrida o'z faoliyatini olib borgan, 1947 – yil O'zbek ashula va raqs ansamblida, 1948 – 1951 yillarda O'zbek davlat estradasida ishlagan. 1952 – 1959 yillarda O'zbek davlat filarmoniyasida, 1959 – 1988 O'zbekiston televideniya va radiosi o'zbek xalq cholg'ulari orkestri hamda maqom

<sup>2</sup> "Ф.Содиқов", Р.Юнусов., Тошкент – 2005., 41 - бет

ansamblida yakkaxon xonanda sifatida faoliyat yurutgan. 1985-yildan Z. G‘aniyeva nomidagi Veteran ayollar ansambli qatnashchisi bo‘lgan. Kommuna Ismoilova Navo maqomidan Chapandozi Navo va uning Qashqarchasini, Rost maqomidan Savti Ushshoq Qashqarchasini, Saraxborlar taronalarini, Nasri Bayot taronalarini va xorazmcha Rost maqomining Nasri Ushshoq sho‘basini (“Shitob aylab”) va boshqa ko‘plab maqom ashulalarini ijro etgan. O‘zbek xalq ashulalaridan "O‘ylanma", "Yoshlik chog‘imda", "Shifokorlar" va boshqalar, bastakorlik asarlaridan Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqov, Komiljon Otaniyozov, Muhammadjon Mirzayev asarlari, turli xalqlar (rus, ukrain turkman, qozoq) qo‘shiqlarini ham o‘zgacha mahorat bilan ijro etgan”<sup>3</sup>.

1959 yili Radio qoshida maqomchilar ansamblining tashkil etilishi munosabati bilan zamonaning eng mohir sozandalari va ustoz xonandalari ansamblga jalb etiladi. Ansamblning rahbari ustoz san’atkor, bastakor Yunus Rajabiy Kommuna Ismoilovani ham ansamblga taklif etadi. Kommuna Ismoilova hayotida eng mas’uliyatli va hayajonli damlar boshlanadi. Shu paytgacha u ko‘proq, zamonaviy musiqa ijodiyoti namoyandalari va ijrochilari bilan hamkorlik qilib kelgan bo‘lsa, endi haqiqiy an’anaviy musiqa merosining ustalari – xalq mumtoz musiqasining bilimdonlari bilan hamkorlik qilishiga to‘g‘ri keldi. Bu xonandaning hayotidagi yana bir katta saboq va ijod maktabi edi. Jamoa 6 -7 yil davomida juda katta harakatlar bilan “Shashmaqom” ning ashula yo‘llarini o‘zlashtirib, zamonaviy talqinda magnit tasmasiga yozish majburiyatini olgan edi. Bu esa jamoaga va jamoaning har bir xonanda va sozandasiga juda katta mas’uliyat yuklaydi. Ansambl ishtirokchilari tomonidan ham mas’uliyatga ko‘ra harakat va ijodiy ish olib borilgan.

Kommuna Ismoilova maqom ijodi va yozuvi bilan shunchalar band bo‘lishiga qaramay, xonandalik faoliyatini to‘xtatmaydi. Qadrdon ustozlari, bastakorlar bilan hamkorlikni davom ettiradi. Uning ijro repertuarida mumtoz musiqa namunalari, bastakorlarning mumtoz uslubda yaratgan ashulalari keng o‘rin olgan edi. Shu davr davomida F.Sodiqovning «Ey chexrasi tobonim» (Muqimiy), «Bir go‘zal» (Mirtemir), «So‘lim bahor» (A.Isroilov), Saidjon Kalonovning «Zebo o‘lkam»

---

<sup>3</sup> “O‘zME”, Birinchi jild., Toshkent – 2000-yil

(A.Isroilov), «Do'ppi tikdim» (T.To'la), Komiljon Jabborovning «Shifokorlar» (P.Mo'min), Doni Zokirovning «Mirzacho'lning qizlari» (A.Po'lat), Fattoh Nazarovning «Mehnat nashidasi» (Ya.Qurbonov), Sobir Safojevning «Yor maktubi» (T.To'la) va bir qator maqom namunalarini Radioning oltin yozuvlar fondiga yozishga erishadi. Kommuna Ismoilovanning har bir aytgan asari o'ziga xosligi bilan va uslubining yorqin namunasi sifatida tarixga bitiladi va ijro amaliyotida o'z o'rnini topadi. Ayniqsa mahoratli sozanda va bastakor Komiljon Jabborovning, shoir Po'lat Mo'min she'riga bastalagan «Shifokorlar» asari o'zining originalligi bilan ijrochilik san'atida ajoyib sahifa ochdi. 1962 yil so'z va kuyning mutanosibliigi, ijrochining sehrli ohang talqinida go'zal uyg'unligini topgan.

Kommuna Ismoilovanning o'zbek musiqa san'atida ko'rsatgan bebaxr xizmatlari esa, 1964 yili davlatimizning «O'zbekiston xalq artisti» faxriy unvoni bilan taqdirlanadi. Davlatimizning ushbu yuksak faxri Kommuna Ismoilovani yanada ruxlantirib yuborgan edi. Uning ijro repertuarini mumtoz asarlar hamda Vatanni madh etuvchi, ezgulik hamda sadoqatga chorlovchi zamonaviy asarlar bilan boyitdi.

Mana, 60 yildan ko'proq davr mobaynida xalqimiz Kommuna Ismoilovanning jozibali ovozidan baxramand bo'ldi. Uning go'zal xonishlari dillarga orom, muxlislariga yaxshi kayfiyat hamda ruxiy madad berib keldi. Kommuna Ismoilova qaysi uslubda qo'shiq kuylamasin, qaysi xalq qo'shig'i bo'lmasin, o'zining betakror ovozi bilan, «Kommunacha» talqini bilan ajralib turardi. Bu esa Kommuna Ismoilovanning o'zbek xalqi qalbidan allaqachon chuqur joy olgani va umumbashariyat iqbolini kuylovchi san'atimiz onaxoniga aylanganligidan dalolatdir. Zero, ayni paytda o'tmish san'atimiz darg'alari Kommunaxonim Ismoilova siymosida, ijrosida o'z aksini topgan, desak ham adashmagan bo'lamiz. Bu albatta san'at yo'lidagi uning 65 yillik mashaqqatli mehnatida mujassamlangan.

Ijodiy hamkorlikning samarasi esa ijro repertuaridan 450 dan ortiq asarlar o'rin olganligidan ham ko'rinib turibdi. Onaxon san'atkor yaqin kungacha kompozitor va bastakorlar, sozanda va xonandalar bilan hamkor va hamnafas bo'lib ijod qilib keldilar. Juda ko'p ijodkorlar Kommuna Ismoilovanning ijrodagi qiyofasiga, uslubiga va ruhiyatiga moslab asarlar yaratib berganlar. Shu bois, turli

[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

mualliflarning asarlari bir uslubga xos talqinini topgan. Kommuna Ismoilovaga qo'shiq yozgan va hamkor bo'lgan bastakorlarning sanog'i yo'q. F.Sodiqov, M.Yusupov, O.Xotamov, S.To'xtasinov, M.Murtazoyev, F.Olimov, Z.Mirolimova, T.Jo'rayev, A.Ismoilov kabilar shular jumlasidandir.

1987 yili Kommuna Ismoilova tavalludining 60 yilligi nishonlandi. O'zbek maqom ijrochilik san'atining bebaho xonandasi Kommuna Ismoilova 2013 – yilda bu yorug' dunyoni tark etdi.

Kommuna Ismoilovaning xonandalikdagi ijrochilik uslubi bugungi kundagi maqom o'rganuvchi yoshlar uchun katta maktab bo'lib xizmat qiladi...

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. “Коммуна Исмоилова”., А.Жалилов., Тошкент – 2019;
2. ”Ф.СОДИҚОВ”., Р.ЮНУСОВ., Тошкент – 2005., 41 - бет;
3. “О‘ЗМЕ”., Birinchi jild., Toshkent – 2000-yil;



## МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИК ҲУЖЖАТЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОЛИҚ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАВЗУСИДА АНИҚЛАНГАН МУАММОЛАР

*Файзуллаев Аброр Фахриддин ўғли*

*Қашқадарё вилояти юридик техникуми ўқитувчиси*

*[abrorfayzullayev551@gmail.com](mailto:abrorfayzullayev551@gmail.com)*

**Аннотация:** Ўзбекистон Республикасининг Солиқ сиёсати ва уни амалга ошириш усуллари, солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси бўйича тадқиқот ишлари ва чет-эл олимларининг фикри ва мулоҳазалари ўрганиб чиқилиб амалга оширилган ишлар таҳлили бўйича қўшимча таклиф ва тавсиялар келтирилиб ўтилган.

**Калит сўзлар:** Солиқ тизими, солиқ сиёсати, солиқ юки, солиқ тўловлари, йиғимлар, солиқ қарздорлиги, бюджет сиёсати, қўшимча қиймат солиғи, солиқ тўловчи, солиқ объекти, солиққа тортиш муаммолари.

## ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОПРЕДЕЛЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

*Файзуллаев Аброр Фахриддин ўғли*

*Учитель Кашкадарьинский областной юридический техникум*

*[abrorfayzullayev551@gmail.com](mailto:abrorfayzullayev551@gmail.com)*

**Аннотация:** Представлены дополнительные предложения и рекомендации по анализу налоговой политики Республики Узбекистан и ее реализации, исследовательская работа по концепции совершенствования налоговой политики и мнения зарубежных ученых.

**Ключевые слова:** Налоговой системы, налоговой политики, налоговое бремя, налоговые платежи, сборы, задолженность по налогам, бюджетная

[www.pedagogus.uz](http://www.pedagogus.uz)

политика, на добавленную стоимость, налогоплательщик, объект налога, проблемы налогообложения.

**Солиқ сиёсати ва уни амалга ошириш усуллари.** Жамият иқтисодий тараққиёти, бир томондан, унинг ички механизмига боғлиқ бўлса, иккинчи томондан, бошқарувнинг характериға, ижтимоий-сиёсий ҳолатга, мувозанатга боғлиқ бўлади. Хурматли Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек: «Конституция ва унинг негизида яратилган пухта қонунлар, шунингдек, мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси ҳокимият институтларини шакллантиришни ва уларни тўлақонли фаолият юритишини таъминлайди»<sup>4</sup>. Ушбу жумлалардан маълумки, ижтимоий сиёсат алоҳида роль ўйнайди. Ижтимоий сиёсат, ўз навбатида, ички ва ташқи маданий-маърифий, сиёсий, иқтисодий кабиларга бўлинади. Иқтисодий сиёсат ҳам ўз навбатида, молия, пул-кредит, солиқ, бюджет сиёсати каби турларда амал қилиб, уларнинг яхлитлиги макроиқтисодий даражада қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятлари фаолиятларининг ажралмас қисмига айланади. Юқорида қайд этилганидек, Солиқ сиёсати – бу иқтисодий сиёсатнинг ажралмас бир бўлаги бўлиб, давлатнинг муайян бир даврда аниқ мақсадларга қаратилган солиқ соҳасидаги фаолиятидир<sup>5</sup>. Солиқ сиёсатининг ҳуқуқий асослари сифатида мустақилликнинг дастлабки йилларида Ўзбекистон Республикасининг 1991 йил 31 августдаги «Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги тўғрисида»ги қонуни, Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, Ўзбекистон Республикасининг «Корхоналар, ташкилотлар, бирлашмалардан олинаниган солиқлар тўғрисида»ги, (1991 йил 15 февраль), «Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари, ажнабий фуқаролар ва фуқаролиги бўлмаганларнинг даромад солиғи тўғрисида»ги (1991 йил 15 февраль), «Маҳаллий солиқлар ва йиғимлар тўғрисида»ги (1993 йил 7 май) қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Президенти фармонлари, Ўзбекистон Республикаси

<sup>4</sup> Мирзиёев Ш.М «Миллий тараққиёт йўлимизни қатият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз», - Тошкент.: «Ўзбекистон», 2017 й, 592 б

<sup>5</sup> Худойкулов С.К «Солиқ тизими» –Т.:ИЛМ ЗИЁ 2013 й, 17-б

Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари каби меъёрий ҳужжатлардан иборат бўлган бўлса, 1997 йил қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси ва «Давлат солиқ хизмати тўғрисида»ги қонуни юқоридаги айрим ҳужжатларнинг ўз кучини йўқотишига олиб келиб, айримларининг ҳуқуқий базасининг кенгайишига хизмат қилиб келмоқда.

«Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги тўғрисида»ги қонунига муофиқ, шу кундан эътиборан Ўзбекистон Республикаси ўзининг мустақил солиқ сиёсатини олиб боради. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида фуқароларнинг бурчларига солиқларни тўлаш мажбурияти ҳам киритилган: «Фуқаролар қонун билан белгиланган солиқлар ва йиғимлар тўлашга мажбурдирлар»<sup>6</sup>. Шу билан бирга, мамлакатимиз ҳудудида ягона солиқ тизими амал қилиши ва уни белгилаш ваколати (Олий Мажлис) ҳақида жумлалар келтирилган<sup>7</sup>.

Солиқ борасидаги устувор стратегик вазифа эса давлат бюджети ва хўжалик юритувчи субъектларнинг солиққа оид иқтисодий муносабатларида муайян уйғунликни таъминловчи солиқ тизимини шакллантириш ва шунга мос равишда такомиллаштириб боришдан иборатдир, бир сўз билан айтганда солиқ сиёсати стратегияси – солиқ сиёсатининг узоқ муддатли йўналиши бўлиб, ижтимоий ва иқтисодий стратегия белгилаб берган улкан масштабни вазифаларнинг келажакда бажарилишини таъминлаш кўзда тутилган молиявий тадбирлар йиғиндисидир.

Солиқ сиёсати концепцияси – бу солиқларнинг йўналишларини аниқ илмий асосланган ҳолда амалга ошириш ғоялари яхлитлигидир. Агар солиқ концепцияси қанчалик чуқур илмий асосга эга бўлса, солиқ сиёсатининг барқарорлиги шунчалик мустаҳкам таъминланади. Шунини айтиш керакки, солиқлардан иқтисодиётни тартибга солувчи восита сифатида фойдаланиш концепцияси дастлаб 1936 йили инглиз иқтисодчиси Ж.Кейнс томонидан

---

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: «Ўзбекистон», 1992 й, 51-м

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: «Ўзбекистон», 1992 й 78-м

ишлаб чиқилган эди. Ушбу концепцияга муофиқ солиқлар жамиятда иқтисодий муносабатларни фақат тартибга солиш учун мавжуддир.<sup>8</sup>

Солиқ сиёсати концепцияси солиқ сиёсати стратегиясига нисбатан, солиқ сиёсати стратегияси эса солиқ сиёсати тактикасига нисбатан барқарор, яъни кам ўзгарувчан бўлиб, уларнинг барчаси бир-бирига боғлиқ ҳолда бир-бирини тўлдириб туради ҳамда яхлит ҳолда солиқ сиёсатининг моҳиятини ташкил қилади.

Солиқ сиёсати таркибий жиҳатдан қуйидаги йўналишларда амалга оширилади:

1. мамлакат миқёсида амал қилувчи солиқлар ва солиқсиз тўловларни қонуний жорий этиш;
2. амал қилаётган солиқларнинг самарали ишлашини таъминловчи механизмни шакллантириш ва такомиллаштириш, солиққа оид қонунлар ва бошқа меъёрий ҳужжатларни такомиллаштириб бориш;
3. солиқ сиёсатини амалга оширувчи тегишли ваколатли органларни ташкил этиш ва уларнинг ушбу соҳадаги вазифаларини белгилаш;
4. солиққа тортиш тизимини шакллантиришга қаратилган чуқур илмий тадқиқотни амалга ошириш ва уларни жорий этишга эришиш.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, солиқ сиёсати давлат, яъни унинг ваколатли органлари томонидан олиб борилади. Агар ушбу ваколатли органлар ҳокимият нуқтаи назаридан олиб қараладиган бўлса, қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятларига бўлинади. Айрим ҳолларда давлатнинг солиқ сиёсати Давлат солиқ қўмитаси томонидан олиб борилади, деган фикрлар учрайди. Амалда эса солиқ сиёсати давлат ҳокимиятининг барча бўғинлари: қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятлари фаолиятларининг ажралмас қисми сифатида комплекс тарзда амалга оширилади.

Бу ҳокимиятлар томонидан солиқ сиёсати қуйидаги тартибда ишлаб чиқилади ва унинг ижроси таъминланади. Қонун чиқарувчи ҳисобланган Олий

---

<sup>8</sup> Ф.И. Бабамаратовна «Солиқ ҳуқуқи», Т.:ТДЮ 2016 й 29-б

Мажлис томонидан солиққа оид ва унга бевосита тегишли бўлган қонунлар қабул қилинади, ўзгартириш ва қўшимчалар киритилади ёки айримлари бекор қилинади. Демак, солиқ сиёсатининг негизлари мазкур ҳокимият фаолияти билан боғлиқдир. Ижро ҳокимияти бўлган Вазирлар маҳкамаси ва унинг бўлимлари, Давлат солиқ қўмитаси, Молия вазирлиги, Адлия вазирлиги, Иқтисодиёт вазирлиги, маҳаллий ҳокимиятлар ва бошқа тегишли органлар Олий Мажлис томонидан қонун йўли билан жорий этилган солиқлар ва солиқларга тенглаштирилган мажбурий тўловларнинг ишлаш механизмини таъминлашга хизмат қилувчи ҳуқуқий меъёрий ҳужжатлар орқали уларнинг ижросини таъминлашди. Иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солишнинг бошқа дастаклари қатори солиқ сиёсати талаб ва таклиф ўртасидаги мутаносинликка эришиш орқали иқтисодиётда барқарор тараққиётни таъминлашга қаратилган<sup>9</sup>.

Ушбу ўринда таъкидлаш жоизки, ижро ҳокимиятининг бир бўғини ҳисобланган Давлат солиқ қўмитасининг солиқ сиёсатини ижросини таъминлашдаги алоҳида ўринга эга эканлигини қайд этиш лозим. Шунингдек, ҳар йилнинг охирида келгуси йил учун амал қиладиган солиқлар ва солиқларга тенглаштириладиган мажбурий тўловлар бўйича солиқ ставкаларини тасдиқлаш, ўзгартиришлар киритиш ваколати Ўзбекистон Республикаси Президенти ваколатига берилган. Солиқ сиёсатини ишлаб чиқиш ва амалга оширишда қонун чиқарувчи ҳамда ижро этувчи ҳокимиятлар бўғинлари билан бирга суд ҳокимиятининг бўғинлари ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Суд ҳокимияти томонидан қонуний амал қиладиган солиқлар, солиқларга тенглаштирилган мажбурий тўловларнинг ўз вақтида бюджетга келиб тушиши устидан назорат ўрнатилиб, солиқ қонунчилигини бузилишларининг олдини олишга қаратилган чора-тадбирлар қўлланади. Бугунги кунда солиқ органлари ходимларини бирлашиб, умумбелгиланган солиқ тўловига ўтаётган корхоналарда тушунтириш олиб бориш, уларга амалий ёрдам кўрсатиш, семинар-тренинглари ташкил этилиши ижобий аҳамият касб этмоқда. Ҳар бир

---

<sup>9</sup> Ваҳобов А.-«Солиқлар ва Солиққа тортиш»,Т.:«Шарқ» 2009 й 38-б

туман ва шаҳарда, республика аҳамиятига молик йирик корхоналар ҳиссасини эътиборга олмаган ҳолда, солиққа тортиш базасини кенгайтириш бўйича амалий чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ҳисобидан Қорақалпоғистон Республикаси ва Тошкент вилоятининг барча туманларини субвенциядан чиқаришни сўзсиз таъминланиши таъкидлаб ўтилган... Солиқ-бюджет сиёсатида қатъий амал қилиш, давлатнинг ижтимоий мажбуриятларини бажариш, иш ҳақи, пенсия, нафақа ва стипендиялар ҳажми, йирик инвестиция лойиҳалари ва мамлакат мудофа қобилиятини мустаҳкамлашни молиялаштиришни Молия вазирлигининг фаолияти самарадорлиги билан белгиланади<sup>10</sup>.

Солиқ солиш соҳасидаги давлат бошқарувининг самарадорлиги кўп жиҳатдан давлат аппаратининг турли бўғинлари фаолиятидаги мослашувчанликка боғлиқ. Ваколат ҳар бир органнинг ўзига хос ролини белгилайди ва бир вақтнинг ўзида уни бошқа органлар фаолияти билан мослашувини таъминлайди. Давлатнинг асосий вазифаларидан бири ҳал этилиши – бюджетни тўлдириш, солиқ тўловчиларнинг иқтисодий ва юридик ҳатти-ҳаракатларига таъсир этиш у ёки бу дастагига эга бўлган барча давлат ҳокимияти органлар фаолиятини бир-бирига боғлиқлигини таъминлаш лозимдир. Нафақат савдогарларнинг маълум бир маҳсулот ёки хизмати учун, шунингдек ҳукумат ўз фуқаролари, резидентлари орқали ўз иқтисодини кўтариши, ҳаттоки фуқаролиги бўлмаган шахслар ёки норезидентларга ҳам солиқ тўлашни мажбурий қилиши мумкин.

Ушбу давлар тузилмаларининг ўзаро муносабатлари хусусиятига таъсир этувчи объектив омил маҳаллий вакиллик ва ижро ҳокимияти органлари ҳудудининг иқтисодий, ижтимоий ва маданий ривожланиши, маҳаллий бюджетларни шакллантириш ва ижро этиш, маҳаллий солиқларни белгилаш, бюджетда ташқари фондларни шакллантириш масалаларини ҳам этиш учун конституциявий белгиланиши ҳисобланади. Бу билан давлат ҳокимиятини

---

<sup>10</sup> Ш.Мирзиёев.-«Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак»\_Ўзбекистон.2017 й, 9-б

ташкил этишнинг тегишли даражаларида ҳал этиладиган бошқарувнинг барча масалаларида, шу жумладан молиявий соҳада ҳам юридик ваколатлилик мустаҳкамланади.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати томонидан давлат бюджет лойиҳасини тайёрлаш жараёнида солиқ юкини босқичма-босқич камайтириш назарда тутилмоқда. Бу эса бюджет-солиқ сиёсати соҳасидаги қарорларнинг самарали бўлишини, даромадлар ва харажатларни режалаштиришда илмий асосланган ва таҳлил этилган иқтисодиётнинг турли соҳаларини барқарор ривожлантиришга қаратилган меъёрий ҳуқуқий ҳужжатларни аниқ мезонлар асосида ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этишни талаб қилади.

### Хулоса

Бугунги бозор иқтисодиётига асосланган давлатларда давлатнинг энг асосий вазифаси сифатида кўриладиган ишларни бажариши учун етарли даражадаги бюджет маблағларига эга бўлиши лозим. Бунинг бугунги кунда бутун дунёда юз бераётган пандемия даврида давлат ўз аҳолисини ижтимоий ҳимоя қилиш учун етарли даражадаги молиявий манбалари бўлиши ва уларни шакллантириши нечоғлик муҳим эканлиги яққол кўриниб турган ҳақиқатдир. Шу жиҳатдан бозор муносабатларига асосланган давлатнинг бюджет маблағлари асосий қисми солиқларга асосланган бўлади. Солиқ давлат бюджетини шакллантиришнинг асосий манбаси сифатида қаралади. Бу давлат томонидан солиқ сиёсатига алоҳида эътибор қаратиши лозимлигини билдиради. Ҳар бир муаллиф унга ўзига хос хусусиятларни келтиради ва ўзига хос хусусиятларни таъкидлайди. Масалан, Н.А.Филиппова ва Д.Ю.Макевнина кенг маънода солиқ назоратини Россия Федерациясининг самарали молиявий сиёсати ва иқтисодий хавфсизлигини таъминлашга қаратилган солиқ тартибга солувчиси ҳуқуқлари ва давлатнинг қонуний талаблари мувозанатига

эришишда давлат томонидан тартибга солиш тизимининг ажралмас қисми сифатида белгилайди.<sup>11</sup>

Охирги йилларда мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотлар натижасида солиқ қонунчилик ҳужжатлари такомиллашиб бормоқда. Ҳар йилнинг охирида солиқ ва бюджет сиёсатининг асосий йўналишлари қабул қилиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодексига киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчаларни, шунингдек солиқ маъмуриятчилигини соддалаштиришга, солиққа оид ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарликни либераллаштиришга, солиқ юқини камайтиришга, солиқ текширишларни янада қисқартириш ва унинг тизимини такомиллаштиришга қаратилган чора-тадбирлар орқали тадбиркорлик субъектларига кенг шарт-шароитлар яратилмоқда.

1. Хорижий давлатлар тажрибасидан фойдаланган ҳолда жисмоний шахслар мол-мулкани солиққа тортишда прогрессив солиқ ставкаларини жорий этиш. Прогрессив ставка қўлланилганда мол-мулк қиймати табақалаштирилади ва кам мол-мулкка эга бўлган жисмоний шахслар паст ставка солиқ тўлайди, кўп мол-мулкка эга бўлган солиқ тўловчилар эса юқорирақ ставкада солиқ тўлайдилар. Бундай ставкани қўллашда кам таъминланганлар ижтимоий ҳимояланади. Мазкур солиқни ундиришдан асосий мақсад маҳаллий бюджет даромадларини тўлдириш бўлгани учун ҳам прогрессив ставкани қўллаш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

2. Солиқ қонунчилигининг барқарор ишлаши, қабул қилинаётган норматив ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритилиш жараёнини тартибга келтириш мақсадида камида 2 йилга мўлжалланган бюджет даромадлари ва харажатлари параметрлари дастурини амалиётга татбиқ этиш лозимдир. Зеро Солиқ тизимида ҳар йили йиллик бюджет дастурлари, юзлаб қарорлар ва унга ўзгартириш, қўшимчалар киритилиниб келмоқда. Бу Солиқ тизими ходимлари фаолиятини қийинлаштиришини ва

---

<sup>11</sup> Шестакова. Н.Н.Налоговые проверки в системе налогового контроля. Статья. Экономика.Социально-экономический и гуманитарный журнал Красноярского ГАУ.2018 №1



тез-тез киритилаётган ўзгаришлар ушбу соҳада аҳоли ҳуқуқий саводхонлиги даражаси пасайишини олдини олишга хизмат қилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

#### **I. Норматив ҳуқуқий ҳужжатлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси 2019// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида»ги 2018 йил 29 июнь ПФ-5468 Фармони// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 июлдаги ПҚ-4389 сон Қарори билан тасдиқланган «Солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш стратегияси»// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

#### **II. Раҳбарий адабиётлар:**

1. Ш.Мирзиёев.-«Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак»-Т.: Ўзбекистон, 2017 й
2. Мирзиёев Ш.М «Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз»-Т.: «Ўзбекистон», 2017 й.

#### **III. Дарслик ва ўқув қўлланмалар:**

1. Ваҳобов А. «Солиқлар ва Солиққа тортиш» Ўқув қўлланма.-Т.: «Шарқ» 2009 й, -448 б.
2. Ф.И. Бабамаратовна. «Солиқ ҳуқуқи» Ўқув қўлланма..-Т.: ТДЮ 2017 й, -294 б

#### **IV. Илмий журналлардаги мақолалар:**

1. Дебораҳ А.Гейер. У.С. Федерал Инсоте Тах оф Индивидуалс. Студий гуйде-2015
2. Шестакова. Н.Н. Налоговые проверки в системе налогового контроля. Статя. Экономика. Сотсиално-экономический и гуманитарный журнал Красноярского ГАУ.2018 №1 -С.18
3. Эргашев И.А. Солиқ маъмуриятчилигининг асосий функциялари ва принциплари Мақола, Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали №С4 (2020) тадқиқот.уз Б-496.

#### **V. Интернет сайтлари:**

- <http://www.lex.uz>
- <http://www.gov.uz>
- <http://soliq.uz>

## TASVIRIY SAN'AT ASOSIDA ESTETIK DIDNI TARBIYALASH

*Xalilov Lenar Shevketovich*

*QarDU 2-bosqich magistri*

### **Annotasiya**

Jahon va o'zbek tasviriy san'atida badiiy obrazlarning rangtasvirdagi badiiy o'rni hamda uning yoshlarni estetik tarbiyalashda o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish, o'quvchilarga tasviriy san'at tugaraklarida orqali san'atni sevish va barkomol inson bo'lib yetishishida uni rivojlanishning bosqichma-bosqich o'rganish va tahlil etish, shuningdek obrazlarda badiiy did va badiiy tugaraklarning ahamiyatini ilmiy tahlil qilishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Estetika, san'at, madaniyat, go'zalik, dizayn, nafosat, did, tarbiya omillari.

Prezidentimiz asarlarida san'at va madaniyat dargohlarining o'sib kelayotgan yangi avlod tarbiyasidagi o'rniga alohida ahamiyat berilgan. Davr bilan hamnafas yashayotgan, hayot sinovlarida toblangan fidoyi insonlarhaqida hikoya qiluvchi asarlar bilan milliy madaniyatimizni boyitish zarurligi ta'kidlangan. Bu vazifa san'atkorlar uchun ham bevosita taaluqlidir. Ma'naviy hayotimizni, milliy ong va qadriyatlarimiz, e'tiqod vatafakkurimiz, urf-odat va an'alarimizni asrab - avaylash, ma'naviy olamimizni yuksaltirish bevosita ijokorlar faoliyati bilan bog'liq. O'zbek va chet el rassomlarining go'zal asarlarini kim maroq, bilan tomosha qilmagan, ulardan zavq olmagan? Muzey va ko'rgazmalarda atigibir marta bo'lgan odam rassomlarimiz tomonidan yaratilgan go'zal asarlarni tomosha qilishdan bahramand bo'ladi albatta, ko'ngliga o'tirgan assarlarni yana bir bor ko'rish maqsadida shoshiladi. O'tmish va hozirgi zamon tasviriy san'at asarlarini tomosha qilishni hammamiz ham yaxshi ko'ramiz. Buning juda ko'p sabablari bor. Shu o'rinda mashho'r rassomlardan birining shunday gaplari bor. Ushunday degandi: «Biz san'atni shuning uchun ham sevamizki, u insonio'rab olgan borliqning go'zal

tomonlarini ochib beradi, insonga kuch quvvat, sevinch baxsh etadi, uni ruhiy, ma'naviy jihatdan boyitadi, hayotini zavq-shavqqa to'ldiradi. Biz san'at asarlarini shuning uchun ham qadrlaymizki, ular shoirona his - tuyg'ularga boy bo'ladi, rassom o'zyurak haroratini, tuyg'ularini kamyob, takrorlanmas, original, hayotiy bo'yoqlar bilan ifoda etadi». Yuksak g'oyaviy, mazmunli, xalqchil, yuksak badiiy mahorat bilan haqqoniy yaratilgan san'atgina bizning aql hamda his-tuyg'ularimizga ta'sir etadi. Yaqin o'tmishdagi realistik san'at namoyandalari ijodining eng muhim xususiyatlaridan biri shunda ediki, ular o'z asarlarida xalq hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, xalqda o'z kuchiga ishonch uyg'otuvchi muhim mavzularni aks ettirardi. Rassomlarning faqat turmush emas, shuningdek tabiat manzaralari ham tasvir etilgan rasmlaridagi hayot haqiqati kishini qattiq hayajonga soladi. Ajoyib tabiat manzaralarini ko'rar ekanmiz, rassomning quyidagi so'zlarini eshitayotgandek bo'lamiz: «Odamlar, qarang, biz yashayotgan olam qanday go'zal, uni men kabi seving, ana shu muqaddas sevgi bilan uni o'zingizga asir eting. Bu boqiy dunyoda undan bir umrga lazzatlaning, tinchlikni qadriga yeting, buyuk ishlarga belingizni mahkam bog'lab olg'a intiling». O'ral Tansiqboyevning "Jonajon o'lka" nomli asari sevimli o'lkamiz tabiatiga cheksiz mehr-muhabbat hissi bilan sug'orilgan. Suratda baland tog' etaklaridan gul terayotgan bolalarni, ertalabgi quyoshning zarrin nurlari yoritib turgan cheksiz vodiyni o'rab olgan qorli tog'lar ponaramasini ko'rar ekanmiz, ko'z o'ngimizda kishining irodasi va mehnati bilan bog'u-bo'stonga aylanayotgan O'zbekistoniyerlarining yorqin manzarasi gavgaldanadi. O'zbekistonning go'zal tabiati O'. Tansiqboyev ijodida markaziy o'rinni egallaydi. Kasbidan qat'i nazar, har bir odamni tasviriy san'at orqali estetik qobiliyatini o'stirish, uning estetik ehtiyojlarini qondirish jo'da mo'him vazifadir. Rassomlarimiz vatan va jahon progressiv san'atiga suyangan holda o'zining chuqur g'oyaviyligi, shaklining mo'kammalligi, xalq turmushigabog'liqligi bilan ajralib turuvchi san'at yo'lida dadil qadam tashlamoqdalar. Yangi kishini tarbiyalashda, xususan, estetik jihatdan tarbiyalashda san'atning roli katta. O'zida ilg'or g'oyalarni mujassamlantirgan mehnatsevar kishirassomlarning eng sevimli va asosiy qahramonlariga aylanmog'i kerak. Optimizm va hayotbaxsh g'oyalar bilan sug'orilgan zamon quruvchisiga

xosolijanob fazilatlarini taraqqiy ettirishi va san'at asarlari millionlabkishilarimiz uchun sevinch, ilhom manbai bo'lib xizmat qilishi, uningirodasi, orzu-umidlarini, his-tuyg'ularini ifoda qilishi, ularning hamg'oyaviy, ham ma'naviy o'sishida kuchli bir vosita bo'ladi. Xalqimizning san'atga bo'lgan qiziqishi, o'z hayotini go'zal qilishga, uniestetik jihatdan boyitishga bo'lgan intilishi benihoyadir. Yoshlarni estetik ro'hda tarbiyalashda san'atning roliga katta ahamiyat beriladi. Binobarin, San'at ahllari oldiga shunday muhim vazifalar qo'yilgan bir paytda, rassomlar ham bugungi qahramonlar haqida asarlaryaratish katta ahamiyatga ega. San'atning ta'sir kuchi xilma-xildir, u chindan ham mu'jizalar yaratishi mumkin. Insonning san'at asarlari ta'sirida o'z o'y-fikrlarini va histuyg'ularini chuqurroq tushunishga, teran fikr yuritishga, hayotda o'z o'rnini topib olishga, boshqalarni tushunishga, jamoa bilan barobar qadam tashlashiga yordam qilish zarurligini alohida o'qtirish lozim. Yaxshi estetik did — kishining chinakam go'zal narsadan zavqlana olishi, mehnatda, turmushda, xulq-atvorda, san'atda go'zallik yaratish, uni tushunish qobiliyatiga ega bo'lishdir.

Madaniy saviyasi keng va chuqur bo'lgan odam hayotiy voqealarga bir tomonlama emas, balki har tomonlama, mukammal estetik baho bera oladi. Tomoshabinlarni san'at asarlari bilan tanishtirish ularning bilim doirasini chuqurlashtiradi, his-tuyg'ulariga ta'sir etadi va shaxsining tarkib topishiga yordam beradi. Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik asarlari bilan tanishtirishda tarixiy voqealarni, badiiy asarqahramonining qiyofasini, uning tashqi muhit, alohida shaxs yoki ijtimoiyguruh bilan bo'lgan munosabatini anglashga imkon beradi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ikromjonov A.T. «Rangtasvirda etyud» Toshkent 2003
2. Muinov O, «Rangtasvir», O'quv qo'llanma. T.Sharq – 2007 y.
3. Normatov N. “Ranglar yurtiga yo'l”, T. Noshir – 2013 y.
4. Toshmuratov. M. E. “Rangtasvir amaliyoti”, Uslubiy qo'llanma. T.: “Chashma print”, 2010.
5. Xudayberganov R. «Kompozisiya». Toshkent.2004
6. Xaitov E, Sh. Jumaniyazov “Rangtasvir”, Uslubiy qo'llanma. Toshkent.: Info Capital Group, 2018.

## TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Qahorova Umriya Rahmon qizi*

*Buxoro viloyat Jondor tuman 10-umumta'lim maktabining*

*Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** hozirgi kunda na'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini, jumladan, tasviriy san'at o'quv jarayonini zamonaviylashtirish, rassom-pedagog bo'ladigan mutaxassislar tayorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, hamda ularning sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanishlik, hamda istiqbolli vazifalarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish har bir zamonning zarur vazifalardan sanaladi. Mazkur maqolada tasviriy san'at va chizmachilik fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish haqida so'z yuritildi.

**Kalit so'zlar:** *ijodkorlik, faollik, mustaqillikni shakllantir, o'quv-tarbiya jarayoni, kasbiy bilim, malaka, ko'nikma, ilmiy-texnik innovatsiyalar.*

### **Kirish**

Tasviriy san'at o'qitishiga doir eng qadimgi va o'rta asr bosqichlaridagi (Misr, Yunon, Qadimgi Rim) ma'lumotlar. Tasviriy san'at o'qitish metodikasini rivojlantirishda Uyg'onish davri rassomlarining xizmatlari (Chennino Chennini, Leon Alberti, Leonardo da Vinchi, Albrext Dyurer). XVII-XIX asrda G'arbiy Yevropada rasm chizishni o'rgatish metodikasiga bo'lgan turli qarashlar. XVIII-XIX asrda Rossiyaning pedagogika o'quv yurtlarida tasviriy san'at fanining o'z miqdori. LD. Preysler, A.G. Sapojnikov, G.A. Gipiyslarning tasviriy san'at o'qitish metodlarining rivojlanishidagi o'z miqdori. P.P. Chistyakov, D.N. Kardovskiylarning pedagogik qarashlari va tasviriy san'at o'qitish uslublari. Misr. Yunoniston. Rim. Jahonda tasviriy san'atni o'qitilishiga dastlabki ma'lumotlar qadimgi Misr va

Yunonistonda eramizdan avvalgi III asrlarga doir materiallar mavjud. Qadimgi Misrda tog' qoyalariga o'yib ishlangan haykaliar, shuningdek, rangtasvir asarlari o'zining yuksak badiiyligi va ishlanish texnikasi jihatidan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Kishilar o'z tajribalarini keyingi avlodlarga turli yo'llar bilan ibtidoiy jamoa davridan boshlab o'tkazib kelganlar. Bunga eng qadimgi Misrda rasm chizishga o'rgatishga doir tarixiy manbalar guvohlik beradi. Tasviriy san'atni o'qitish ishi bilan odamlar qadimdan shug'ullanib kelganliklari ko'proq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga o'rgatish munozam ravishda chizmachilik bilan bog'liq holda amalga oshirilgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda maktabni tugallab chiqayotgan yoshlar ma'lum maydon yuzasini o'lchash va uni qog'ozga tushura oladigan, bino planini chiza oladigan, ariq va kanallarning sxemasini tasvirlay oladigan bo'lishlari talab etilgan.

Umumta'lim maktablarda tasviriy san'at davlat ta'limi standarti va uning mohiyati. Maktabda tasviriy san'atdan o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan minimal talablar. O'qituvchilarni o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlanishi. Mustaqillik yillarida tasviriy san'at o'qitish metodikasidan olib borilgan tadqiqotlar. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab Respublikamizda xalq ta'limini tubdan isloh qilish, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga olib chiqish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Shu maqsadda 1992-iyulda «Ta'lim to'g'risida»gi qonun e'lon qilindi. Bu hujjatda ko'rsatilgan reja va tadbirlarni amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb qaraldi. Natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi barcha o'quv fanlari qatori «Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi» ham tayyorlandi va u O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi kollegiyasining 5-may 1993-yilgi 5-5-sonli qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyada qayd qilinganidek, uni tayyorlashda quyidagi omillar hisobga olingan edi:

- mustaqil O'zbekiston sharoitidagi o'zbek bolasini shakllantirishga bo'lgan zamonaviy talablar; 36 - ta'lim-tarbiyani milliy madaniyat va san'at asosida amalga oshirishni kuchaytirish;

- ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda O'zbekiston Sharq mamlakati ekanligini hisobga olish va shu asosda badiiy ta'lim mazmuniga tegishli o'zgartirishlar kiritish;

- maktabdagi badiiy ta'limni amalga oshirishda bolalarni fikrlashga, ishga ijodiy munosabatda bo'lishlikni kuchaytirish, ularni yuksak did va madaniyatli qilib shakllantirishga qaratish;

- maktabda bolalarni tasviriy san'atdan bilim va malakalarni puxta egallashlariga qaratish, shu asosda tabaqalashtirilgan badiiy ta'limni joriy etish;

- O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at ta'limi mazmunini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish.

Bu g'oyalar so'zsiz barkamol komil insonni shakllantirishga zamin bo'lib, unda tasviriy san'atni o'qitishning yaqin va uzoq yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan yo'nalishlari bayon etildi. Konsepsiyadan tegishli xulosalar chiqargan holda tasviriy san'atdan davlat ta'lim standarti va variativ dasturlarni ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi. Natijada 1-4-sinflar uchun 270 soatga mo'ljallangan «Tasviriy san'at va badiiy mehnat», 1-7- sinflar uchun 245 soatga mo'ljallangan «Tasviriy san'at» dasturlari tayyorlandi.

Bunda badiiy ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash; oliy ta'limda tasviriy san'at o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o'qituvchilarning kompyuter va Internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy ta'limning axborot resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish; tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish oliy ta'lim muassasalarida rassom-pedagoglarining faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi.

Ta'lim tizimini jumladan, tasviriy san'at ta'lim tizimini modernizatsiyalash o'quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi.

Shunday ekan, tasviriy san'at ta'limga innovatsion (inglizcha innovation — yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo'nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi.



Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san'at o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi.

Bu esa o'z navbatida tasviriy san'at o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza (muammoli ma'ruza, ma'ruza-seminar, virtualtexnologik ma'ruza, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, kirish ma'ruzasi, ma'ruza-konferentsiya, axborotli ma'ruza, ma'ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma'ruza, online ma'ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferentsiyalar, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi tasviriy san'at o'quv jarayoniga, xususan Dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya darslariga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati ham o'ziga xos hisoblanadi.

“Interfaol” so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, «inter» — o'zaro va «act» — harakat qilmoq ma'nolarini bildiradi. Ularning umumiy mazmuni “interfaol” — ya'ni “o'zaro harakat qilmoq” ma'nosini anglatadi.<sup>1</sup> Bunday o'zaro harakat turlariga «talaba — o'qituvchi» va «talaba-talaba»ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatning sub'ekti, ya'ni faol tashkilotchisi hisoblanadi. Interfaol o'qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo'lib, interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi o'qitishning ob'ektidan o'zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsif qilinadi.

O'qitishning interfaol metodlari:

- rolli o'yinlardan foydalanish;
- hayotiy vaziyatlarni modellashtirish;
- muammolarni hamkorlikda yechishda ko'rib chiqiladi.

Interfaol o'qitish talabalardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonida ijodkorlik, faollik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bunda ta'limning quyidagi kontseptsiyalari fundamental asos sifatida hizmat qiladi:

✓ o'qituvchining jadal faoliyati — o'quv faoliyatining asosiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib, u mazkur harakatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi;

✓ o'quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub'ekti — talaba hisoblanadi;

✓ muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi o'quvchining fikrlash usullarini o'rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat;

✓ o'quv faoliyatning asosiy ko'rsatkichi o'quv topshiriqlari xisoblanadi. Bunda ta'lim jarayonining asosiy sub'ekti bo'lgan talabada fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o'qitish taktikasi muhim o'rin tutadi;

✓ o'quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni talabadan o'zining shaxsiy bilish mahorati va ko'nikmalarini o'zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. S. Abdirasilov., N. Tolipov — Dasgohli rangtasvir. «Iqtisod-moliya» T.: 2010
2. R. Xasanov, Tasviriy san'at asoslari — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi — 2009
3. J. O. Tolipova. «Pedagogik kvalimetriya». T.: 2015.
4. M. Mirsolieva., G. Ibragimova — Ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. T.: 2015
5. R.Hasanov,B.Haydarov,A.Sulaymanov,S.Jumaniyozova, B.Azimov  
“Tasviriy san`at o`qitish metodikasi” 2009-2010-yillar
6. <https://hozir.org/tasviriy-sanat-metodikasi-faning-tarixi-tasviriy-sanat-oquv.html>

## ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ РЕЖАЛАШТИРИШ

*Самандаров Шохрухмирзо Мирзахмат ўғли*

*Тошкент давлат юридик*

*университети магистранти*

*E-mail: shohruhsamandarov98@gmail.com*

**Аннотация:** мазкур мақолада вояга етмаганлар томонидан содир этилган жиноятларни тергов қилишни режалаштириш, бу борада миллий ва хорижий ҳуқуқшунос олимларнинг қараршлари, вояга етмаганлар томонидан содир этилган жиноятларни тергов қилишни режалаштиришнинг ижобий жиҳатлари соҳани ривожлантириш учун илгари сушрилган таклифлар ўрганилган.

**Калит сўзлар:** вояга етмаган шахс, тергов ҳаракати, тергов қилишни режалаштириш, режалаштиришнинг ижобий жиҳатлари

Маълумки, барча соҳа бўлгани каби маълум бир мақсадга эришиш учун дастлаб шу мақсадга эришишни енгиллаштириш, чалкашликларни олдини олиш мақсадида режа тузиб олинади. Амалиётда ҳам терговчилар жиноят ишларини тергов қилиш самарадорлигини ошириш мақсадида тергов олиб боришнинг режасини тузади. Жиноятларни тергов қилишда тергов режасини тузиб олишнинг қуйидагича афзаликларини кўриш мумкин: вақт тўғри тақсимланади, бу эса ўз навбатида тергов муддатларини бузилишини олдини олади; тергов доирасида маълумотларни ёдда сақлаб қолишни осонлаштиради.

Бир қатор юридик адабиётларда терговни режалаштиришни аҳамияти ва тушунчаси келтирилиб ўтилган. Хусусан, Ғ.Абдумажидов терговни режалаштириш тушунчасига жиноят иши юзасидан чин ҳақиқатни аниқлашга

қаратилган ҳаракатлар, тергов вазифаларини, уларни ечиш йўллари ва усулларини рўйхатини ўз ичига олган топшириқ сифатида таъриф бериб ўтган.

Бошқа бир олимлар Д.Р.Тураева ва О.Д.Алланазаровларнинг қайд этишича, терговни режалаштиришнинг асосий вазифаси жиноят содир этган шахслар ёки жиноятга алоқадор шахслар ҳақидаги ҳақиқатга яқин ва объектив тахминларни ишлаб чиқиш ва текширишдан иборатдир[1].

Бу борада хорижий ҳуқуқшуносларнинг қарашларига эътибор қаратадиган бўлсак, А.В.Шмонин фикрича, “режалаштириш” тушунчаси вазифаларни белгилаш ва уларни амалга ошириш кетма-кетлиги (программаси)ни аниқлаш орқали бирор-бир мақсадга эришишнинг усули ва жараёнини тавсифлайди. Унинг таъкидлашича, режалаштириш ташкилий-бошқарув фаолияти тури сифатида бошқариладиган тизим мақсадини аниқлаш; ушбу мақсадларга эришиш учун зарур бўлган самарадор воситалар (усуллар)ни қидириш; ўрнатилган мақсадларга эришиш бўйича амалга оширилиши лозим бўлган ишларни белгиловчи кўрсаткичлар тизимининг шаклланиши билан боғлиқ бўлиб, тергов режаси деганда режалаштириш жараёни натижаси ёки уни ифода этиш усули тушунилади.

Н.П.Яблоков эса режалаштиришни терговнинг белгиланган мақсадларига эришишда самарадор йўللарни аниқлашга қаратилган терговчининг мураккаб ақлий фаолияти сифатида баҳолаб, унинг моддий шакли ёзма ёки график тергов режасида акс этишини таъкидлайди. Шу билан бирга, муаллиф қайд этишича, режалаштириш бошланган ва давом этаётган терговнинг тугагунига қадар унинг модели, яъни схемасини тузиш мақсадини кўзлайди[2].

Шунингдек, А.В.Шмонин тергов қилишни режалаштириш мақсади - бу терговни режалаштиришнинг мўлжали бўлиб, унга асосан режалаштириш функциялари, тузилиши ҳамда жиноятларнинг очилиши, тергов қилиниши ва олдини олиш бўйича фаолият субъектларининг ваколатлари белгиланиши билан бир қаторда, мазкур субъектлар фаолияти тавсифи ва натижаларини баҳолаш мезонлари аниқланади. Шундай қилиб, тергов қилишни режалаштиришнинг ягона мақсади — иш ҳолатларининг ҳар томонлама, тўлиқ [www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

ва объектив тадқиқ этилиши тамойиллари ва жиной иш юритув (дастлабки тергов) тайинланиши билан тавсифланадиган жинойт иши бўйича ҳақиқатни аниқлашга интилишдан иборатдир.

Белгиланган мақсадга эришиш бир қанча вазифаларни амалга ошириш билан боғлиқ бўлиб, улар барча тергов версияларини ҳар томонлама ва тўлиқ, ушбу версияларини нафақат тасдиқлашга кўмаклашадиган, балки уларни рад этишда ўз аксини топади[3].

Р.Р.Шакуров, А.М.Рахимов, Ш.Т.Джуманов, Н.Тоштемиров тергов режасининг умумий (тергов гуруҳи томонидан тергов олиб борилиши чоғида гуруҳ раҳбари томонидан тузиладиган режа) ва индивидуал (тергов гуруҳи терговчилари томонидан тузиладиган режа) ҳамда асосий (жинойт иши тергов қилиниши бошланган пайтда ишлаб чиқиладиган тергов режаси) ва кўшимча (жинойт иши тергов қилиниши чоғида вужудга келган янги ҳолатлар юзасидан тузиладиган режа) турларини ажратиб кўрсатади.

Эндликда вояга етмаганларнинг жинойтлари юзасидан тергов режасини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятларига тўхталиб ўтадиган бўлсак, Р.С.Белкин вояга етмаганлар томонидан содир этилган жинойтларни тергов қилишни режалаштириш ҳақида фикр билдирар экан, биринчи навбатда ЖПКда назарда тутилган исботлашнинг умумий шартлари билан бирга бевосита вояга етмаганларга доир ЖПКда назарда тутилган исботланиши лозим бўлган ҳолатларга эътибор қаратиш зарурлигини таъкидлаб ўтади[3]. Унинг таъдиклашича, ҳатто одатий фабула билан бирга бу туркумга кирувчи ишлар ўзининг катта ҳажмли ва кўп меҳнат талаб қилиши билан ажралиб туради. Бу ҳолат аксарият жинойт ишларида бир гуруҳ шахсларнинг иштирок этиши, турли хил тахминларни текшириб чиқиш зарурати, иштирок этиши лозим бўлган шахсларнинг кўплиги, вояга етмаганнинг яшаш ва турмуш шароитини ўрганишнинг зарурати билан боғлиқ эканлиги эътироф этилади. Бундан ташқари, муаллиф исботланиши лозим бўлган ҳолатларни аниқлаш учун конкрет тергов ҳаракатларини ўтказишни ҳам режага киритишни мақсадга мувофиқ деб билади. Тадқиқотчилар терговни дастлабки режасига доир қуйидагиларни айтиб ўтишган: “тергов режасига аниқ тергов [www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

ҳаракатларини киритиш, уларнинг муддатини аниқлаш ва кетма-кетлигини белгилаш жиноят характери ва олинган энг дастлабки маълумотларга боғлиқ бўлади. Лекин бевосита вояга етмаганларнинг ишларини режалаштиришда вояга етмаганларнинг ёшига доир ўзига хосликларини инобатга олиб терговни олиб боришда катта танаффусларга йўл қўймаслик, сўроқ қилишнинг тактикаси ва кетма-кетлигини аниқлаш, катта ёшдагиларнинг таъсир ўтказишининг максимал даражада олдини олиш, вояга етмаганларнинг тезда ҳолдан тойишини унутмаслик ва ҳ.к.ларни эътибордан четда қолдирмаслик лозим”.

Н.ПЯблоков ҳам бу тоифага кирувчи жиноятларни тергов қилишнинг режасини қуйидагича баён қилади: “Таҳлил этилаётган жиноятларнинг тергов режаси дастлабки тергов вазиятлари, дастлабки маълумотлар ва жиноятчи қўлга олинган ёки олинмаганлигига боғлиқ бўлади. Шу билан бирга, режада барча исботланиши лозим бўлган ҳолатлар акс эттирилиши керак. Илк босқичда тергов режаси одатий тахминлар билан бирга, махсус тахминларни ҳам текшириб чиқишга қаратилган бўлиши керак. Назарда тутилган ишлар бўйича зарурий тактик операцияларни ўтказишни ҳам режага киритиш мақсадга мувофиқ”[5].

Яна ҳуқуқшунос олим С.Г.Любичевнинг фикрига кўра вояга етмаган шахс содир этган жинояти бўйича терговчи томонидан режа тузилганида ушбу субъектнинг психологияси ва шахсига оид хусусиятлари умумий тергов режасида ҳам, аниқ тергов ҳаракатларини ўтказиш режасида ҳам акс этиши керак. Жиноятларни тергов қилиш режасини тузишда тергов олиб борилаётган ишнинг хусусиятидан келиб чиқиб ўтказиладиган тергов ҳаракатлари билан бир қаторда, терговчи гумон қилинувчи ёки айбланувчи ҳақида тўлиқ маълумотга эга бўлишга қаратилган чора-тадбирларни ҳам режага киритиш лозим. Шу мақсадда терговчи томонидан маълумот олиш мумкин бўлган шахсларни сўроқ қилиш ва уларга тавсифномалар олиш каби тадбирлар режага киритилиши мумкин[6].

Вояга етмаганларни тергов қилишни режалаштириш борасида юқорида келтирилган қарашларни таҳлил қилиб шуни айтиш мумкинки, [www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

режалаштириш мазкур тоифадаги жиноятларни самарали тергов қилинишини таъминлаган ҳолда, асосли ва адолатли қарорлар қабул қилинишини кафолатлар экан. Шуниндек, бир қатор хорижий ва миллий ҳуқуқшуносларнинг фикридан келиб чиққан ҳолда вояга етмаганларни тергов қилишни режалаштириш режалаштириш қўйидагиларни қамраб олса мақсадга мувофиқ бўлади: тергов ҳаракатларини ўтказишнинг ташкилий ва тактик қоидалари, уларнинг муддатлари, кетма-кетлиги, иштирокчилари, ҳар бир вояга етмаганнинг ўзига хос жиҳатлари ҳақидаги маълумотлар, Ўзбекистон Республикаси ЖПКда назарда тутилган умумий ва махсус исботланиши лозим бўлган ҳолатларни аниқлашга доир чора-тадбирлар; вужудга келган тергов вазиятидан келиб чиқиб юритиладиган тахминлар; илгари сурилган тахминларни текшириш мақсадида ўтказиладиган тергов ҳаракатлари рўйхати; жиноятни очишга ёрдам бериши мумкин бўлган ва тергов қилишда жалб этилиши лозим бўлган шахслар рўйхати; ҳар бир чора-тадбирни ўтказиш муддатлари ҳақида маълумотлар; жиноятнинг олдини олиш ва профилактика қилишга оид чора-тадбирлар.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Шакуров Р.Р., Джуманов Ш.Т., Тоштемиров Н., Тураева Д.Р., Алланазаров О.Д. Криминалистическая методика расследования преступлений: Учебное пособие. - Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2013.-С.87.
2. Яблоков Н.П. Криминалистика. — М.: Юриспруденция, 2003. — С.376.
3. Шмонин А.В. Методика расследования преступлений. Учебное пособие. — М.: ЗАО Юстицинформ, 2006.
4. Белкин Р.С. Криминалистика. - М.: НОРМА, 2001. - С.990.
5. Яблоков Н.П.. Криминалистика. - М.: Юриспруденция, 2003. - С.376.
6. Ищенко Е.П. Криминалистика. – М.: Юрист, 2000. – С.751

## FUQAROLARGA TIBBIY YORDAM KO'RSATISHNING HUQUQIY KONSEPSIYALARI

*Musirmonova Adiba Boyxuroz qizi*

*TDYU Davlat boshqaruv huquq magistratura talabasi*

*Ilmiy rahbar: Muhitdinova Feruza Abdurashidovna*

*Toshkent davlat yuridik universiteti professori yu.f.d*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda yurtimizda amalga oshirilayotgan, hamda amalda bo'lgan tibbiyot sohasiga oid qonun hujjatlarining tahlili, shuningdek tibbiy yordam ko'rsatishning huquqiy asoslari haqida batafsil to'xtalib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** tibbiyot, qonun, tibbiyot sohasidagi islohatlar, fuqaro, jamiyat, ijtimoiy himoya, salomatlik, ehtiyoj, birlamchi tibbiy yordam.

Bugungi kunda mamalakatimiz oldida olib boriladigan islohatlar talaygina desak boladi. Bularga misol qilib harakatlar strategiyasini ham keltirish mumkimdir. Har bir davlatda inson huquqlariga, sog'liqa bo'lgan huquqlari birinchi o'rinda turadi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday takidlaydi "Tibbiyotdagi islohotlar - inson qadri uchun. *Tibbiyot shunday sohaki, unga daxldor bo'lmagan insonning o'zi yo'q. Hammamiz ham issiq jonmiz, tibbiyot muassasalariga kunda-kunora murojaat qilmagan kishini topish qiyin. Barchamizga ayonki, odam sog'lom bo'lmasa, unga ish ham, moddiy ne'matlar ham, hayot quvonchlari ham tatimaydi. Bu aksiomani hech kim inkor qilolmaydi*"<sup>12</sup> – dedi .

*Haqiqatdan ham har bir inson bu soxaga ehtiyoj sezadi tibbiyotdagi islohatlar har vaqt inson sog'liqa xizmat qilish kerak. Fuqarolga, bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish har bir shifokorning burchi hisoblandadi. Sog'liqni saqlash tizimi haqida bir qancha oilimlarning o'z fikirlari mavjud o'shalardan Husanov shunday deydi: "Inson sog'-salomat, jismoniy kamchiliksiz yashasa, baxtli hayot kechirishi mumkin. Inson o'z sog'lig'iga o'zi turli yo'llar bilan g'amxo'rlik qiladi va bunda davlatning ko'magiga, yordamiga tayanadi. Davlat insonning sog'lig'ini himoya*

<sup>12</sup>Sh.Mirziyoyev Tibbiyotdagi islohatlar inson qadir uchun ochiq muloqat 2022.03.18.



qilib, ularga malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga imkoniyat yaratib beradi. Bu huquq amal qilganda mamlakatda inson salomatligini saqlovchi, tiklovchi muassasalarni malakali, bilimli mutaxassislar tizimi (kasalxona, poliklinika, sanatoriylar) faoliyat ko'rsatadi"<sup>13</sup>.

Shuningdek ular zamonaviy texnik vositalar orqali jihozlanadi. Inson salomatligini tiklovchi, saqlovchi muassasalarni ta'minlashni davlat o'z zimmasiga oladi. Fuqarolarga tez yordam ko'rsatish xizmati ta'minlanadi. Bu huquqning amal qilishi natijasida har bir kishi tibbiy muassasalarga o'z muammolari bilan murojaat qilishi va ulardan tegishli yordam, maslahat olishga haqlidir. Sog'lom fuqarolar har bir mamlakatning eng qimmatli boyligi hisoblanadi. Shuning uchun ham sog'lik uchun davlat mas'ul va o'z vazifasini bajarish uchun tegishli choralarni ko'radi. insonlarning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini kengaytirib, tibbiy xizmatning yanada malakali bo'lishini ta'minlashga qaratildi.

**Muminov shunday takidlaydi-**“Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari Ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari o'z vakolatlari doirasida: uch yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning shaxsini aniqlash, hayoti, sog'lig'ini saqlashni ta'minlaydi. O'n olti yoshgacha bo'lganlar; ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan yoxud ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetishga qodir bo'lmaganlar, agar voyaga yetmaganlarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash yoki ular tomonidan takroran ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olish zarur bo'lsa, shuningdek ularning shaxsi aniqlanmagan yoxud ularning aniq yashash joyi bo'lmasa yoki o'zlari ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan bo'lsa... Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish uchun sudning ajrimi asos bo'ladi"<sup>14</sup>.

---

<sup>13</sup> Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: H-89 Adolat, 2013. – 552 b.176-177betlar

<sup>14</sup> Muminov A.R., Tillabayev M.A. Bola huquqlari: Darslik / Mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T.: “Adolat” nashriyoti, 2014. – 48- bet

Shuningdek Gollandiyalik olim Tobes Brigitteng Inson sog'liq huquq haqida o'z qo'llanmalarda shunday deydi. Sog'liqni saqlash huquqi nafaqat o'z vaqtida va tegishli tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqini, balki sog'liqni saqlashning asosiy omillarini ham o'z ichiga oladi. Xavfsiz oziq-ovqat, to'g'ri ovqatlanish va toza ichimlik suvidan foydalanish sog'lom muhit, sog'liqni saqlash, shu jumladan jinsiy va reproduktiv salomatlik sohasidagi ta'lim va ma'lumotlardan foydalanish. Sog'liqni saqlash huquqi erkinlik va huquqlarni o'z ichiga oladi. Erkinliklar o'z sog'lig'ini nazorat qilish huquqini, shu jumladan bepul ruxsatisiz davolanish yoki eksperimentlarga duchor bo'lmaslik huquqini o'z ichiga oladi. Huquqlar sog'liqni saqlash tizimiga (tibbiy yordam va sog'liqni saqlashning asosiy ijtimoiy determinantlari) bo'lgan huquqni o'z ichiga oladi, bu esa odamlarga erishish mumkin bo'lgan eng yuqori darajadagi sog'liqdan foydalanish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydi.

Shuningdek Jahon sog'liqni saqlash tizimi quyidagicha tariflaydi: Sog'liqni saqlash tizimi asosiy maqsadi sog'likni mustahkamlash, tiklash yoki saqlashga qaratilgan barcha tashkilotlar, odamlar va harakatlardan iborat. Bunga sog'liqning determinantlariga ta'sir o'tkazish va to'g'ridan-to'g'ri sog'lomlashtirish tadbirlari kiradi. Shuning uchun sog'liqni saqlash tizimi shaxsiy tibbiy xizmatlarni ko'rsatadigan davlat mulki ob'ektlarining piramidasidan ko'proqdir. Bunga, masalan, uyda kasal bolani parvarish qiladigan onani; xususiy provayderlar; xulq-atvorni o'zgartirish dasturlari; vektor-nazorat kampaniyalari; tibbiy sug'urta tashkilotlari; mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik. Bu sog'liqni saqlash xodimlarining tarmoqlararo harakatlarini o'z ichiga oladi, masalan, sog'liqni saqlashning taniqli determinanti bo'lgan ayollar ta'limini targ'ib qilishga ta'lim vazirligini rag'batlantirish<sup>15</sup>.

Ko'pincha sog'liqni saqlash tizimi reduksionistik nuqtai nazar bilan aniqlangan. Ba'zi mualliflar sog'liqni saqlash tizimlari kontseptsiyasini kengaytirish uchun qo'shimcha o'lchovlarni ko'rsatadigan dalillarni ishlab chiqdi:

---

<sup>15</sup> ["Hammaning ishi. Sog'liqni saqlash natijalarini yaxshilash uchun sog'liqni saqlash tizimlarini kuchaytirish: JSST faoliyat doirasi"](#) (PDF). JSSV. 2007 yil.

Sog'liqni saqlash tizimlarini faqat ularning tarkibiy qismlari bilan emas, balki ularning o'zaro aloqalari bilan ham ifodalash kerak;

Sog'liqni saqlash tizimlari nafaqat sog'liqni saqlash tizimining institutsional yoki ta'minot tomonini, balki aholini ham o'z ichiga olishi kerak;

Sog'liqni saqlash tizimlariga nafaqat sog'likni yaxshilashni, balki o'z ichiga olgan maqsadlari nuqtai nazaridan qarash kerak tenglik, qonuniy kutishlarga javob berish, qadr-qimmatni hurmat qilish va adolatli moliyalashtirish va boshqalar;

Sog'liqni saqlash tizimlari o'zlarining funktsiyalari, shu jumladan tibbiy yoki to'g'ridan-to'g'ri xizmatlarni ko'rsatish bilan belgilanishi kerak xalq salomatligi xizmatlar, shuningdek, "sog'liqni saqlash ishchilari, ehtimol barcha muammolarning eng murakkabini o'z ichiga olgan boshqarish, moliyalashtirish va resurslarni yaratish kabi boshqa funktsiyalar"<sup>16</sup>.

Sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga qaratilgan dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash. Oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks choratadbirlarni yanada keng amalga oshirish<sup>17</sup>.

Shuningdek Garvard universiteti, Kembrij, Massachusetts, AQSH, Jon F. Kennedi hukumat maktabining "Vaqtda harakat qilish" dasturi doirasidagi "Global sog'liqni saqlashda institutsional innovatsiyalar" loyihasi raxbari Julio Frenk shunday deydi: Sog'liqni saqlash tizimlari munozaralari bilan bog'liq muammolarning bir qismi shundaki, u ko'pincha muhim jihatlarni e'tiborsiz qoldiradigan reduksionistik nuqtai nazarni qabul qiladi. To'liqroq ko'rinishni

---

<sup>16</sup> "[Jahon sog'liqni saqlash tizimi: global sog'liqni saqlash tizimlarini mustahkamlash global taraqqiyotning navbatdagi bosqichi](#)". *PLOS Med.* 7 (1): e1000089.

<sup>17</sup> O'zbekiston Prezidenti 7-fevral kungi farmoni bilan 2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini [tasdiqladi](#).

rivojlantirish bizdan to'rtta asosiy yo'nalish bo'yicha tafakkurimizni kengaytirishni talab qiladi.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish joizki fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatishda Konstitutsiyaviy huquq asoslari, O'zbekiston respublikasida fuqarolarga tibbiy xizmatdan foydalanish huquqni kengaytirish va kam taminlangan oilalarga, boquvchisini yo'qatgan xonadondagi fuqarolarga tibbiy xizmatdan foydalanishga imtiyozlar joriy etish. Fuqarolarning tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqi qonunda belgilanib qo'yilgan, kasal bo'lib qolganda, mehnat layoqatini yo'qotganda va boshqa hollarda fuqarolar profilaktik, tashxis qo'yish-davolash, kuch-quvvatni tiklash, sanatoriy-kurort, protez-ortopediya yordami va boshqa xil yordamni, shuningdek bemorlarni, mehnatga layoqatsiz va nogiron kishilarni boqish-parvarishlash yuzasidan ijtimoiy chora-tadbirlarni, shu jumladan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to'lashni o'z ichiga oladigan tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqiga ega. Tibbiy-ijtimoiy yordam tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislar tomonidan ko'rsatiladi. Fuqarolar o'zlarini ixtiyoriy ravishda tibbiy sug'urta qildirish asosida, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mablag'lari, o'z shaxsiy mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qo'shimcha tibbiy va boshqa xil xizmatlardan foydalanish huquqiga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: H-89 Adolat, 2013. – 552 b.176-177betlar
2. Muminov A.R., Tillabayev M.A. Bola huquqlari: Darslik / Mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T.: "Adolat" nashriyoti, 2014. – 48- bet
3. O'zbekiston Prezidenti 7-fevral kungi farmoni bilan 2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini tasdiqladi.
4. Sh.Mirziyoyev Tibbiyotdagi islohatlar inson qadir uchun ochiq muloqat 2022.03.18.
5. "Jahon sog'liqni saqlash tizimi: global sog'liqni saqlash tizimlarini mustahkamlash global taraqqiyotning navbatdagi bosqichi". *PLOS Med.* 7 (1): e1000089.

## “KUNTUG‘MISH” DOSTONINING YOZIB OLINISHI, NASHR ETILISHI VA ILMIY TADQIQ QILINISHI TARIXI

*SamDU filologiya fakulteti*

*O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi*

*2-kurs magistranti **Rajabova Gulyora Sanjarovna***

*Филологический факультет СамГУ*

*Узбекский язык и литература*

*2 курс магистра **Раджабова Гулера Санжаровна***

*SamDu Faculty of Philology*

*Uzbek language and literature*

*2 st year master’s student **Rajabova Gulyora Sanjarovna***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqimizning eng qadimiy hayotbaxsh ma’naviy qadriyatlaridan biri hisoblangan dostonchilik, o‘zbek xalq baxshilari repertuarida alohida o‘rin tutgan “Kuntug‘mish” dostoni va uning mavjud variantlar aniqlanib, ularning yozib olinishi, nashr etilishi hamda ilmiy tadqiq qilinishi tarixi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada “Kuntug‘mish” dostoni variantlarining eng mukammal va badiiy jihatdan yuksak namunaga ega bo‘lgan varianti aniqlanib, izohlangan.

**Kalit so‘zlar:** doston, variant, obraz, folklorshunoslik, inventar, baxshi, syujet, epos, motiv, versiya .

### ИСТОРИЯ НАПИСАНИЯ И ПУБЛИКАЦИИ И ИССЛЕДОВАНИЯ ЭПОСА КУНТУГМЫШ

**Аннотация:** В данной статье описывается история написания и издания и исследования эпоса “Кунтугмыш”, который является одной из древнейших духовных ценностей нашего народа, занимает особое место в репертуаре узбекских народных певцов и его вариантов. В статье также выявлена и объяснена наиболее совершенная и художественно совершенная версия эпоса “Кунтугмыш”.

**Ключевые слова :** эпос, вариант, образ, фольклор, инвентарь, бакши, сюжет, эпос, мотив, вариант.

## HISTORY OF THE WRITING, PUBLICATION AND RESEARCH OF THE EPIC “KUNTUGMISH”

**Annotation:** this article describes the history of writing, publishing and research of the epic “Kuntugmish” is one of the most ancient spiritual values of our people, a special place in the repertoire of Uzbek folk poets and its variants. Data are given. The article also identifies and explains the most perfect and artistically advanced version of the epic “Kuntugmish”.

Avtotrof mikroorganizmlar sintez qiladigan ko'plab aminokislotalar va nukleotidlar, fermentatsiya jarayonida ishlab chiqariladi. *Brevibacterium flavum* va *Corynebacterium glutaminicum* shtammlaridagina muhiti tarkibidagi qandlarni 1/3 qismini lizinga aylantiraoladilar. Shu yo'l bilan 11 muhitda 74 grammgacha lizin olinadi. Lizin – metabolitik yo'lining oxirgi mahsuloti bo'lib, bu yo'l metionin va treoninni hosil bo'lishiga ham olib keladi. Lizin va treonin ushbu yo'lining birinchi fermenti aspartatkinaza bilan o'zaro bog'lanib, uni faolligini boshqaradi. Ikkala aminokislotalarning yig'ilishi aspartatkinaza fermentining faolligini ingibirlaydi. Gendagi birinchi tip mutatsiya ushbu fermentning faolligini buzadi hamda treonin va metionin sintezini bog'lab qo'yadi. Natijada ushbu fermentlar ingibitorlaridan biri (treonin) yo'qoladi. So'ngra bunday auktrotrof mutant tarkibida treonin va metionin bo'lgan muhitga ekiladi. Lekin mavjud bo'lgan treonin, lizinbiosintezini to'xtatish uchun yetarli bo'lmaydi va u to'plana boshlaydi. 2-tip mutatsiyalar aspartatkinaza fermentining faolligini o'zgartiradi. Natijada u lizin bilan o'zaro ta'sirga kirisha olmaydi va ushbu aminokislotalarning sintezi ingibirlanmaydi.

Oqsil molekulasini tashkil qiladigan 21 ta aminokislotalardan tashkil topgan oqsillarning 8 tasi (yosh bolalar uchun esa 10 tasi) almashmaydigan aminokislotalar bo'lib, ular organizmga ozuqa bilan birga tushishi kerak. Bulardan eng muhimlari metionin va lizindir. Metionin sintetik yo'l bilan, 80% lizin esa fermentatsiya yo'li bilan biosintetik usulda olinadi. Aminokislotalarni mikrobiologik sintezlashning ahamiyatli tomoni shundaki, bu jarayon natijasida biologik faol izomerlar ham olinadi.

Natriy tuzi ko'rinishida ziravor sifatida ishlatiladigan glutamin kislotasi *Brevibacterium flavum* va *Corynebacterium glutaminicum* kulturalaridan olinadi.

Sanoatda keng ishlatiladigan organik kislotalardan biri sirka kislotasi hisoblanadi. U, rezina, plastmassa, atsetat tolalari, farmatsevtik preparatlar, insektitsidlar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Yaponiyada sirka kislota, aminokislota ishlab chiqarish jarayonida olib boriladigan fermentatsiyada substrat sifatida ham ishlatiladi.

Sut kislotasi, bijg'ish yo'li bilan olingan birinchi organik kislota. U oziq ovqat sanoatida oksidlovchi sifatida, shuningdek, galvanostegiyada va tez parchalanuvchi plastmassa ishlab chiqarishda keng ishlatiladi.

*Ikkilamchi metabolitlarning olinishi.*

Ikkilamchi metabolitlar (idiolitlar ham deyiladi) – toza kulturada o'sish uchun zarur bo'lmagan past molekulyar birikmalardir. Ularni chegaralangan taksonomik guruhlar ishlab chiqaradilar. Ikkilamchi metabolitlarga antibiotiklar, alkaloidlar, fitogormonlar va toksinlar kiradilar.

Ikkilamchi metabolitlarni ishlab chiqaradigan mikroorganizmlar birinchi bosqichda tez o'sadi, so'ng tropofaza bosqichini o'taydilar. Bu bosqichda kam miqdorda ikkilamchi moddalar sintezlanadi. Mikroorganizmlar o'stirilayotgan ozuqa muhitida bitta yoki bir nechta ozuqa moddalarini kamayishi hisobiga idiofazaga o'tiladi. Aynan shundaysharoitda idiolitlar sintezi kuchayadi. Antibiotiklar olinayotganda, mikroorganizmlar ko'pincha tropofaza vaqtida o'zining shaxsiy antibiotiklariga sezgir bo'lib qoladi. Idiofazada esa ularga nisbatan chidamli bo'ladi. Antibiotik ishlab chiqaruvchi mikroorganizmlarni o'z- o'zini yo'q qilishini oldini olish maqsadida, tezlik bilan idiofazaga o'tqazib olishga harakat qilinadi. So'ngra mikroorganizmni ushbu fazada o'stirish davom ettiriladi.

Antibiotiklar – mikroblar sintezlaydigan farmatsevtik birikmalarning eng katta sinfidir. Bu sinfga zamburug'larga qarshi dorilar, o'smaga (shishga) qarshi dorilar va alkaloidlar kiradi.

Natijalar bo'limi : Surxondaryo viloyatidagi Termiz muhandislik texnologiya instituti oziq- ovqat yo`nalishi talabalariga biotexnologiyaning ob'ekti bo'lgan mikroorganizmlar yordamida foydali moddalarni *olish usullari haqida nazariy tushunchalar berilganda* oziq- ovqat yo`nalishi II bosqich talabalaridan 85 nafar talabalar ishtirok etdi va quyidagi natijalarga erishildi. 55 37 8

Munozara bo`limi: oziq- ovqat yo`nalishi II –bosqich talabalariga Biotexnologiya” o`quv fanini o`zlashtirishda mikroorganizmlarni roli va ularning ahamiyatini; mikroorganizmlarni tuzilishi, xilma-xilligi va ularni xalq xo`jaligida, meditsinada, qishloq xo`jaligidagi rolini; foydali mikroorganizmlarni biotexnologik usulda ajratish va ulardan antibiotiklar, biologik aktiv moddalar olish, biologik kurash choralarini ishlab chiqish metodlarini; biotexnologiya yordamida hozirgi zamon biologiyasi muammolarini yechish yo`llari, gen va hujayra injeneriyasi imkoniyatlari va ularni amaliyotda qo`llash, biokatalizatorlar to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lgan holda ularni texnologik jarayonda qo`llash yo`llari, biotexnologiya bilan ekologiya o`rtasidagi aloqani bilishi kerakligi haqida tushunchalar berildi.

Birlamchi metabolitlar – mikroblarning o`shishi uchun zarur bo'lgan, ularning ba`zilari makromolekulalarning qurilish bloki, boshqalari esa kofermentlar sintezida qatnashadilar.

Ikkilamchi metabolitlar (idiolitlar ham deyiladi) – toza kulturada o`shish uchun zarur bo`lmagan past molekulali birikmalardir. Ikkilamchi metabolitlarga: antibiotiklar, alkaloidlar, fitogormonlar va toksinlar kiradi.

Oziq- ovqat yo`nalishi II –bosqich talabalarining ongiga mavzuni yetkazish bahs-munozara tarzida olib borildi. Muammoli holatlar muhokama qilindi. Talabalarga biotexnologik kompetensiyani shakllantirishda axborot texnologiyalaridan (internet, elektron pochta va h.k ) pedagogik texnologiya ( interfaol usullar )dan keng foydalanish joizdir.

### **Adabiyotlar ro`yxati**

1. P.Mirxamidova, A.H.Vaxobov, Q.Davranov, G.S.Tursunboeva mikrobiologiya va biotexnologiya asoslari Toshkent 2013y 238 bet.
2. Vahobov A.X., O`simlik viruslarini aniqlashda immunologiya usullarini qo`llash (Uslubiy ko`rsatma) T.: ToshDU. 1991.
- 3.Vorob`eva L.I. Promishlennaya mikrobiologiya. M. MGU. 1989.
- 4.G`anixo`jaeva A.B. Mikrobiologiya. T.: 2002.
- 5.Davranov Q.D., Xujamshukurov N.A. Umumiy va texnik mikrobiologiya. T.: ToshDAU. 2004. 281 b.

## BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSION YANGILIKLAR KIRITISH MAZMUNI VA YO'NALISHLARI

*Feruza Tojiaxmetova Umarjon qizi*

*Karimova Farida Nosirjonovna*

*Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 50-umumta'lim maktabi*

*boshlang'ich sinf o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola boshlang'ich sinflarni o'qitishda ta'limda innovatsion-pedagogik texnologiyalaridan foydalanishda o'quvchilarning qiziqishlarini xisobga olib, tarbiyalashga yo'naltirilgan darslar mazmuni ishlab chiqilishi va nazoratga olinishi haqida.*

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiy nazariyalar, pedagogik muammolar, norasmiy fan,

**Kirish:** Innovatika muammolariga murojat etish va ularni muhim zamonaviy ilmiy fikirlash yo'nalishlariga qo'shish jamiyatda innovatsion jarayonlar dindmikasi o'sib borayotganini tushunish natijasi bo'ldi. Bizning adabiyotlarimizda innovatsiya muammolar ko'p vaqtgacha iqtisodiy tadqiqotlar tizimida o'rnatib kelindi. Ammo vaqt o'tishi bilan jamiyat hayoti faoliyatining hamma sohalarida innovatsion o'zgarishlar sifat harakteristikalarini baholash muammosi yuzaga keldi, ammo bu o'zgarishlarni faqatgina iqtisodiy nazariyalar bilan aniqlab bo'lmaydi. Innovatsion jarayonlarni o'rganish uchun boshqa yo'llar zarur unda innovatsion taxlil faqatgina fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishini o'z ichiga olmay, balki boshqarish ta'lim, huquq va boshqa sohalarni ham qamrab oladi. Innovatsion pedagogik muammolarini yechilishini izlash ta'lim sohasida innovatsion jarayonlar borishi hususiyatlari mazmuni tarkibi va klassifikatsiyasini tekshirish natijalarini tahlil analiz qilish bilan bog'liq.

**Asosiy qism:** Boshlang'ich sinflarni o'qitishda ta'limda innovatsion-pedagogik texnologiyalaridan foydalanish innovatsion pedagogika hozirgi davirda norasmiy fan sfatida ma'lum bo'lgan biroq kun sayin butun jahon soha mutaxasislarining

etiboriga tushib jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning ta'limiy ahamiyatini tan olgan pedagoglar jamoasi olimlar shu boisdan ham mavjud ananaviy pedagogikaga tanqidiy yondashmoqdalar. Hozirgi kunlarda shakilanib rivojlanib borayotgan mazkur yangi fan haqida jiddiy fikrlar bildirilyapti uning asosiy vazifasi xukumron bo'lib turgan butun o'quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o'zlashtirishdir. Innovatsion pedagogika-hukumron nazariya nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asosi qilib olingan. Innavorlar fikricha asosan adbiy mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo'l bilan tarbiyalash mumkin emas. Hozirgi pedagogika fanidagi vaziyat umumiy holda shundan iborat. Bu vaziyatda innovatsiya juda muhim pedagogika – bilimlar tizimidir obektivlik maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik bir-biriga zid bo'lmaslik uning asosiy karakteristikalaridir "Pedagogika tizimini har qanday ilmiy nazariya kabi tizimini tashkil etuvchi tamoyillari loyhalashtiradi va ushlab turadi yani ushbu tizim asosiy bilimlarga asoslanishi asosiy holdir obektiv nazariyaning asosiy tamoyillarini faqatgina ilmiy purintsin bo'linish shart ammo g'oyaviy bo'lmasligi lozim insonning aqliy rivojlanganligi va tarbiyasi haqidagi bilim darajasining talabga muvofiqligi obektivlikning yagona talabidir. Ideologiya bu har doim ham u yoki bu ijtimoiy guruhlarning bir tomonlama ijtimoiy qiziqishlari bo'lib ular buni qimmatli yo'l-yo'riq va g'oya sifatida boshqalarga majburlaydilar. Jahon pedagogik nazariyasi tarbiyaviy jarayon shrti bilan bog'liq yuqorida turgan odamlarning g'oyalari qanday bo'lishi bilan bog'liq allaqachon etirof etganligi. O'sib borayotgan avlodlar tarbiyasi juda jiddiy ish bo'lib uning o'tkinchi narsalarga bog'liq etib qo'yish mumkin emas. Mustabidlik davrida mamlakatimizda ko'p vaqt insonni komunistik g'oyalar ruhida tarbiyalashga oid pedagogik ko'rsatmalar ustun bo'lib kelgan uning juda ta'sirligi turli chaqiriqlarni hayotga tatbiq etish kabi maqsadga qaramay uni ilmiy deb bo'lmaydi, chunki bunday g'oyalarni tashkil etuvchi qoidalar inson tabiati va uning rivojlanishi haqidagi tizimini faqatgina fan o'rnatgan obektiv asoslar va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirish mumkin.

**Xulosa:** Boshlang'ich sinf ta'limida o'quv jarayonini tashkil etish holati jiddiy bo'lib, o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Chunki bu davrda [www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)



o'quvchining ta'lim tushunchalarini qabul qilish salohiyati yuqori saviyada bo'lib, ularni muntazam ravishda nazorat qilib borish lozim bo'ladi.

### **Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma, TDPU, 2007.
- 2.R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogika. TDPU, 2007.
3. N.R.G'aybullaev, R.Yodgorov, R.Mamatqulova. Pedagogika. O'quv qo'llanma, O'zMU. 2005.
4. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tanqidiy asoslari. –T.: Fan, 2006.

## O‘ZBEK TILINI O‘QITISH METODIKASI O‘QUV PREDMETI, FAN HAMDA AMALIYOT SIFATIDA

*Turniyozova Ruzigul Yangiboyevna*

*Samarqand viloyati paxtachi 48-maktab ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** “Metodika” atamasi qadimgi yunon tiliga xos bolib, pedagogika fanining sohalaridan birini anglatadi. U muayyan o‘quv predmetiga o‘qitishni bildiradi. Hozirgi paytda bu atamaning uch xil ma’no anglatishi kuzatiladi. Bular o‘quv predmeti, fan hamda amaliyot sifatidagi ma’nolardir.

**Kalit so‘zlar:** metodika, pedagogika, texnologiyalar, fan, tajriba

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi fani hozirgi kungacha boy tajriba to‘pladi. U pedagogika fanlari tizimidagi mustaqil fan sifatida shakllandi, rivojlandi, hozir ham rivojlanishda davom etmoqda. Uning mazmuni ona tili ta’limining izchil tizimini ishlab chiqish, ona tili darslarini tashkil etishga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etishgina emas, balki metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o‘rganishning interfaol metodlarini o‘zida aks ettirgan ilmiy asoslarini ishlab chiqishdir. METODIKA O‘QUV PREDMETI SIFATIDA Metodika birinchi navbatda o‘quv fanidir. U bolajak ona tili o‘qituvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarliklarini ta’minlashga qaratilgan. Bu tayyorgarlikni ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar shaklida amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Ularning mazmuni va hajrni tegishli DTS, o‘quv dasturlari asosida belgilanadi. O‘zbek tilini o‘rganish metodikasi fani quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi: 1. O‘zbek tili o‘qitish fani taraqqiyotining asosiy bosqichlari. 2. Ta’limning lingvodidaktik asoslari. Mazkur bolim O‘zbek tilini o‘rgatish metodikasini o‘quv hamda ilmiy-nazariy fan sifatida o‘rganishni, uning boshqa fanlar bilan aloqasini, tadqiqot metodlarini, ta’lim tizimini, ta’limni tashkil etishdagi maqsad vazifalar, prinsiplar, metodlar, vositalar va shakllarni nazarda tutadi. 3. Ta’limning muloqot (fonetik, leksik, grammatik, uslubiy...) vositalarini o‘rganishning metodik asoslari. 4. Muloqot faohiyati (eshitish, gapirish, o‘qish, yozish, yozma nutq) ga o‘rgatishning

metodik asoslari. 5. Ta'lim jarayoni (mashg'ulotlar, darstiplari, til o'rganish)ni nazorat qiiish, baholash, auditoriyadan tashqari tashkil etiladigan ish shakllari, ta'limning zamonaviy texnologiyalarini rejalashtirish) ni tashkil etish va ta'minlash. 6. Ona tili o'qituvchisining professogrammasining mazmuni hamda ona tili o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar. 7. Ona tiliga o'rgatishning bosqichlari, darajalari hamda yo'nalishlari. O'zbek tili o'qitish metodikasi asoslarini o'quv predmeti sifatida puxta o'zlashtirish asosida bo'Majak til va adabiyot o'qituvchilari ona tili ta'limining maqsad va vazifalari (o'quv faoliyatining natijasi qanday bo'lishi kerak?) qanday ekanligini, ushbu ta'lim mazmuni (nimani o'rganish kerak?)ni, tegishli tarzda ajratilgan vaqt oralig'ida tilni egallashning qanday metod va usullar vositasida ta'minlanishi (qanday o'qitish?)ni, qo'yilgan maqsadga erishish va rejalashtirilgan ta'lim mazmunini amalga oshirishda qanday (nimaning vositasida) vositalardan foydalanish zarurligini bilib olishadi. Qisqacha qilib aytganda, ona tili o'qitish metodikasi fani bo'lajak til va adabiyot o'qituvchilarida kasbiy layoqatlilik hamda kommunikativ layoqatlilikni shakllantirishdan iboratdir. Kasbiy layoqatlilik deganda tilni o'qitishga oid usul va metodlar bilan tanishish asosida tilni o'rgata olish qobiliyati nazarda tutiladi. Kommunikativ layoqatlilik deganda esa o'rgatilayotgan tilga nisbatan egallangan bilim, ko'nikma va malakalami tatbiq eta olish qobiliyati ko'zda tutiladi. Alohida ta'kidlash lozimki til o'qitish metodikasi fanining obyektidir. Xuddi shu narsa uning boshqa barcha o'quv predmetlaridan farqli jihatini tashkil etadi. Yaxshi ma'lumki, til belgilar tizimidan iborat. Bu belgilar yozuv yoki tovushlardan iborat bo'lishi mumkin. Ular vositasida kishilik jamiyati a'zolari o'zaro fikr almashish imkoniga ega bo'lishadi. Nemis faylasufi va tilshunos olimi V. Gumboldning obrazli tarzda ifodalaganidek, "til — xalq ruhidir, unda millatning "barcha xislatlari" muhrlangan bo'ladi". Fikr ifodasining quroli hamda kishilar orasida muloqot vositasi vazifasini ado etish tilning eng muhim xususiyatidir. Xuddi shuning uchun til ham ona tili, ham xorijiy til sifatida o'rganiladi. Olimlarning ko'rsatishicha, bolalar ona tili xususiyatlarini o'rganishga besh yoshidayoq tayyor bo'Madi. Metodika fanini o'quv predmeti sifatida uch turga ajratish mumkin: umumiy metodika, xususiy metodika, maxsus metodika. Umumiy metodika ona tilini o'qitishning qonuniyatlari va xususiyatlari tavsifiga bag'ishlangan bo'lib,

bunda o'qitishning ta'lim bosqichlari va yo'nalishlariga bog'liq bo'lgan aniq shart-sharoitlari e'tiborga olinadi. Jumladan, o'quvchilarning tarkibi rang-barang bo'lishiga qaramay, o'quv materiallarini tanlash, ularni o'quvchilarga yetkazish usullari, mashqlar tizimi, texnik vositalar bilan ishlash 10 usullari, ta'limning turli sharoitlaridagi baholash tizimi bir xil bo'lishi mumkin. Xususiyl metodikalar ona tili o'qitishni alohida sharoit va talablar doirasida o'rganishni ko'zda tutadi. Ba'zan tilga o'rgatishning umumiy qonuniyatlarini bilishning o'zi kamlik qiladi. Hayotda til o'qitishning mutlaqo o'ziga xos, maxsus muammolariga duch kelib qolish mumkin. Bu ta'limning turli bosqichlari, tiplari bilan, o'quvchilar kontingentining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Xuddi mana shu holatlar xususiyl metodikaning obyekti bo'la oladi. Nofilologik yo'nalishlarda ona tilini o'rgatish metodikasi, lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi va imlosini o'rganish xususiyatlari va boshqalar ayni mana shu tipdagi o'rganish obyektlari sirasiga kiradi. Maxsus metodika o'rganilayotgan tilning alohida olingan bir jihati bilangina bog'liq bo'ladi. Bunga tilning alohida aspektlari, maxsus texnik vositalar yordamida til o'rganish, maxsus sharoitlar vositasida til o'rganish, mashg'ulotlarda nazorat qilishning alohida ko'rinishlaridan foydalanish, tilga oid auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan mustaqil ishlar va boshqalar kiritilishi mumkin. Badiiy asar tili vositasida ifodali o'qishga o'rgatish, dialogik nutqni o'rganish xususiyatlari, adabiy talaffuz me'yorlarini o'rganish, sheva xatolarini bartaraf etishda badiiy asarlardan foydalanish va boshqa holatlarda maxsus metodikaga zarurat seziladi. METODIKA FAN SIFATIDA Metodika pedagogika turkumiga kiradigan fan sohasidir. Yuqorida aytganimizdek, metodika pedagogikaning xususiyl didaktika tarmog'iga tegishlidir. U alohida olingan o'quv predmetining o'qitish nazariyasini tashkil etadi. O'zbek tili o'qitish metodikasi fan sifatida shu tilga o'rgatishning maqsadi, mazmuni, vositalari, metodlari, tashkiliyl shakllarini o'rganadigan, shuningdek, uni o'rganish jarayonida shu til vositasida tarbiyalash hamda uni egallash haqidagi ta'limotdir. Metodika atamasi ta'lim, tilni egallash hamda undan foydalana olish tushunchalarini yaxlit holda ifodalaydi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliylati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Til darslarida o'qituvchi o'z bilimi,

[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

ko'nikma va malakalarni mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa mazkur tajribani o'zlashtirib boradi, oxir-oqibatda esa shu tildan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lib borishadi. Bunda turli hayotiy vaziyatlarda tildan muloqot vositasi sifatida foydalanishlari nazarda tutiladi. Tilni bunday 11 tarzda o'zlashtirishdagi asos ta'lim jarayonida egallanadigan bilim, nutqiy ko'nikma va malakalar bo'lib, ular yaxlitlikda o'quvchilarning kommunikativ layoqatlilikini tashkil etadi. Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning rang-barang ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qiliish, qayta ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etishda ular o'zlarigagina xos bo'lgan ayirma va tafovutlarga tayanishadi. Metodika fani til o'rgatishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish bilan shug'ullanadi. O'zbek tilini o'rganish metodikasining o'z predmeti bor. Bu o'zbek tilidir. O'zbek tili ona tili o'qitish metodikasi fanining ham maqsadi, ham vositasidir. Tilni o'rganish maqsadi o'quvchilar uchun til tizimi bilan tanishish hamda ulardan amaliyotda, hamda ilmiytadqiqot faoliyatida foydalanish imkonini beradi. Ta'lim vositasi sifatida esa til tegishli matniardagi axborotlarni o'zlashtirish hamda tegishli shartsharoit hamda ehtiyojlarga mos va munosib bo'lgan matnlarni yaratish uchun asos bo'ladi. O'zbek tilini o'qitish metodikasining tegishli tushunchalar tizimi ham mavjud. Ular o'ziga xos atamalar bilan ifodalanadi. O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining tadqiqot obyekti tilga o'rgatish jarayoni bo'lib, uning asosiy mohiyatini o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga til haqidagi bilimlarni yetkazish hamda muloqot jarayonida tildan foydalanishga oid ko'nikma va malakalarning shakllanishi tashkil etadi. Ta'lim jarayonida ona tili vositasida o'qituvchi va o'quvchining dars paytidagi o'zaro hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlari, ular bilan auditoriyadan tashqari ishlar shaklida ta'lim, tarbiya, umumiy rivojlanishga oid masalalar hal etiladi.

**METODIKA AMALIYOT SIFATIDA** Metodika fanining yana bir qirrasini uning amaliy xarakteri bilan belgilanadi. Zero, u ta'lim jarayonida o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga erishishni ta'minlaydigan o'qituvchi mehnatining shakli hamda usullari majmui haqida tasavvur beradi. Atama anglatayotgan mazkur ma'noda "o'qitish texnologiyasi" yoki "mehnatni ilmiy tashkil etish" tushunchalarida ham mujassamlashgan. Til o'qitish metodikasini o'rganish — turli ta'lim bosqichlariga

[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

mos, qulay metodlarni izlash, tanlash, amaliyotda qo'llay bilishdir. U ilg'or tajribalarni umumlashtirish, o'qitishning zamonaviy texnologiyasini ishlab chiqish va undan samarali foydalanishga asoslanadi.

### **Adabiyotlar :**

1. .Abdumannotov A. Navoiy farzand adobi haqida. /Boshlang'ich ta'lim, 1996. №3, 38-b.
2. Abdurahmonov D., Abdurahmonova M., Usmonova G. Navoiyning til sandig'idan. -T.:Yoshlik, 1991, №3., 36-37 b.
3. Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» So'zboshi A.Hayitmetov. -T.: Adabiyot va san'at. 1989 y. -352 b.
4. Alisher Navoiy mukammal asarlar to'plami. 7-tom. «Xamsa», «Hayrat ul-abror» - T.: Fan, 1991 y. -390 b.
5. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T: «Sharq», 1997 y., 184b.
6. G'oziyev E. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): - T.: «O'qituvchi», 1994. - 224 b.

## LEBEG INTEGRALI VA LEBEG INTEGRALINI HISOBLASHDA UNING XOSSALARIDAN FOYDALANISH METODLARI

*Noriyeva Aziza Jasur qizi*

*O'zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrası o'qituvchi-stajyori*

*Telefon: +998995569688*

*[nasimov3570@gmail.com](mailto:nasimov3570@gmail.com)*

**Anotatsiya:** Maqolada musbat Lebeg integrali va Lebeg integralini hisoblashda uning xossalaridan foydalanish usullari misollar orqali keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Lebeg o'lchovi, Lebeg integrali, additivlik xossasi, chegaralangan va o'lchovli funksiya.

Fransuz matematigi, Parij universiteti professori, haqiqiy o'zgaruvchining funksiyalarining zamonaviy nazariyasi asoschilaridan biri A.L. Lebeg Parij Fanlar Akademiyasi, London Qirollik jamiyati va boshqa ko'plab ilmiy tashkilotlar a'zosi 1875-yil 28-iyunda tavallud topgan. Lebegning birinchi maqolalari, asosan, differensial geometriya va matematik analiz muammolariga tegishli edi. O'lchovlar nazariyasi va Lebeg integralining asosiy tushunchalari birinchi marta u tomonidan 1901 yilda "Aniq integralni umumlashtirish to'g'risida" maqolasida bayon etilgan. Quyida biz Lebeg integrali va uning xossalaridan foydalanishga to'xtalamiz.

$(\Omega, \Sigma, \mu)$  o'lchovli fazo bo'lsin.  $E \subset \Omega$  chekli o'lchovli to'plam, bu to'plamda aniqlangan  $f(x)$  o'lchovli funksiya uchun

$$A < f(x) < B$$

bo'lsin.  $[A, B]$  oraliqni  $A = y_0 < y_1 < y_2 < \dots < y_n = B$  bilan bo'lamiz va har bir yarim segmentga

$$E_k = \{x \in E: y_k \leq f(x) < y_{k+1}\}, k = \overline{0, n-1}$$

to'plamlarni mos qo'yamiz. Lebegning quyi va yuqori yig'indilari deb ataluvchi

$$s = \sum_{k=0}^{n-1} y_k \mu(E_k)$$

$$S = \sum_{k=0}^{n-1} y_{k+1} \mu(E_k)$$

yig'indilarni qaraymiz. Agar  $\lambda = \max (y_{k+1} - y_k)$  deb olsak, u holda

$$0 \leq S - s \leq \lambda \mu(E).$$

tengsizlikda  $\lambda \rightarrow 0$  bo'lganda  $\{S\}$  va  $\{s\}$  yig'indilar biror songa intiladi va bu son  $f(x)$  funksiyaning  $E$  to'plam bo'yicha Lebeg integrali deyiladi. Lebeg integrali  $(L) \int_E f(x) d\mu(x)$  kabi belgilanadi.

**1-masala.**  $f(x)$  chegaralangan o'lchovli funksiya  $E$  o'lchovli to'plamda  $m \leq f(x) \leq M$  tengsizlikni qanoatlantirsa, u holda

$$m\mu(E) \leq (L) \int_E f(x) d\mu(x) \leq M\mu(E)$$

o'rinlidir.

Lebeg integralining ushbu xossasidan foydalanib

$$\frac{2}{\sqrt[4]{e}} \leq (L) \int_{[-1;1]} e^{x^2+x} d\mu \leq 2 \cdot e^2$$

tengsizlikni isbotlaymiz.

Bu yerda  $\mu$  haqiqiy sonlar to'plamidagi Lebeg o'lchovi. Integral ostidagi  $f(x) = e^{x^2+x}$  funksiyaning  $f'(x) = (2x + 1)e^{x^2+x}$  hosilasidan foydalanib, uning  $[-1; -\frac{1}{2}]$  oraliqda kamayuvchi,  $[-\frac{1}{2}; 1]$  oraliqda o'suvchi ekanligini aniqlanadi.

$$\text{Demak, } m = \min_{[-1;1]} f(x) = f\left(-\frac{1}{2}\right) = e^{\frac{1}{4}-\frac{1}{2}} = e^{-\frac{1}{4}} = \frac{1}{\sqrt[4]{e}}$$

$$M = \max_{[-1;1]} f(x) = f(1) = e^2.$$

U holda  $e^{-\frac{1}{4}}\mu[-1; 1] \leq (L) \int_{[-1;1]} e^{x^2+x} d\mu \leq e^2 \mu[-1; 1]$ , ya'ni

$$\frac{2}{\sqrt[4]{e}} \leq (L) \int_{[-1;1]} e^{x^2+x} d\mu \leq 2 \cdot e^2.$$



**2-masala.** Agar  $E, E_i \quad i = 1, 2, \dots, n, \dots$  o'lchovli to'plamlar bo'lib,  $E = \bigcup_{i=1}^n E_i$  ( $n$ -natural son) va  $E_i \cap E_k = \emptyset, i \neq k$  va  $f(x)$  funksiya  $E$  to'plamda chegaralangan va o'lchovli bo'lsa, u holda

$$(L) \int_E f(x) d\mu = \sum_{i=1}^n (L) \int_{E_i} f(x) d\mu \text{ formuladan foydalanib}$$

$$(L) \int_{[-3;2]} (-1)^{|x|} d\mu$$

integralni hisoblaymiz.

$$(L) \int_{[-3;2]} (-1)^{|x|} d\mu = \int_{[-3;2]} (-1)^{-3} d\mu + \int_{[-2;-1]} (-1)^{-2} d\mu +$$

$$(L) \int_{[-1;0]} (-1)^{-1} d\mu + (L) \int_{[0;1]} d\mu + \int_{[1;2]} (-1) d\mu =$$

$$= -1 - 1 - 1 + 1 - 1 = -1$$

**3-masala.** Agar  $E, E_i \quad i = \overline{1, \infty}$  o'lchovli to'plamlar bo'lib,  $E = \bigcup_{i=1}^{\infty} E_i$   $E_i \cap E_k = \emptyset, i \neq k$  va  $f(x)$  funksiya  $E$  to'plamda chegaralangan va o'lchovli bo'lsa, u holda

$$(L) \int_E f(x) d\mu = \sum_{i=1}^{\infty} \int_{E_i} f(x) d\mu$$

Integralning bu xossasi uning to'la additivligi deyiladi.

Ushbu xossadan foydalanib,  $f(t) = e^{-[t]}$  funksiyaning  $(0, +\infty)$  oraliqdagi Lebeg integralini hisoblang.  $n \leq t < n + 1$  oraliqda  $[t] = n$  bo'lganligidan, bu oraliqda  $f(t) = e^{-n}$  bo'ladi.

$$(L) \int_{(0, +\infty)} f(t) dt = \sum_{n=0}^{+\infty} \int_n^{n+1} f(t) dt = \sum_{n=0}^{+\infty} \int_n^{n+1} e^{-n} dt = \sum_{n=0}^{+\infty} e^{-n} = \frac{e}{e-1}.$$

**4-masala.**  $(0, \infty)$  oraliqda  $f(t) = \frac{1}{[t+1][t+2]}$  funksiyaning Lebeg integralini hisoblaymiz.

Agar  $n \leq t < n + 1$  bo'lsa, u holda

$$f(t) = \frac{1}{(n+1)(n+2)}$$

bo'ladi. Integralning to'la additivlik xossasiga asosan

$$\begin{aligned}
 (L) \int_{(0, \infty)} f(t) dt &= \sum_{n=0}^{\infty} \int_n^{n+1} f(t) dt = \sum_{n=0}^{\infty} \int_n^{n+1} \frac{1}{(n+1)(n+2)} dt = \\
 &= \sum_{n=0}^{\infty} \frac{1}{(n+1)(n+2)} = \sum_{n=0}^{\infty} \left( \frac{1}{(n+1)} - \frac{1}{(n+2)} \right) = \left( 1 - \frac{1}{2} \right) + \left( \frac{1}{2} - \frac{1}{3} \right) + \dots \\
 &\quad + \left( \frac{1}{n+1} - \frac{1}{n+2} \right) + \dots = 1
 \end{aligned}$$

**5-masala.** Agar  $f(x)$  funksiya  $[a, b]$  oraliqda Riman ma'nosida integrallanuvchi bo'lsa, u holda uning uzilish nuqtalari to'plami nol o'lchoviga ega.

Ushbu xossadan foydalanib quyidagi misolni yechamiz:  $[0, 1]$  segmentda o'lchovi  $\frac{1}{2}$  ga teng bo'lib, hech qayerda zich bo'lmagan mukammal  $E$  to'plam tuzilgan; ushbu to'planning to'ldiruvchi oraliqlari uzunliklarining kamayib borishi tartibida  $(\alpha_1, \beta_1), (\alpha_2, \beta_2), \dots, (\alpha_n, \beta_n), \dots$  kabi belgilangan. Keyin  $[0, 1]$  segmentda  $f(x)$  funksiya quyidagicha aniqlangan:

$$f(x) = 0, \text{ agar } x \in E,$$

$$f(x) = 1, \text{ agar } x \in (\alpha_n, \beta_n)$$

$f(x)$  funksiya  $\left[ \alpha_n, \frac{\alpha_n + \beta_n}{2} \right]$  va  $\left[ \frac{\alpha_n + \beta_n}{2}, \beta_n \right]$  segmentlarda chiziqli.

Ushbu funksiya  $[0, 1]$  segmentda Riman ma'nosida integrallanuvchi bo'ladimi? Lebeg ma'nosidachi? Uning  $[0, 1]$  segmenti bo'yicha Lebeg integrali nimaga teng?

$f(x)$  funksiya uzilish nuqtalari to'plami  $E$  ning o'lchovi 0 dan katta bo'lgani uchun Riman ma'nosida integrallanuvchi emas, lekin Lebeg ma'nosida integrallanuvchi.

$f(x)$  funksiyaning  $[0, 1]$  segmentdagi Lebeg integralini hisoblaymiz:

$$(L) \int_{[0;1]} f(x) dx = (L) \int_E f(x) dx + (L) \int_{[0,1]/E} f(x) dx = \sum_{n=1}^{\infty} (L) \int_{\alpha_n}^{\beta_n} f(x) dx =$$

$$= \sum_{n=1}^{\infty} (R) \int_{\alpha_n}^{\beta_n} f(x) dx = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{\beta_n - \alpha_n}{2} \cdot 1;$$

$$\text{Demak, } (L) \int_{[0,1]} f(x) dx = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{\beta_n - \alpha_n}{2} \cdot 1$$

Lekin,  $\sum_{n=1}^{\infty} (\beta_n - \alpha_n)$  bu to'ldiruvchi oraliqlar uzunliklarining yig'indisi; u  $[0,1]/E$  to'planning o'lchovi  $\frac{1}{2}$  ga teng.

$$\text{Demak, } (L) \int_{[0,1]} f(x) dx = \frac{1}{4}.$$

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aleksandrov P.S. Vvedenie v teoriyu mnojestv i obshuyu topologiyu. – M.: Nauka, 1977.
2. Antonevich A.B., Knyazev P.N., Radyno Ya.B. Zadachi i uprajneniya po funktsional'nomu analizu. – Minsk: Vysheyschaya shkola, 1978.
3. Ayupov Sh.A., Berdikulov M.A., Turgunbaev R.M. Funktsiyalar nazariyasi. – Toshkent, 2004.
4. Ayupov Sh.A., Berdikulov M.A., Turgunbayev R.M. Funktsional analiz. – Toshkent, TDPU, 2007.
5. Ayupov Sh.A., Ibragimov M.M., Kudaybergenov K.K. Funktsional analizdan misol va masalalar-Nukus, 2009.
6. Noriyeva A.J. Koshi tengsizligi va uning qiziqarli masalalarga tadbirlari.- “Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman, 2022

## МАЪРИФАТПАРВАР ЧЎҚОН ВАЛИХОНОВ

*Ҳаётова Нафиса Акбар қизи*

*Навоий вилояти Зарафшон шаҳар 6- умумий ўрта таълим мактаби  
тарих фани ўқитувчиси*

**Аннотация:** Мақолада таниқли арбоб, маърифатпарвар, тарихчи олим, этнограф, фольклоршунос, географ ва мусаввир Чўқон Валихонов тўғрисида маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** маърифатпарвар, жадидчилик, Чўқон халқ оғзаки ижоди.

Феодал тузумга қарши қаратилган ҳаракат сифатида маърифатпарварликнинг келиб чиқишининг умумий қонунияти турли халқларда турли тарихий даврларда ўз хусусиятларига эга. Шундай бўлса ҳам, ҳар бир халқнинг маърифатпарварлиги умумий тарихий жараённинг ифодасидир. Европода бўлгани каби, Марказий Осиёда ҳам маърифатпарварлик феодал муносабатлар, эскилик, қолоқлик ва анъаналарга қарши қаратилган оқим сифатида ўзини намоён қилди. Унинг шаклланиши ва ривожини Европа маданиятининг таъсири, феодал ҳолатдаги Марказий Осиё ва сармоядорликка ўтган Россия ўртасидаги мавжуд қарама-қаршилик билан боғланган эди.

Таниқли олим Аҳмад Дониш ислоҳотлар ўтказишнинг энг фаол тарафдорларидан бири эди. Кейинчалик Муқимий, Фурқат, Ҳамза, Бердақ, Завқий, Баёний, Аваз Ўтар каби шоирлар ўз шеърларида халқни илм ва маърифатга чақирдилар. Абай, Чўқон Валихонов каби таниқли арбоблар демократик ғоялар билан қуролланган бўлиб, улар бу мушкул аҳволдан чиқишнинг йўлини нафақат маърифатда, балки туркий халқларнинг бирлашувида кўрар эдилар. Худди шу заминда маърифатпарварликдан сиёсий талабларни кўтариб чиқишга қадар юксалган жадидчилик ўсиб чиққан эди.

Маърифатпарвар ва демократ Чўқон Валихонов(1835-1865)нинг асл исми Муҳаммад Ҳанафия бўлиб, серқирра тарихчи олим, этнограф,  
[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

фольклоршунос, географ ва айни пайтда, мусаввир ҳам эди. Қозоғистоннинг Кустоной вилоятида туғилган, ҳарбий бўлиш мақсадида Омскдаги Кадет корпусини тугатган бу инсон Санкт-Петербург университетининг тарих-филология факультетида маърузалар тинглайди ва халқ оғзаки ижоди намуналарини тўплаб, бутун Марказий Осиёни ўрганайди. У тарих, география, этнография, сиёсий иқтисод, археология, фольклоршунослик соҳаларида илмий асарлар яратайди. Унинг «Жунғария тарихи», «Қўлжа сафари кундалиги», «Қашғар сафари кундалигидан», «Қирғизлар», «Хон Абилой», «Хитой империясининг ғарбий ўлкаси ва Ғулжа шаҳри», «Кўкитой хоннинг оши», «Дала мусулмонлиги», «Қозоқлар ҳақида ёзмалар», «Суд реформаси ҳақида», «Қозоқ шажараси» каби асарлари Марказий Осиё, Шарқий Туркистон, Ғарбий Хитой, қозоқ, қирғиз, уйғур каби халқларнинг этнографияси, турмуши, маданиятини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга.

Ғарбий Сибирь генарал-губернаторлигида хизмат қилган Чўқон Валихонов, Хитой ва Марказий Осиёга уюштирилган илмий-текшириш экспедицияларида иштирок этади. 1858-1859 йилларда Қошғарга саёҳат қилади, 1855 йили Омскдан Семипалатинскийга, шунингдек, Аякўз, Копал орқали Қирғиз Олатоғларигача бўлган ерлар билан танишади. Чўқон Валихонов 1860-1861 йиллари Санкт-Петербургда яшаган пайтларида рус демократлари, олимлари билан яқиндан алоқа боғлаб, Фанлар академияси ва Рус жуғрофия жамияти ишларида фаол қатнашади.

Чўқон халқ оғзаки ижодини чуқур илмий ўрганиб, «Қозоқнинг халқ дostonларининг турлари ҳақида», «Ўрта юз қозоқларининг афсона-эртаклари тўғрисида», «XVIII аср ботирлари ҳақида тарихий афсоналар»<sup>26</sup> каби илмий тадқиқотларини яратди. Қирғиз халқ дostonи «Манас»нинг кўп қисмини ёзиб олган, рус тилига ўгирган ва чуқур ўрганган эди. Бу асарни «Илиада»,

---

<sup>26</sup> Валиханов. Ч.Ч. Собрание сочинения. Т.1. –Алма-ата, 1961. –С. 283

«Одиссея» асарлари билан бир қаторга қўйиб, юксак баҳо берган ҳам Чўқон Валихонов эди<sup>27</sup>.

Чўқон Валихонов подшоҳ Россияси тузумини, мустамлакачилик зулмини кескин танқид қилди, рус маданиятини тарғиб қилди, қозоқ халқини кўчманчиликдан ўтроқ ҳолатга ўтишга даъват этди, маърифатли бўлишга чақирди. Д.И.Менделеев, П.П.Семенов –Тяньшанский, Г.Н.Потанин каби рус олимлари билан ижодий мулоқотда бўлди. В.Г.Белинский, Н.Г.Чернишевский ижодлари таъсири остида қозоқ ижтимоий-фалсафий фикрида биринчи бўлиб реалистик анъаналарни илгари сурди<sup>28</sup>.

Чўқон Валихоновнинг фалсафий дунёқараши моддийонча хусусиятга эга. Унинг фикрича, табиат абадий ва хилма-хил бўлиб, у-бирламчидир, онг эса иккиламчи бўлиб, унинг ҳосиласидир. Моддийликга эга бўлган ҳодисалар ўз қонунларига мувофиқ ривожланадилар. Дунёдаги ҳодисалар ўртасида сабабий алоқа мавжуд. Валихоновнинг ақидасича, мутаассибликдан ҳоли бўлган, ўз хатти-ҳаракатида диний ақидаларга эмас, балки воқеяликни ўзини тадқиқ қилиш асосида хулоса чиқарадиган ўқимишли киши учун табиат ва жамият қонунларини тўлалигича тушуниб етиш мумкин. Ижтимоий ҳаёт ҳақида фикр юритиб, мутафаккир қайд этадики, инсоннинг истак ва манфаатлари жуда ҳам бир-бирига қарама-қарши ва чигаллашгандир. Аммо уларни ягона асосга, яъни инсон онги эриша оладиган «жисмоний ва ижтимоий шароитлар» таъсирига олиб келиб боғлаш мумкин.

Ўз таъбирича, «тараққиётнинг қандайдир ғайритабiiй инқирози»<sup>29</sup> намунаси бўлган Марказий Осиёнинг қайғули аҳволини чуқур идрок этган Чўқон Валихонов бунинг сабабларини нафақат қолоқликда, айна пайтда, маҳаллий халқларнинг сиёсий фаоллиги кучайишидан чўчиб, уларни маърифатли қилишдан манфаатдор бўлмаган Россия империяпараст маъмуриятининг ўлкани мустамлака сифатида бошқаришида ҳам кўради.

<sup>27</sup> Валиханов.Ч.Ч. Собрание сочинения. Т.1. –Алма-ата, 1961. –С. 289

<sup>28</sup>Эркинов С. Маънавият юлдузлари. –Тошкент.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999. -Б.91.

<sup>29</sup> Валихонов Ч. Избранные сочинения. –Москва, 1982. –С.83.

Чўқон Валихонов мавжуд тузумни тубдан ўзгартириш вазифасини ўз олдига қўйган эмас, унинг фикрича, халқнинг аҳволи уни ким бошқариши, раҳбарнинг қанчалик маърифатлилигига боғлиқ. Лекин у ҳукмрон табақалар сиёсий ҳокимиятининг чекланишини халқнинг эркин ривожланишининг зарур шарти деб ҳисобларди. Маърифат ҳамда яшаш ва меҳнат қилиш учун яхши шароит ва доно ҳукмдорлар - мана Валихоновнинг демократик интилишларининг асоси.

## «ПУТИ ПОВЫШЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКОГО ЗАПАСА ШКОЛЬНИКОВ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ»

*Файзуллаева Мохинур Алишер кизи*

*Учитель Русского Языка И Литературы Школа N 19 город Ташкент,  
Шайхонтохурский район*

**Аннотация:** В данной статье речь идет о способах запоминания и источниках новой лексики исходя из интересов современных школьников. Особое внимание акцентируется на повышение мотивации учащихся для изучения языка вне школы. Применение современных технологий способствует максимальному погружению ученика в языковую среду и помогает практическому овладению языком. Помимо этого, применение информационных технологий позволяют учащимся проявлять свою творческую активность, развивает стремление к познавательной деятельности.

**Ключевые слова:** мотивация, личностно-ориентированный подход, современные технологии, словарный запас.

Обогащение словарного запаса учащихся – важнейшая задача учителя. Можно выделить две цели обогащения словарного запаса:

- количественное увеличение слов и качественное совершенствование имеющегося запаса слов;
- обучение умению пользоваться известными и вновь усвоенными словами .

Обе эти цели мы стараемся реализовать на своих уроках.

Основная проблема изучения лексики – сохранение в памяти обучающихся всех введенных и закрепленных слов, вплоть до окончания школы (практически можно говорить о 80% слов, минимально – 60%. Для этого необходимо многократное (свыше 20 раз) употребление каждого из них на протяжении длительного времени через оптимальные интервалы (от 1–3



дней в начале организованного употребления слова до 1–3 месяцев в конце этого периода). Организация 90% таких повторных употреблений пассивной лексики и 30–50% активной лексики лежит на авторе учебника. Однако более половины повторений активной и около 10% повторений пассивной лексики должно быть обеспечено учителем в ходе говорения на уроке. Для этого учителю необходимо включать в проект каждого урока перечень не только новых, но и повторяемых в нем слов (слабо усвоенные, давно не употреблявшиеся, нуждающиеся в подкреплении). Существуют разнообразные способы обогащения словарного запаса учащихся. Представляю вашему вниманию несколько стратегий, позволяющих добиться этого.

### **1. Лексические игры**

Представляют собой ситуативно-вариативные упражнения, в которых создается возможность для многократного повторения речевого образца в условиях, приближенных к реальному речевому общению с присущими ему признаками – эмоциональностью, спонтанностью и целенаправленностью воздействия. Лексические игры сосредотачивают внимание учащихся на лексическом материале, имеют целью помочь им в приобретении и расширении словарного запаса, проиллюстрировать и отработать употребление слов в ситуациях общения. Лексически направленные упражнения в форме игры способствуют развитию внимания учащихся, их познавательного интереса, помогают созданию благоприятного психологического климата на уроке.

### **2. Флэш-карточки**

Карточки должны быть удобны в использовании. Необходимо подобрать нужный размер для карточек, которые будут удобно помещаться в ладонь, которые будет легко переключать.

- Для карточек используется плотная бумага или картон, можно заламинировать карточки для большего срока использования.

- На лицевой стороне карточки помещается слово на иностранном языке, возможно добавление транскрипции и пример употребления слова в предложении. На оборотной стороне помещается картинка или перевод, обозначающий лексическое значение слова.

**Использование флэш-карточек является эффективным методом для:**

- Изучения графической формы слов
- Запоминания лексического значения
- Быстрого речевого воспроизведения слова (чтения)
- Перехода слов из пассивного словарного запаса в активный (использование в говорении)
- Повышения мотивации к изучению иностранного языка.

### **3. Карты памяти**

Карта памяти «Mind Map» выступает альтернативой традиционным способам обработки и передачи информации (конспектам, кратким записям, схемам и т.п.) Эта альтернатива более продуктивна, так как имеет естественную психологическую основу, а главное превращает ученика в активного создателя собственного знания.

Психологической основой метода карты памяти является ассоциативное мышление. Сама карта памяти, с точки зрения ее создателей, есть модель работы нашего мозга.

Достаточно воспроизвести в памяти один объект этой информационной карты, и он цепочкой потянет за собой десятки взаимосвязанных фактов, событий, ощущений. Так возникает многомерное ассоциативное мышление, которое позволяет видеть не просто объект окружающего мира сам по себе, а во взаимосвязи с другими объектами

### **4. Рифмовки, стихи, песни**

Изучение лексических единиц происходит в игровой форме, что способствует комфортному состоянию учащихся на уроке. У детей обычно неустойчивое внимание. Поэтому обязательно в плане урока необходимо [www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

предусматривать виды работ, которые снимают напряжение, переключают внимание детей, вызывают положительное эмоциональное настроение. Разучивание рифмовок, стихов отвечает возрастным и психологическим особенностям детей. Они легко заучиваются, обладают такими признаками, как ритмичность, звуковая повторяемость. Разучивание стихов доставляет детям удовольствие. А то, что пережито эмоционально положительно, надолго остаётся в памяти, оставляя след в сознании ребёнка. Благодаря рифме легко активизируются в устной речи лексико-грамматические структуры.

Принципиальным моментом здесь является использование аутентичного речевого образца, и здесь песни и стихи имеют много преимуществ перед прозаическим материалом. Они легко вводятся, легко запоминаются, петь можно хором, что снимает психологический пресс с неуверенных в себе учеников. В подлинном песенном материале часто встречаются целые фразы и отдельные лексические единицы, характерные именно для разговорной речи.

## **5. Кроссворд**

Кроссворды — прекрасный способ для учащихся активизировать словарный запас.

Эту стратегию можно использовать на первом уроке изучения новой темы. Учащиеся вспоминают слова, которыми будут пользоваться на следующих уроках.

Кроссворд — отличный способ повторить ранее изученное перед проверочной работой. Предложите учащимся составить кроссворд по новым словам изученной темы. Они повторят их правописание, вспомнят значения. Для слабых учеников вы можете приложить к кроссворду тематический список слов, чтобы они смогли выбрать подходящие.

Конечно, список стратегий расширения словарного запаса учащихся можно продолжать дальше, и каждый учитель выберет те приемы, которые ему ближе. Главное помнить, работа над лексикой должна быть постоянной и систематичной.

Итак, для быстрого пополнения запаса слов рекомендуется использовать следующие моменты:

- работая над словом, больше обращать внимание на многозначность;
- заниматься преобразованием слов
- созданием различных словосочетаний.

Кроме этого, работая над словарным запасом, необходимо не забывать о стиле речи.

В заключение следует сказать, что помимо тщательного выполнения творческих заданий преподавателя, чем чаще ученик будет выступать с различными презентациями, докладами и сообщениями, чем больше прочитает текстов, тем богаче станет его словарный запас, улучшится речь и расширится кругозор. А задача современного учителя состоит в том, чтобы научить учеников грамотно перерабатывать полученную информацию, легче и быстрее усваивать её, что способствует развитию мотивации к обучению и повышает эффективность занятий.

### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ**

1. Азимов, Э.Г. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам) / Э.Г. Азимов, А.Н. Щукин. – М.: ИКАР, 2009. – 448 с
2. Аткинсон, Р. Человеческая память и процесс обучения / Р. Аткинсон. – М.: Прогресс, 1980. – 526 с. 5. Бронштейн, И.В. Использование дефиниций как один из способов работы над лексикой / И.В. Бронштейн // ИЯШ. – 1991. – №5. – С. 107–110.
3. Мачхелян, Г.Г. Современную лексику в учебный процесс / Г.Г. Мачхелян // ИЯШ. – 1989. – № 6. – С. 54–59.
4. Фельдштейн, Д.И. Проблемы возрастной и педагогической психологии / Д.И. Фельдштейн. – М.: Международная педагогическая академия, 1995. – 368 с.
5. Дроздова, Д.Р. Жанровая специфика академического дискурса [Текст] / Д.Р. Дроздова // Междисциплинарные аспекты лингвистических исследований. Сборник научных трудов Кубанского государственного университета. Книга 7 – Краснодар – 2015. – С. 42- 45.

6. Кожевникова, М.Н. Язык педагогики [Текст] /М.Н. Кожевникова // Вопросы образования. – 2014. – № 3. – С. 288-290.

8. Википедия. *Свободная энциклопедия* [Электронный ресурс], – <https://ru.wikipedia.org/>

9. <http://www.microanswers.ru/article/pyti-rasshirenija-leksicheskogo-zapasa.html>

10. <https://urok.1sept.ru/articles/680401>

11. <https://cyberleninka.ru/article/n/ob-effektivnyh-sposobah-uvvelicheniya-slovarnogo-zapasa-studentov/viewer>

## INNOVATSION RAQAMLI IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

*Raxmonkulova Xumora*

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot  
texnologiyalari unversiteti Farg'ona filiali "Kompyuter  
injiniringi" fakulteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari, raqamli iqtisodiyotga o'tishning ilg'or xorijiy tajribalari masalalari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiyot, raqamli, globallashuv, internet, integratsiya, aloqa

XXI asrning boshlanishi, jahon iqtisodiyotining globallashuvi va uning yanada faollashishiga asos bo'lgan raqamli texnologiyalarning inqilobi bilan tarixda o'z o'rniga ega bo'ldi. Zero, raqamli iqtisodiyotning tobora rivojlanishi insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotining tub o'zgarishlariga sabab bo'lmokdaki, uning mohiyati, imkoniyatlari va yashirin tahdidlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish va intilishlar turli ixtisosliklardagi dunyoga tanilgan olimlar, mutaxassislar, ekspertlar, yirik kompaniya rahbarlarida ortib bormoqda.

Respublikamizda 2017 yilda qabul qilingan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish sharoitida mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, innovatsiyalarni keng joriy etish va shular asosida resurslardan oqilona foydalanish innovatsion raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillaridandir. Chunki boshqaruvda innovatsion raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, mamlakatimizda elektron hukumat tizimini joriy etish muammosi ijtimoiy rivojlanishning ko'p variantligi va muqobilligini e'tirof etishga asoslangan.

Ushbu jihatdan, yaqin kelajakda jahon iqtisodiyotini kutayotgan tarkibiy o'zgarishlarni ko'ra bilib va unga munosib tayyor bo'lish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomada, 2020 yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nomlab:

"Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart" deb belgilaganlar.

Darhaqiqat, milliy iqtisodiyotimizning raqamli iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tkazish borasida amalga oshirilayotgan keng kamrovli islohotlar so'nggi bir necha yillarda faol amalga oshirilmoqda va mazkur jarayonga iqtisodiyotning barcha ustuvor soha va tarmoqlarining jalb qilinayotganligi, shubhasiz, yanada yuqori samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi .

Ta'kidlash zarurki, bu kabi islohotlar va chora-tadbirlar barcha iqtisodiyoti rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda faollik bilan amalga oshirilmoqda. Bu borada, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, amalga oshirish muammolari hamda buning natijasida istiqboldagi manfaatlar va shu bilan birga tahdidlarini aniqlash kabi dolzarb masalalar dunyoda ro'y berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy islohotlarni tahlil qiladigan nufuzli xalqaro tashkilotlarning kun tartibidagi eng muhim masalalardan biri.

Zero, bugungi kunda jahon iqtisodiyotida globallasuv jarayonlarining yanada faollashishi va mamlakatlar o'rtasidagi texnologik tafovutlarning tobora ortib borishi, iqtisodiyotga va ijtimoiy hayotga jadallik bilan kirib borayotgan raqamli iqtisodiyot va uning tarkibiy elementlarini tashkil qiluvchi, sun'iy intellekt, raqamli platformalar, robotlashtirilgan texnikalar, buyumlar interneti, bulutli texnologiyalar, katta ma'lumotlar bazasi (Big Data), 3D-Nashr va boshqalarning faol joriy qilinishiga bevosita bog'liqdir.

Shunday ekan, bugungi kunda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlangan tub va tarkibiy islohotlarning to'liq ijrosini ta'minlash, raqamlashtirish jarayonlarini jamiyatning barcha sohalari va tarmoqlariga joriy etish va undan samarali foydalanish ob'ektiv zaruriyatga aylanmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Березной А. Транснациональный бизнес в эпоху глобальной цифровой революции/ *Мировая экономика и международные отношения*. 2018. №9. С.5-17.
2. Боташева Л.Х., Саркисян К.С. Выявление и оценка теневой экономики: методологический аспект/*Экономика и управление*. №5. 2018. С.30.
3. Гулямов С.С. ва бошқ., Рақамли иқтисодиётда блокчейн технологиялари. Уқув қулланма 21-22 бетлар. ТМИ. 2019 й. Б.447.
4. Muminov N.G., Zakhirova G.M. The role of public procurement in the digitalization of the economy and adoption of e-commerce. *St. Petersburg State Polytechnical University Journal. Economies* Vol. 13, No. 2, 2020. P.30-39. DOI: 10.18721/JE.13203
5. Головенчик Г.Г. Изменение рынка труда в условиях цифровой трансформации / Г.Г. Головенчик // *Цифровизация Евразии: новые перспективы экономического сотрудничества и развития: материалы Междунар. науч. конф., Москва, 28 ноября 2018 г.* / *Эконом*, ф-т МГУ им. М.В.Ломоносова; редкол.: С.А. Афонцева [и др.]. М.:МГУ, 2018. С.236-252.



## INNOVATSION RAQAMLI IQTISODIYOTNI XALQARO MIQYOSIDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

*Raxmonkulova Xumora*

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali "Kompyuter injiniringi" fakulteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotni xalqaro miqyosida rivojlanish tendensiyalari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, inqilob, insoniyat, xalqaro raqobat, internet, raqamli texnologiya, raqobatdosh, kommunikatsiya.

Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo'layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan o'zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi.

Raqamli iqtisodiyot ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Birinchidan, raqamli iqtisodiyot - bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rnini bilan tavsiflanadi.

Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot - bu o'ziga xos tushuncha bo'lib, uning o'rganish obyekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o'z rivojlanishining boshlang'ich davrida bo'lib, zamonamizning raqamli axborot bosqichiga butunlay o'tishi atiga bir necha yilni tashkil etadi.

Jahon amaliyotida dunyo mamlakatlarining raqamli raqobatbardoshlik darajasini baholash tizimlaridan "Digital Economy and Society Index (DESI) - Raqamli iqtisodiyot va jamiyat indeksi (RIJI)" keng qo'llaniladi.

Raqamli iqtisodiyot va jamiyat indeksi (RIJI) - Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning raqamli iqtisodiyot va jamiyat yo'lidagi taraqqiyotiga baho beradigan ko'rsatkich hisoblanadi.

RIJI beshta asosiy yo'nalish va bu yo'nalishlar tarkibiga kiruvchi jami 37 ta ko'rsatkichga asoslanadi. Bu yo'nalishlar quydagilar:

- Aloqa (Connectivity);
- Inson kapitali (Human capital);
- Internetdan foydalanish (Use of internet);
- Raqamli texnologiyalarning integratsiyasi (Integration of digital technology);
- Davlat raqamli xizmatlari (Digital public services).

Bu yuqoridagi yo'nalishlarning ba'zilari hamda ularning tarkibiga kiruvchi ko'rsatkichlar boshqa qolgan yo'nalishlar va ko'rsatkichlarga nisbatan dolzarbdir. Shuning uchun yakuniy indeksni hisoblashda ularga ko'proq vazn beriladi. Shu tariqa RIJI umumiy ko'rsatkichi, beshta yo'nalish bo'yicha hosil bo'lgan ko'rsatkichlarni vaznli arifmetik o'rtachasiga asosan hosil qilinadi.

2017-2020 yillardagi RIJI reyting ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, Finlandiya mamlakati oxirgi ikki yilda reytingda yetakchilik qilib kelmoqda .

Shvetsiya mamlakati so'nggi uch yil davomida ikkinchi o'rinni, faqat bir yil uchinchi o'rinni band etgan. Daniya dastlabki yillarda reytingda yetakchilik qilgan bo'lsa, 2020 yilda uchinchi o'rinni qayd etgan. Niderlandiya esa reytingdagi o'z pozitsiyasini barqaror holatda saqlagan.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining 2015-2020 yillarda RIJI ko'rsatkichini o'zgarish dinamikasi tahlili shundan dalolat bermoqdaki, Yevropa Ittifoqi bo'yicha 2020- yilda RIJI o'rtacha 52,6 ni, so'ngi besh yil ichida indeks o'sishi 13,7 ni tashkil etgan.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida aloqa, inson kapitali, internetdan foydalanish, raqamli texnologiyalarning integratsiyasi va davlat raqamli xizmatlari omillarini RIJI ko'rsatkichidagi ahamiyatini tahliliy qarab chiqamiz.

Tahlil natijalarini ko'rsatishicha Yevropa Ittifoqi bo'yicha 2020 yilda RIJI o'rtacha 52,6 ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichning 23,8% (12,5) - aloqa, 23,4% (12,3) - inson kapitali, 16,5% (8,7) - internetdan foydalanish, 15,7% (8,3) - raqamli texnologiyalarning integratsiyasi va 20,6 % (10,8) - davlat raqamli xizmatlari yo'nalishlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, aksariyat mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot endi shakllanishi va ko'plab mamlakatlarda hali shakllanmagan sharoitlarda yashirin raqamli iqtisodiyot muammosining yuzaga kelishi raqamli iqtisodiyotni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan islohotlarning muhim to'siqlaridan biriga aylanishi mumkin. Ushbu jihatdan, yashirin raqamli iqtisodiyot muammolarining nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinishi bugungi kunda dunyoda ko'plab olimlarning e'tiborini qaratayotgan muammolardan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. J.B. Dixit Fundamental of computer programming and IT. - Laxmi Publication PVT. Ltd., 2G11. - 55V p.
2. Applegate L. M., McFarlan F.W., McKenney J. L. Corporate information systems management: the issues facing senior executives. Irwin, 1996.
3. Hickerson. Business and Infomiation Systems 3/e. N. Y.: John Wiley & Sons, 2GGG.
4. Ostanaqulov M. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. - T: Talqin. 2GGS. 424 b
4. Qosimova G. Davlat byudjeti ijasining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2GGS; 3V2 b
5. Красноперова О. Бюджетный учет - МТТроссМедиа Ферлаг", 2GGS; 3S4 с.

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISH VA MAQSADI

*Uteniyazov Maxsud Baxitbay o'g'li*

*Nukus shahri Xalq ta'lim bo'limiga qarashli 39-sonli umum ta'lim maktabi*

*informatika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Informatika fani asoslari, rivojlanish tarixi va kelajagi keltirib o'tilgan. Va o'quvchilarni bu fanga qiziqtirish va o'rgatish yo'llari aytib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Informatika, pedagogik amaliyot, kompyuter, dasturlash.

Informatika fanidan pedagogik amaliyot informatikadan uslubiy jihatdan malakali o'qituvchini tayyorlashda asosiy bo'g'in hisoblanadi. U oliy o'quv yurtida pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, ijtimoiy va maxsus fanlardan olingan bilimlarni mustahkamlashga va boyitishga imkoniyat yaratadi, yosh o'qituvchilarga informatika fanini o'qitishning o'quv va uslubiy qo'llanmalardan, dasturiy ta'minotdan, kompyuter sinflaridan foydalanish xususiyatlari bilan tanishishga imkon beradi. Pedagogik amaliyotning asosiy vazifasi: hozirgi zamon informatika fanini o'qituvchisining ko'nikma va malakalarini egallashdir. Pedagogik amaliyotni o'tkazish vaqti o'quv rejasi bilan aniqlanadi. Pedagogik amaliyot darslarini, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarni o'tkazish va tayyorlashda talabalar mustaqil ishi faoliyatining doimiy o'sib borish prinsipi asosida olib boriladi. Respublikamizda, yosh avlodning o'z faoliyatini rejalashtirishi, qo'yilgan masalani yechishga zarur bo'lgan axborot topa olishi, o'rganilayotgan ob'ekt yoki jarayonni informatsion modelini qura olishi va yangi texnologiyalardan unumli foydalana olishi kabi malakalarga ega bo'lishi uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda.

Zamonaviy kompyuterlarni boshqara olish malakasiga ega bo'lish har bir yosh avlodga zarurdir. Shuning uchun, o'rta maktab Informatika fanining birinchi va muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda aniq bir fikrlash usulini shakllantirishdir.

O'qitish shakli va usuli yosh o'quvchilarning fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Masalaning qiyin tomoni shundaki, bir

tomondan o'quvchining fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bo'lsa, ikkinchi tomondan ularga zamonaviy kompyuterlar olami haqidagi bilimlarni qiziqarli va uyg'un ko'rinishda berishdir.

Informatika fanining yoshlik darajasidagi dolzarblik jihatlari quyidagilarda akslanadi:

- O'quvchilarda axborotlarni qayta ishlash jarayonida fikrlash tartibotlarini, jumladan, mantiqiy va abstrakt fikrlashni shakllantirish.

- Kompyuterdan o'quv vositasi sifatida foydalanishni ta'minlash maqsadida, uning yordamida axborot ustida amaliy ishlar olib borish, zamonaviy dasturiy ta'minot bilan tanishish.

- Kompyuterdan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarda uni o'rganilayotgan jarayonda hisoblash, tasvirlash, tahrirlash ishlarini bajarishda vosita sifatida qo'llash tajribasiga ega bo'ladilar.

- Yoshlarda hisoblash texnikasiga nisbatan uning samarali vosita sifatidagi ijobiy munosabatlarni shakllantiradi.

- Yoshlarda turli o'quv kurslarida olayotgan axborot va ma'lumotlarni kompleks ravishda o'rganish hamda ularning uzviyligini ta'minlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Kompyuter o'quvchilarning ijodiy va abstrakt fikrlash darajasini yaxshiroq tushunish, o'z navbatida keng va chuqur rivojlantirish imkonini beradi. Ma'lumki, bunday fikrlash uyg'unligi matematika va boshqa fanlarni o'zlashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'quv-metodik ta'minot sohasida informatika o'qitish metodikasi o'z oldiga o'quvchilar uchun qiziqarli darsliklar va o'quv qo'llanmalarini, o'qituvchilar uchun esa uslubiy ishlanmalarni yaratishni maqsad qilib qo'yadi.

O'quv-metodik ta'minot o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalarni o'z ichiga oladi. Bunda asosiy o'rin darslik va o'quv qo'llanmalariga ajratilgan. Qolgan o'quv-metodik ta'minot asosiy darslik bilan yaqindan bog'langan bo'lib, darslikdagi g'oyalarni tushuntirish va rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

O'quv-metodik ta'minot tarkibiga davriy nashrlardagi, oliy va o'rta maxsus ta'lim va xalq ta'limi vazirliklari nashrlaridagi uslubiy materiallarni va me'yoriy hujjatlarni kiritish mumkin.

O'quv-metodik ta'minotning hozirgi davrdagi muhim bir bo'lagi bu, elektron o'quv- metodik materiallardir.

Informatika fanning asosiy maqsadi – o'sib kelayotgan avlodni kompyuter yordamida mustaqil fikrlashga, tasavvurini rivojlantirishga va o'zining ijodiy rejalarini hayotda tadbiiq etishga o'rgatish.

Informatika - bu umumta'lim fanidir va unga tizimli nuqtai nazardan qarash kerak, bu o'rta ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari bilan belgilanadi. Informatikani fan sifatida qabul qilinishining qiyinchilik tomoni shundaki undagi masalalar fizika, matematika, astronomiya fanlariga ham tegishlidir va informatika fanlararo aloqadorlikka ega. Bugungi kunda bolalar faqatgina kompyuter mavjudligini bilish bilan cheklanib qolmasliklari kerak, u haqida faqatgina tasavvurga ega bo'lmay, balki u erkin ishlashlari, ushbu texnikani qo'llashni bilishlari kerak. Informatika - bu ob'ektlar yoki jarayonlar haqida emas, balki ularni avtomatlashtirish, yaratish va faoliyatining usullari, vositalari va texnologiyalari haqidadir. Bu fan nafaqat uning chuqur o'rganilishini, balki o'z bilimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni amaliy qo'llay olishni hamda olingan bilimlarni optimallashtirishni ta'minlaydi. Informatika darslarida dunyoni tizimli qabul qilish, tabiatdagi va ijtimoiy sohalaridagi xodisalarni umumiy aloqadorligini isloh qilish tasavvurlari rivojlanadi. Uning darajasi asosan axborotni tezda qayta ishlash va unga asoslanadigan qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan belgilanadi, bu o'quvchilar uchun qo'shimcha imkoniyatlar talab qiladi. O'qituvchilardan esa barcha yangi usullar va ta'lim vositalaridan foydalanishni.

Maktab informatika fanining mazmuni muayyan darajada fanning rivojlanish darajasiga va jamiyat talablariga javob berishi kerak. Xisoblash texnikasining rivojlanishi, birinchi navbatda shaxsiy kompyuterlar va ularning dasturiy ta'minotining tez suratlarda yangilanishi inson faoliyatining barcha sohalariga tarqalishiga sababchi bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida informatika fanini bolalarga mukammal darajada etkazib bera oladigan, yuqori sifatli axborot texnologiyalari [www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

bilan o'qitishga qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash zarurligini ko'rsatmoqda. Yangi kompyuter texnologiyalari paydo bo'lishi, shuningdek, informatika fanlari ta'limi doirasida ta'lim mavzularining kengayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

### **Xulosa qilib aytganda:**

Kompyuter texnologiyalari shu darajada tez rivojlanmoqdaki ta'lim qanchalik harakat qilmasin undan bir qadam orqada qoladi. Xususan, ACM va Compyuter Science kabi qo'mitalarning yakuniy xulosalariga ko'ra informatika fanini o'qitishda quyidagi mavzular ahamiyatli deb topilgan va bunda so'nggi yillarda amalga oshirilgan texnik o'zgarishlar xisobga olingan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Semakin I.G. Computer science. Basic course. 7-9 grades / I. G. Semakin et al. - 2nd ed., Rev. and add. - M.: BINOM. Knowledge Laboratory, 2004.
2. Bauer FL, Gooz G. Informatics. Introductory course: Per. with him. / Ed. A.P. Ershova. - M.: Mir, 1976.
3. Dorodnitsyn AA Informatics: subject and tasks // Cybernetics. Formation of informatics. - M.: Nauka, 1986.
4. Ershov A. P., Zvenigorodsky G. A., Pervin Yu.A. School informatics (concepts, state, prospects). - Novosibirsk, Computing Center SO AN SSSR, 1979

## РОЛЬ И МЕСТО ВНЕКЛАССНОЙ РАБОТЫ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ

*Сайдуллахожаева Ф.Р.*

*Магистр 2 курса, ТГПУ им. Низами, Ташкент*

**Ключевые слова:** внеклассная работа, математические соревнования, факультативные занятия, раздаточный материал, олимпиада, кружок.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль и актуальность внеклассной работы по математике в начальных классах. Рассмотрены основные цели и виды внеклассной работы. Отмечается, что ориентирование на расширение и углубление базовых знаний, развитие способностей, организация социальной деятельности школьников напрямую зависит от проведения внеклассных занятий.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNING O'RNI

*Saydullaxo 'jayeva F.R.*

*Magistr 2 kurs, Nizomiy nomidagi TGPU, Toshkent.*

**Kalit so'zlar:** sinfdan tashqari mashg'ulot, matematik musobaqa, tarqatma material, olimpiada.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarning o'rni va dolzarbligi muhokama qilinadi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy maqsadlari va turlari ko'rib chiqiladi. Ta'kidlanishicha, asosiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga, qobiliyatlarni rivojlantirishga, maktab o'quvchilarining ijtimoiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirish bevosita sinfdan tashqari ishlarning o'tkazilishiga bog'liqdir.

## THE IMPORTANCE OF OUT-OF-CLASS MATHEMATICS IN ELEMENTARY CLASSES



*Saydullakhujayeva F.R.*

*2nd year undergraduate student, TSPU named after Nizami, Tashkent*

**Key words:** extracurricular activities, mathematical competitions, handouts, olympiad, circle.

**Annotation:** This article discusses the importance and relevance of extracurricular work in mathematics in primary grades. The main goals and types of extracurricular activities are considered. It is noted that focusing on the expansion and deepening of basic knowledge, the development of abilities, the organization of social activities of schoolchildren directly depends on the conduct of extracurricular activities.

Одной из главных задач внеурочной работы является создание оптимальных условий для развития каждого учащегося в различных видах деятельности. Известно, что какими бы значительными ни были задатки человека, они не развиваются сами по себе, вне обучения, в отрыве от деятельности этот процесс не существует. Можно по этому поводу привести мнение ведущих психологов: «Способности не просто проявляются в труде, они формируются, развиваются, расцветают в труде и гибнут в бездействии»; «Способности не могут возникать вне конкретной деятельности человека, а формирование их происходит в условиях обучения и воспитания». Все это приводит к необходимости индивидуализации обучения математике, одной из форм которой является внеклассная работа.

Под внеклассной работой по математике понимаются необязательные систематические занятия учащихся с преподавателем во внеурочное время.

Следует различать два вида внеклассной работы по математике: работа с учащимися, отстающими от других в изучении программного материала (дополнительные внеклассные занятия); работа с учащимися, проявляющими к изучению математики повышенный интерес и способности (собственно внеклассная работа в традиционном понимании смысла термина).

Основными характерными особенностями внеурочной работы по математике являются:

некоторая произвольность выбора тематики занятий;

разнообразие форм работы с учащимися;

занимательность;

выделение сравнительно небольшого учебного времени на одну и ту же тему.

Внеклассная работа с учащимися 1 – 4 классов имеет свои дополнительные особенности. Одна из них — недостаточно развитый, несформировавшийся и еще неустойчивый интерес к предмету у большинства учащихся, принимающих участие в этой работе. Вместе с тем именно на этом этапе у учащихся такой интерес, может и должен начать формироваться. Конечно, результаты успешных занятий математикой часто не зависят от срока начала внеклассной работы. Математическая одаренность или способности конкретного человека развиваются в любом возрасте, лишь бы были благоприятны для этого условия. При этом необходимо учитывать, что разнообразие математических теорий и их приложений требуют способностей разного характера. Чтобы обнаружить, какие именно способности могут развиваться у данного учащегося, ему полезно принять участие в самой разнообразной математической деятельности. Конечно, для проверки способностей детей на разном материале нужно много учебного времени. Невозможно не учитывать такие особенности поведения младших школьников, как обязательность, исполнительность, которые позволяют учителю заинтересовать учащихся предметом.

Эти обстоятельства подсказывает еще одну особенность проведения внеклассных занятий по математике в самом юном возрасте — на занятия надо приглашать учащихся, не дожидаясь пробуждения у них собственной инициативы. Внеклассная работа по математике в 1 – 4 классах должна быть массовой, охватывать по возможности не менее трети всех учащихся. Разумеется, названное число ориентировочное, т. к. в одних классах в эту работу будет вовлечено больше, а в других меньше учащихся.

Одной из особенностей проведения внеклассной работы в 1 - 4 классах является особое внимание учителя к поощрению учащихся. В доброжелательности учителя, умении удивляться самым, казалось бы, незначительным сдвигам в работе своих воспитанников проявляется педагогическое мастерство, степень влияния учителя, на формирование и развитие интереса к предмету у учащихся.

Учителя, хорошо знающие особенности учеников возраста 1 - 4 классах, учитывают, что эти учащиеся нередко с большим удовольствием выполняют кропотливые расчеты и выкладки. В этом возрасте мало развит «критицизм», присущий более взрослым учащимся, очень популярна искренняя критика товарищей, нетерпимость к списыванию и дают себя знать побуждения раннего возраста: «Я сам!» Ученики 1 - 4 классов, как правило, очень любят посильные индивидуальные поручения — подготовить доклад, сообщение, написать заметку в стенгазету, участвовать в дежурстве, составить список или перечень (эта черта, в частности, способствует развитию у них интереса к изучению теоретико-множественного материала).

В проведении внеклассной работы необходимо также опираться на любовь учащихся этого возраста к сказкам и различным интересным, веселым историям.

Внеклассная работа по математике, как и по другим предметам, определяется как составная часть учебно-воспитательной работы школы, как одна из форм организации досуга учащихся. Она бывает разнообразной по содержанию и формам. Необходимость проведения подчеркивается в педагогической и методической литературе.

Внеклассная работа по математике преследует следующие цели:

1. Пробуждение и развитие устойчивого интереса учащихся к математике.
2. Расширение и углубление знаний по математике.
3. Развитие у учащихся умения самостоятельно и творчески работать с учебной литературой.
4. Воспитание у учащихся чувства коллективизма и умения сочетать индивидуальную работу с коллективной.

Предполагается, что реализация этих целей частично осуществляется на уроках. Однако в процессе урока это не удастся сделать с достаточной полнотой, так как учебное время ограничено. Поэтому полная реализация этих целей осуществляется на внеклассных занятиях.

Внеклассная работа по математике в ее традиционном толковании проводится в школе учителем во внеурочное время с учащимися, проявляющими интерес к математике. Эта работа планируется учителем и по мере необходимости корректируется. Государственных программ по внеклассной работе нет, как и нет норм оценок. На внеклассные мероприятия и занятия ученики приходят по желанию, без всякой предварительной записи. Если у ученика пропадает интерес к внеклассной работе, он прекращает свое участие в ней. Активизация внеклассной работы по математике призвана не только возбуждать и поддерживать у учеников интерес к математике, но и желание заниматься ею дополнительно как под руководством учителя во внеурочное время, так и при целенаправленной самостоятельной познавательной деятельности по приобретению новых знаний, т. е. путем самообучения.

Значение внеклассной работы по математике с младшими школьниками состоит в следующем:

1. Различные виды этой работы в их совокупности содействуют развитию познавательной деятельности учащихся: восприятия, представлений, внимания, памяти, мышления, речи, воображения. «...Ни один наставник не должен забывать,- говорил Труднев В.П.,- что его главнейшая обязанность состоит в приучении воспитанников к умственному труду, и что эта обязанность более важна, чем передача самого предмета.

2. Она помогает формированию творческих способностей учащихся, элементы, которые проявляются в процессе выбора наиболее рациональных способов решения задач, в математической или логической смекалки, при проведении на внеклассных занятиях соответствующих игр, в конструировании различных геометрических фигур, в организации

коллектива своих товарищей, чтобы с наибольшей эффективностью выполнять какую-либо работу или провести познавательную игру и т. д.

3. Некоторые виды внеклассной работы позволяют детям глубже понять роль математики в жизни: и при отборе числовых данных во время экскурсии на производство, в поле при сборе урожая, при составлении задач на основе собранного материала, при непосредственном измерении площадей участков под сельскохозяйственными культурами, при наблюдении за взвешиванием собранного урожая.

4. Внеклассная работа по математике содействует воспитанию коллективизма и товарищества, накоплению наблюдений за трудом и отношений к нему взрослых и, в связи с этим, воспитанию любви к нему.

5. Различные виды внеклассной работы способствуют воспитанию у детей культуры чувств, ибо дети в своих поступках обычно руководствуются, прежде всего, не логическими рассуждениями, а чувствами. При этом речь идет о так называемых интеллектуальных чувствах (чувства справедливости, чести, долга, ответственности и другое).

6. Главное же значение различных видов внеклассной работы состоит в том, что она помогает усилить интерес учащихся к математике, содействует развитию математических способностей младших школьников.

Я хотела бы подчеркнуть, что под внеклассной работой понимают не обязательные, а добровольные внеурочные занятия учащихся по предмету, которые способствуют углублению знаний и развитию умений по математике.

Однако внеклассную работу по математике нельзя смешивать с особым видом работы по выполнению его учебно-воспитательных задач, известных в школьной практике под названием «дополнительных занятий» или «работы с отстающими». Тем более нельзя всю работу сводить к занятиям с отставшими или подменять ее ими, что иногда ошибочно делается.

До настоящего времени внеклассная работа по математике чаще всего строилась на принципах занимательности, развлекательности, в нее вовлекалась небольшая часть школьников из числа лучших учеников. В новых условиях стремление ограничиваться внеклассными занятиями по математике

только со способными школьниками нельзя считать целесообразным. Сейчас возникла необходимость включения во внеклассную работу по математике всех учащихся. Возможность массовой внеклассной работы обусловлено повышением интереса учащихся к школьному курсу математики, а также более ранним умственным развитием детей.

Внеклассная работа по математике в учебном году ведется параллельно с классными занятиями. При организации внеклассной работы необходимо учитывать добровольность участия детей, охват всех участников определенным видом деятельности, независимо от уровня воспитанности, успеваемости. Добровольность обеспечивается тем, что ученики сами выбирают форму занятий, которая их интересует.

Внеклассная работа должна проводиться систематически и последовательно. Наблюдения показывают, что пренебрежение принципом систематичности и последовательности приводит к тому, что эффективность таких занятий оказывается весьма невысокой, учащиеся перестают их посещать.

Внеклассную работу можно рассмотреть как средство развития интереса к предмету, повышения качества знаний, формирования элементов материалистического мировоззрения, развития творческой самостоятельности, эстетического, нравственного воспитания школьников. В основном необходимый набор качеств знаний непосредственно через содержание заданий. Задания должны подбираться учителем с учетом умственного развития учащихся – переходить от менее сложных к более сложному.

Учителю должны быть свойственны такие качества, как глубокие знания математики, широкая эрудиция, педагогическое мастерство. Великий ученый Менделеев писал: «Только тот учитель будет действовать плодотворно на всю массу учеников, который сам силен в науке, ею обладает и ее любит».

Итак, в данной статье я пришла к выводу, что на внеклассной работе по математике продолжается формирование основных умений (измерительных, вычислительных, чертежных). Это целесообразно делать с использованием [www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

межпредметных связей, что необходимо для подготовки детей к жизни, дальнейшему обучению, для действенности их знаний, выполнения ими практических задач.

## O'SIMLIKLAR VA HAYVONLAR BIOXILMA-XILLIGI

*D.S.Toshpo'latova - QDPI Biologiya kafedrası o'qituvchisi*

*X.B.Ahmadjonova - QDPI biologiya yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** O'simlik va hayvonlar yerning – hayot qobig'i, biosferaning asosiy komponentlaridan bo'lib, tabiiy resurslar orasida alohida o'rinni egallaydi. Oqilona foydalanilganda o'simlik va hayvonlar tiklanadigan va cheksiz mahsulot beradigan manbaga aylanishi mumkin. Biosferadagi o'ziga xos tabiiy muvozanat ko'p jihatdan o'simlik va hayvonlarning biologik rang-barangligini saqlashi bilan bog'liqdir.

**Kalit so'zlar:** strategiya, bioxilma-xillik, fotosintez, oziq zanjirlari, resurslar, noyob va yo'qolib borayotgan turlar.

Mamlakatimizda biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta'minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrashi sur'atlarini pasaytirish, hayvonlar va o'simliklarning kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini qayta tiklash, bioxilma-xillikni saqlab qolish sohasidagi xalqaro munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida 2019 yilda 2019–2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash Strategiyasi qabul qilindi.

Hozirgi kunda Respublikamizda 2019–2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash Strategiyasi doirasida ishlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro bioxilma-xillik kuni 2000 yil 22 may kunidan boshlab jahonning qator mamlakalarida keng nishonlab kelinadi. Mazkur sana BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1995 yil Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konventsiya a'zo tomonlarining anjumani tavsiyalari asosida qabul qilingan rezolyutsiyaga muvofiq e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi ham o'zining barqaror rivojlanishi uchun bioxilma-xillik resurslari muhimligini tan olgan holda, 1995 yilda ushbu xalqaro



konventsiyaga qo'shildi. Bugungi kunga kelib 196 ta mamlakat mazkur konventsiyani ratifikatsiya qilgan.

Biologik xilma-xillik yoki bioxilma-xillik bu Yer yuzidagi hayot xilma-xilligini tasvirlashda foydalaniladigan atamadir. Bioxilma-xillikka ko'p holatlarda o'simlik, hayvonot va mikroorganizmlar xilma-xilligi boyligi nuqtai nazaridan qaraladi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda 1,75 mln turlar aniqlanib, ko'p qismini hasharotlar tashkil etadi. Olimlar fikriga ko'ra, turlarning real soni 13 mln atrofida.

O'simliklar dunyosi yerdagi hayotning birlamchi manbai hisoblanadi. Ular yiliga 380 mlrd.tonna organik modda hosil qiladi, buning 330 mlrd.tonnasi dengiz va okean o'simliklariga, 40 mlrd.tonnasi o'rmonlarga, 8-10 mlrd. tonnasi o'tloqlarga to'g'ri keladi. O'simliklar yer yuzidagi hayotning asosi hisoblanadi. O'simliklar fotosintez jarayoni natijasida havodan karbonat angidrid gazini yutib, kislorod chiqaradi.

O'simliklar havoni xushbo'y hid, fitonsid deb ataluvchi uchuvchan moddalar bilan boyitib, kasallik tarqatuvchi bakteriyalarni qirib tashlaydi. Ular xilma-xil shovqinlarni so'ndiradi va changlarni yutib qoladi. Havoda kislorod miqdorining doimo etarli darajada mavjud bo'lib turishini ta'minlab, kishilar hayoti uchun eng yaxshi mikroiklimni vujudga keltiradi. Olimlarning aniqlashicha, 1 gektar 20 yoshli qarag'ayzor har yili 9,35 tonna CO<sub>2</sub> ni yutib, 7,25 O<sub>2</sub> chiqaradi. 1 ga maydonga o'rtacha 60 yoshli qarag'ayzor yiliga 10 tonna O<sub>2</sub> ajratib chiqarsa, 40 yoshli emanzor 14 tonnaga yaqin O<sub>2</sub> ni ajratib chiqaradi. Quyoshli issiq kunlarda 1 gektar o'rmonzor 220-230 kg CO<sub>2</sub> ni yutib, 180-220 kg O<sub>2</sub> ajratadi. O'rmonlar tabiiy muhitni tozalovchi, atmosfera va gidrosfera muvozanatini saqlovchi vosita. Hisoblashlarga qaraganda 1 gektar oq qayin o'rmoni 1 kunda 47 ming litr suvni bug'ga aylantiradi. Bu suvni tozalash, havoni namlantirish va yog'in yog'ishiga imkon yaratilishi demakdir. O'rmonlar o'ziga xos suv omborlaridir.

Shuningdek hayvonlar biologik resurslarning ajralmas bir qismi bo'lib, tabiatda modda va energiya almashinuvida ular muhim rol o'ynaydi. Hayvonlar o'simliklar bilan uzviy aloqada bo'lib turadi. Hayvonlar biosferaning eng asosiy qismi bo'lib, o'simliklar bilan birgalikda geografik qobiqda kimyoviy elementlarning

migrasiyasida katta rol o'ynaydi. Hayvonlar organik moddalardan quyosh energiyasi ta'sirida o'simliklar vujudga keltirgan tayyor organik mahsulotlarni iste'mol qiladi. Bir-birlari va o'simliklardan oziqlangan hayvonlar biologik hamda sayyoramiz modda almashinuvida aktiv qatnashadi.

Dengizda bir va ko'p hujayrali hayvonlarning qattiq chig'anoqlaridan chiqindi jinslar (bo'r, ohaktosh) vujudga keladi. Marjon poliplarning faoliyati natijasida okeanning sayyoz, iliq suvli katta hududlarida asosan tropik kengliklarida marjon orollari paydo bo'lgan. Hayvonlarning (yumaloq chuvalchanglar, tuproq chuvalchaglari, chumolilar, qo'ng'izlar, sut emuizuvchilarning ayrim turlari) nurash jarayonida va ayniqsa tuproq hosil bo'lishda ahamiyati katta. Ayrim hayvonlar (ko'pchilik hasharotlar, ayrim qushlar va ko'rshapalak) o'simliklarni changlatadi, ba'zi hayvonlar, qushlar o'simlik urug'larini tarqatadi. Hayvonlar hayoti o'simliklar hayoti bilan chambarchas bog'langan bo'lib, hayvonlar sonining o'zgarishi bilan o'simliklar bilan o'simliklar soni ham o'zgaradi. O'simliklar hayotida bo'ladigan o'zgarishlar esa hayvonlarning yashashga, rivojlanishga va tarqalishiga ta'sir etadi.

Insonning kundalik hayotida ham o'simliklarning ahamiyati juda katta. Shuningdek, o'simliklar muhim tabiiy geografik omil sifatida yer yuzidagi suv oqimiga, bug'lanishga, tuproqda nam saqlanishida, atmosferaning pastki qismidagi havo oqimiga shamolning kuchi va yo'nalishiga, hayvonlarning hayotiga katta ta'sir etadi.

O'simliklar jamiyat uchun behisob oziq-ovqat, xom ashyo, dori-darmon, qurilish materiallari va boshqa sohalarning asosiy manbaidir.

O'simliklar har xil kiyim-bosh, ichimliklar tayyorlash uchun shuningdek, chorva mollari uchun asosiy ozuqa manbai bo'lib ham hisoblanadi, insonlarga zavq-shavq beradigan estetik lazzat sifatida ham ahamiyatlidir. yer sharida mavjud bo'lgan 500 ming o'simlik turining 6000 turidan inson kundalik hayotda foydalanadi. Shundan 1500 turi dorivor o'simlik sifatida ahamiyatga ega. O'zbekistonda 4148 tur o'simlik mavjud bo'lib, shundan 577 tasi dorivor o'simliklar, shu jumladan Farg'ona

vodiysining 440 turni tashkil etadi<sup>30</sup> 103 turi bo'yoqdor o'simliklar, 560 turi efir moyli o'simliklar hisoblanadi.

Insonning o'simliklarga ijobiy va salbiy ta'siri ajratiladi. O'rmonlarni tiklash, ko'kalamzorlashtirish, o'simliklarning serhosil navlarini yaratish va boshqalar ijobiy ta'sirga kiradi. Insonning salbiy ta'siri oqibatida sayyoramizdagi o'rmonlarning 2/3 qismi yo'q qilingan, ko'plab qimmatli o'simlik turlari yo'qolib ketgan. Yangi yerlarni o'zlashtirish, atrof muhitning ifloslanishi oqibatida yuzlab o'simlik turlari yo'qolmoqda. O'simliklardan har xil yo'nalishlarda tartibsiz foydalanish natijasida ularning turlari kamayib noyob o'simliklarga aylanib bormoqda. Yaqin o'n yillar ichida tabiatda 40000 tropik o'simliklar yo'qolish havfi ostida, chunki bu hudud aholisi yildan yil ko'payib o'rmonlar qishloq xo'jalik ekinlari uchun qisqartirib borilmoqda.<sup>31</sup>

Hayvonlarning ko'pchiligi xalq xo'jaligi ishlab chiqarish uchun texnikaviy xom ashyo hisoblanadi. Qishloq ho'jalik hayvonlari, baliqlar, mo'ynali hayvonlar, turli-tuman yovvoyi hayvonlar jumlasidandir. Yovvoyi hayvonlar xonakilashtirishning bitmas-tuganmas manbaidir.

Bundan tashqari hayvonlarda har xil dori-darmonlar olinadi. Hayvonlarning ma'lum turlari ekinlar, inson va ba'zi bir hayvonlar uchun zararli bo'lsa, boshqa bir turlari insoniyat uchun koni foydadir. Ammo hayvonlarning ayrim turlariga baho berganda ularni tabiat uchun mutlaqo foydali yoki mutlaqo zararli deb bo'lmaydi. Masalan : chug'urchiq yoz davrida juda ko'p hasharotlarni iste'mol qilib foyda keltirsa, kuz oylarida mevali bog'larga ziyon yetkazadi.

Avstraliyada kora (kakadu) to'tiqushni qarag'ay urug'ini ko'plab eyishda va to'kib yuborishida ayblab yaqin vaqtlargacha qirib yuborilayotgan edi. Keyinchalik juda aniq tekshirishlar va izlanishlar natijasida shu narsa aniqlandiki, to'tiqush o'zi uzib tushirgan urug'ning ma'lum qisminigina eb, qolgani yana unib chiqar ekan. Shuningdek to'tiqush tushirgan qarag'ay urug'ini kam mehnat sarflab terib olish

---

<sup>30</sup> Hamidov G'. "Farg'ona vodiysining dorivor o'simliklari, ulardan samarali foydalanish va muhofaza qilish"

<sup>31</sup> Тошпулатова Д.С., Халимова М.Р. "Проблема исчезновения редких видов растений". «Будущее науки-2017» 3-том

mumkin ekan. Shundan keyingina qora to'tiqushni foydali qush sifatida himoya qilishga kirishildi.

Biologik xilma-xillikning qisqarishi asosan insoniyat faoliyati natijasi bo'lib, uning qisqarishi iqtisodiy rivojlanishga jiddiy xavfni yuzaga keltiradi. So'nggi 20 yil ichida qabul qilinayotgan samarali chora-tadbirlarga qaramasdan tabiiy yashash muhitning buzilishi, tabiat resurslaridan xaddan ortiq foydalanish, suv va yerning ifloslanishi bilan bog'liq omillar natijasida biologik xilma-xillik qisqarib bormoqda. O'z navbatida ta'kidlash joizki, tabiat resurslari hayotiy ta'minot tizimimizning asosini tashkil etadi. Biologik xilma-xillikni saqlash hamda muhofaza qilish uchun chetga surib bo'lmamas amaliy tadbirlarni amalga oshirish zarur.

#### **Foydalinilgan adabiyotlar:**

1. Hamidov G'. "Farg'ona vodiysining dorivor o'simliklari, ulardan samarali foydalanish va muhofaza qilish"
2. Тошпулатова Д.С., Халимова М.Р. "Проблема исчезновения редких видов растений". «Будущее науки-2017» 3-том

## COMPONENTS OF THE SYNERGISTIC EFFECT OF MECHATRONIC SYSTEMS AND ROBOTICS IN MECHANICAL ENGINEERING

*Avliyakov Khayot Nodirovich*

*Probationer Teacher Bukhara Engineering-Technological Institute*

**Abstract.** The article is devoted to the analysis of the components of the synergistic effect of mechatronic systems and robotics in machine-building production.

**Keywords.** Mechatronics, robotics, mechanical engineering, synergistic effect

One of the features of intensive scientific and technological progress is the emergence of new types of sciences at the junction of known 2, 3 or more sciences, mechatronics is one of them. The term mechatronics (from MECHANICS and ELECTRONICS), as a new scientific direction of science and technology, was introduced by the Japanese company Yakowa Electric in 1969 and registered as a trademark in 1972. In 1985, the book "Mechatronics" was published in Japan, the authors of which clearly identified three main components of mechatronic devices:

The first is the executive bodies that perform functional technological tasks;

The second is the measuring and information system, which collects the necessary information about the course of the technological process, the operating modes of the drives and the external environment (if necessary);

The third is a set of information processing elements based on computer technology.

The rapid development of this area of science and technology is caused by the increased market requirements for consumer properties and quality of engineering products. The modern requirements for the functional and technical indicators of modules and machines should primarily include:

- performance by machines and systems of qualitatively new service and functional tasks;
- ultra-high speeds of movement of the final link of the machine - its working body, which determines a new level of productivity of technological complexes;
- ultra-precise movements of modules in order to implement new precision technologies up to micro- and nanotechnologies;
- compactness of modules and moving systems, miniaturization of structures in micromachines;
- new kinematic structures and constructive layouts of multi-coordinate machines;
- intellectual behavior of systems operating in changing and uncertain external environments;
- execution of spatial movements along curvilinear trajectories and implementation of complex laws of movement in time.

The state educational standard of the Russian Federation in the field of "Mechanics and Robotics" provides the following definition: mechatronics is a field of science and technology based on the synergistic combination of precision mechanics units with electronic, electrical and computer components that ensure the design and production of high-quality modules, systems and machines with intelligent control and functional achievements.

From this it follows that the goal of mechatronics as a field of science and technology is the development of fundamentally new functional units, assemblies, modules that implement motor functions, which are used as the basis for mobile intelligent machines and systems.

At the same time, the main methodological idea is the synergistic unification of previously substantiated scientific and technical fields: mechanics, electronics, computer control.

The task of mechatronics as a science is to integrate the knowledge of these separate sciences with the purposefulness of achieving a synergistic effect. Therefore, it is no coincidence that the most common graphic symbol of

mechatronics has become three intersecting circles placed in the outer shell Production - Management - Market requirements.

*Synergistic combination of actuators with electronic, electromechanical, computer and software components are mechatronic objects, which are divided into the following groups: mechatronic units, mechatronic modules, mechatronic units, mechatronic systems.*

*A mechatronic assembly is a non-unified assembly unit containing some components of a mechatronic object (for example, various mechanical transmissions with position and force sensors).*

*A mechatronic module is the main unit of a mechatronic system, a unified mechatronic object that serves to implement one of the functions of a mechatronic system (for example, a mechatronic tool feed module). In general, it is a unified functional part of the mechatronic system, structurally designed as an independent product. Methods for building integrated mechatronic modules include: exclusion of intermediate converters and interfaces, combining elements in a single package, transferring the functional load to the intelligent devices of the mechatronic module. They are based on the synergetic integration of the structural elements of mechatronic devices.*

*A mechatronic assembly is a collection of mechatronic modules designed to perform the same type of functions (for example, a multi-axis measuring machine).*

*Using the method of synergistic association in the design of mechatronic objects, a synergistic effect is achieved.*

*The term synergetics (from the Greek Synerges - jointly acting) was first introduced into science by G. Haken in 1969.*

It is symbolic that the terms mechatronics and synergetics appeared at the same time, in 1969. The theory and practice of mechatronics shows that these two terms are inseparable, since the most important integrated indicator of mechatronic systems is their synergistic effect.

Synergetics is an interdisciplinary area of scientific research, the task of which is to study natural phenomena and processes based on the principles of self-organization of complex systems.

The systems that make up the subject of synergetics research can be of a different nature (physical, social, technical, etc.).

With the synergistic integration of the integration of the elements of the system, the achieved total synergistic effect exceeds the effects of the action of each separately. To obtain such an effect, the components of the mechatronic system must be merged inextricably and organically. It is the fundamental novelty and synergistic effect of the new generation of machines that causes a rapidly growing interest in mechatronic methods and technologies throughout the world.


The synergistic effect is formed during the control of technological objects of a complex system as a set of effects obtained as a result of overlay and synchronization in space and time: the effect of the use of electromechanical components of the control object, the effect of the use of new power electronics and microprocessor technology, the effect of information technology, the effect of the application intelligent control technologies. Thus, mechatronic systems provide a new quality: completeness of mechatronic modules due to miniaturization and shortening of kinematic targets, increased power density and improved dynamic characteristics due to the exclusion of multi-stage energy and information conversion, high quality of execution of complex and precise movements due to the use of adaptive and intelligent control methods, increasing the reliability of the system as a whole by reducing the proportion of mechanical subsystems, monitoring the state of all elements of the system directly during the implementation of the technological process, etc.

One of the important areas of mechatronics is robotics. At the same time, it should be noted that historically mechatronics develops mainly on the basis of robotics. In accordance with the state educational standard of the Russian Federation: “Robotics is a field of science and technology focused on the creation of robots and robotic systems designed to automate complex technological processes and operations, including those performed in non-deterministic conditions, to replace a person when performing heavy, tedious and hazardous work. The creation of robotics is demanded by the conditions of intensive scientific and technological progress, which is characterized by a sharp reduction in the time for introducing



scientific achievements into production, a rapid change in materials, technologies, and machine designs. The requirements of these production conditions are met only by multifunctional, easily reconfigured robotic systems.

It should be noted that in the creation of robotics, the implementation of mechatronic technologies, an important role is played by highly qualified engineering and technical workers of machine-building production, who are distinguished by high professionalism and intuition. Intuition is based on knowledge, skills and abilities, qualifications and experience, competence and professionalism (Fig. 1).



**Fig.1. Graphic representation of the prerequisites for the formation of intuition of engineers and researchers.**

Intuition is a necessary component of professional creativity, the evaluation criterion is the “standard” for assessing the level of professionalism of modern engineers and researchers. No wonder A. Eishtein said that "only intuition is in essence the true value."

Robotics, which uses mechatronic technologies, certainly has a synergistic effect.

Firstly, a robot in one machine combines the performance of all three functions of the intellect in the process of its labor activity, including: perception of the external environment with the help of "sense organs" (technical means of sensing the robot), "thinking" and decision making (microprocessor "brain" of the robot ),

active influence on the external environment with their own hands (robot manipulators).

- replacing the original system with an equivalent one, you can "try to see" the property of coordinates of the system solutions (or the symmetry of  $x_0$  and  $y_0$ , or the coincidence of  $x_0$  and  $y_0$ , etc.);
- having found a specific property of the solution, "try" to find it and reach the

condition for calculating the parameter values;

- having calculated the values of the parameter, it is imperative to check whether the system of inequalities has a unique solution for the found values of the parameter.

## II. Solution.

We replace this system of inequalities with an equivalent one:

$$\begin{cases} (y - x)^2 + x - 3y + a \leq 0 \\ (x + y)^2 - x - 3y + a \leq 0 \end{cases} \quad (7)$$

2) Note that if the pair  $(x_0; y_0)$  is a solution to this system, then the pair  $(-x_0; y_0)$  is also its solution. And since it is required to find all  $a$  for which the system of inequalities has a unique solution, then  $x_0 = -x_0$  or  $x_0 = 0$ . We have obtained the necessary condition for the original system to have a unique solution.

3) We use the obtained result  $x = 0$  and solve the inequality to which system (7) is equivalent:

$$y^2 - 3y + a \leq 0.$$

This inequality will have a unique solution in the case when the discriminant of the square trinomial of its left side is equal to zero:

$$D = 9 - 4a = 0; a = \frac{9}{4}.$$

4) The resulting equality  $a = \frac{9}{4}$  is a necessary condition that the parameter  $a$  must satisfy for the original system to have a unique solution.

5) Let us check whether for  $a = \frac{9}{4}$  the system has a unique solution:

$$\begin{cases} 4(y - x)^2 + 4x - 12y + 9 \leq 0 \\ 4(x + y)^2 - 4x - 12y + 9 \leq 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 4y^2 - 8xy + 4x^2 + 4x - 12y + 9 \leq 0 \\ 4x^2 + 8xy + 4y^2 + 4x - 12y + 9 \leq 0 \end{cases}$$

Using the addition method, we get:

$$8y^2 + 8x^2 - 24y + 18 \leq 0 \quad \text{or} \quad 4y^2 - 12y + 9 + 4x^2 \leq 0 \quad \text{or} \quad (2y - 3)^2 + 4x^2 \leq 0, \text{ hence } (2y - 3)^2 + 4x^2 = 0 \text{ or}$$

$$\begin{cases} 2y - 3 = 0, \\ x = 0; \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = \frac{3}{2}, \\ x = 0. \end{cases}$$

Hence, indeed, the system of inequalities has a unique solution for  $a = \frac{9}{4}$ .

Answer:  $a = \frac{9}{4}$ .

### III. Analysis of the solution:

- to take for the future the method of analyzing the type and characteristics of a given task by recording it;

- do not forget to check the parameter values found in the solution to fulfill the task requirement (have a single solution, two different solutions, etc.)

**Problem 6.** For what values of the parameter a and b the system of equations

$$\begin{cases} x^2 + y^2 + bxy = 1, \\ x^2 - y^2 + a(x + y) = x - y + a \end{cases}$$

has at least five solutions.

#### I. Analysis of the type of task and search for a solution plan:

- a system of two equations of the 2nd degree with two unknowns is given;  
 - the second equation has the feature that after transferring the terms on the right side of the equation, you can factor the resulting expression on the left side;

- the use of the condition of equality of the product to zero applied to the second equation makes it possible to replace the original system with a set of systems of two equations in which one of the equations will be linear;

- applying the method of substitution to the resulting set of systems, we will be able to find the answer to the requirement of the problem.

#### II. Solution.

We represent the second equation of the system in the form of a set of linear equations, performing a series of equivalent transformations:

$$(x - y)(x + y) + a(x + y) - (x - y + a) = 0$$

$$(x + y)(x - y + a) - (x - y + a) = 0$$

$$(x + y - 1)(x - y + a) = 0$$

$$(x + y - 1) = 0 \text{ or } (x - y + a) = 0.$$

and then this system splits into a set of two systems:

$$\begin{cases} x + y - 1 = 0, \\ x^2 + y^2 + bxy = 1; \end{cases} \quad (8)$$

$$\begin{cases} x - y + a = 0, \\ x^2 + y^2 + bxy = 1; \end{cases} \quad (9)$$

2) Each of the obtained systems of equations can have either at most two or an infinite set of solutions, which means that the original system can have at least five solutions if and only if at least one of the obtained systems has an infinite set of solutions.

Let us solve each of the aggregate systems by the substitution method.

$$(8) \begin{cases} y = 1 - x, \\ x^2 + 1 - 2x + x^2 + bx(1 - x) - 1 = 0 \end{cases} \quad (10)$$

$$(10): 2x^2 - bx^2 - 2x + bx = 0; (2 - b)x^2 - (2 - b)x = 0; (2 - b)x(x - 1) = 0$$

a)  $\begin{cases} b = 2, \\ 0 = 0 \end{cases}$  hence, if  $b = 2$ , then equation (10) of system (8) has an infinite set of solutions, i.e. solutions of at least five.

b)  $\begin{cases} b \neq 2, \\ x = 0, x = 1 \end{cases}$  therefore, if  $b \neq 2$ , then equation (10) of system (8) has at most two solutions.

Let us solve the second system of the set of systems of equations, which is equivalent to the original system.

To solve system (9), we use the substitution method:

$$(9) \begin{cases} y = x + a, \\ x^2 + x^2 + 2ax + a^2 + bx(x + a) = 1 \end{cases} \quad (11)$$

$$(11): (2 + b)x^2 + a(2 + b)x + a^2 - 1 = 0$$

a)  $\begin{cases} b = -2, \\ a^2 - 1 = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} b = -2, \\ a = \pm 1 \end{cases}$  hence, if  $b = -2, a = \pm 1$  the equation (11) has an infinite set of solutions, i.e. solutions at least 5.

If  $b \neq 2$ , then the quadratic equation (11) has at most two solutions.

Let us generalize the results obtained: this system has at least five solutions for  $b = 2, a \in \mathbb{R}$  and  $b = -2, a = \pm 1$ .

### III. Analysis of the solution:

- factorization of one of the equations of the system simplified the form of the system and facilitated the solution of the system;

- understanding the requirements of the problem allowed us to make a conclusion about the conditions under which the required number of solutions can

be;

- the formulation of the task requirement made it possible not to find the value  $x$  and  $y$ .

## REFERENCES

1. Dalinger, V.A.(2012) Tasks with parameters: a tutorial. - Omsk: Publishing house of LLC "Amphora", (in russian).
2. Husanov, F.O., Sharipova S.F., Taylakov M.N. (2020). For future math teachers teach analytical solution of parametric inequalities, Physics, mathematics and informatics, Tashkent, N 3, (pages 9-15), (in uzbek).
3. Husanov F.O., Razakova N.K. (2019). Analytical solution of parametric equations, Physics, mathematics and informatics, Tashkent, N 4, (pages 89-96), (in uzbek).
4. Vysotsky, P.I. Zakharov, V.S., Semenov and others (2013). USE 2013. Mathematics. 30 variants of typical test tasks and 800 tasks of part 2 (C). - M.: Publishing house "Exam" (in russian).



## HOZIRGI ZAMON SHE'RIYATIDA OBRAZLILIK

*Tajibayeva Munajat Farxadovna*

*Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani 59-umumta'lim maktabining*

*Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Hozirgi zamon o'zbek she'riyatida obrazlilik masalasini chuqur tadqiq etish, xususan, Humoyun Akbar, Minhojiddin Mirzo, Iqbol Mirzo ijodida obrazlar tabiati va o'ziga xosliklarini o'rganish ushbu tadqiqotning asosiy o'rganish predmetini tashkil qiladi. Shuningdek maqolada badiiy adabiyotda obrazlilik va uning namoyon bo'lish shakllarini muammosi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar.** Humoyun Akbar, Minhojiddin Mirzo, Iqbol Mirzo, obrazlilik, badiiylik, tabiat, zamonaviy she'riyat.

**Kirish.** XX asr o'zbek adabiyotida obrazlilik masalasi adabiyotimizning nasr sohasida ancha chuqur o'rganilgan desak, mubolag'aga yo'l qo'ymagan bo'lamiz. She'riyatda ham Q.Yo'ldoshev<sup>36</sup>, U.Hamdam<sup>37</sup>, D.Qur'onov<sup>38</sup>, A.Ulug'ov<sup>39</sup> kabi adabiy munaqqidlarning faoliyati tahsinga sazovor. Biroq biz tadqiq etishni nazarda tutgan ijodkorlar faoliyati ya'ni Humoyun Akbar, Minhojiddin Mirzo, Halima Ahmedova, Iqbol Mirzo kabi shoirlar ijodi adabiyotimiz tarixida hali chuqur o'rganilmagan. Ayni shu sababdan ham mazkur shoirlar ijodida bo'y ko'rsatgan o'ziga xos ma'no tovlanishlarini kashf etish va chuqur tadqiq etishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Tadqiqotimizda tavsifiy, qiyosiy tahlil metodlaridan samarali foydalanishga harakat qildik. Bundan tashqari obyekt sifatida tanlangan ijodkorlarning hayoti va faoliyati, dunyoqarashidan kelib chiqib ijodida aks etgan obrazlar tabiatini tahlil qilishimiz uchun biografik, sotsiologik metodlar ham samarali tahlil metodlari hisoblanadi.

<sup>36</sup> Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. Toshkent – 2006.

<sup>37</sup> Ulug'bek Hamdam. Yangi o'zbek she'riyati. Toshkent: "Adib" nashriyoti, 2012.

<sup>38</sup> Qur'onov D. Mutolaa va idrok mashqlari. Toshkent: "Akademnashr" – 2013.

<sup>39</sup> Ulug'ov A. Qalb qandili. Toshkent – 2012.

**Asosiy qism.**

Iste'dodli shoir Minhojiddin Mirzoning bitiklarida kuzatuv va his, taassurot va anglash, ya'ni zohir ila botin uyqashib keladi. Yana bir tomoni, mushohada ila tuyg'u birikib ruh mohiyatiga aylanadi. Hislar bag'ridan o'sadi Vatan degan yuksaklik. Mushohadalar vazminligi tuyg'ular tug'yoniga singadi, tuyg'ular tug'yoni mushohadalar vazminligiga ko'chadi.

Murod – fikrlashga undov. O'ylashga undov. Mushohadalar yo'sini bilan, tuyg'ular yo'sini bilan inson deyilmish "sir"ni anglash qanchalar mushkul ekanligini, uni o'z-o'ziga qayrilib qarashga, o'zini bilishga undaydi:

Mushkulotlar ko'pdir dunyoda,

Yechar bir kun barin intiq jon.

Ammo ochun oldida mangu

Jumboq bo'lib qoladi inson.

Minhojiddin Mirzo bitiklarida yana bir sifat hurlik olami – ruhning pokligi hamda beg'uborligiga ishora aylash sirasida namoyon bo'ladi.

Ruhinga pok ma'volar kerak.

Bu – shoir ruhining sog'inch tarzi.

She'riyat borliqning go'zalligiga munosabat yo'sinida ko'ngillarda mehr va muhabbat, oqibat va e'tiqod fazilatlarini paydo qiladi. Borliqdan olingan ta'sirlar va munosabatlar orqali ruhiyatga ishora aylaydi. Minhohiddin Mirzo qizg'aldoq, yaproq, bahor, yulduz, kuz, chechak, xazon singari tabiat vositalarini yurakning tashbehlariga ko'chiradiki, bular aksariyat takrorlanib kelgan hoida yangi bir his shakliga kiradi. Ayniqsa, qizg'aldoq sifatini shoir turfa his mohiyatiga yo'g'iradi:

Kun nuridan yorishadi jarliklar.

Qizg'aldoqlar yuz ochadi shodlanib.

Shoirning ko'ngli ana shunday umidlar bilan yorug'. Ruhi ana shunday hislar bilan charog'on. Visoldan xabardir bu umidlar. Diydorga intizordir bu hislar.

Xalqimizning xuddi Minhojiddin Mirzo kabi ardoqli shoirlaridan biri Iqbol Mirzo mustaqillik davri o'zbek she'riyatining yorqin namoyondalaridan biri hisoblanadi. She'rlaridagi o'ziga xos ohanrabo har qanday she'riyat ixlosmandini o'ziga jalb eta oladi. Ayni paytda ijodkor qalamiga xos xalqonalik, soddalik quyma [www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

satrlarning hech bir qiyinchiliksiz kitobxon ongi-shuuriga yod bo‘lib qolishini ta‘minlaydi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, shoir she‘rlarining shirali til va uslubidan tashqari, ijodkorning tasvir mahorati ham Iqbol Mirzo nomini butun O‘zbekistonga yoydi va yoymoqda. Xususan, “Go‘yo”, “Bir kun”, “Birinchi sevgi”, “Muhabbat”, “Bir to‘p kabutar”, “Ariqlar yuzida”, “Kuz” kabi she‘rlarida akslangan betakror tabiat tashbehlari fikrimizning yorqin dalilidir. Iqbol Mirzo she‘rlarining har satrida tabiatga oshiq, vataniga sodiq, qalbi tog‘ yuksakliklari kabi mehr-u muhabbatga to‘liq inson qiyofasi gavdalanadi. Lirik qahramon goh muhabbatni tabiat talqinida, goh tabiatni muhabbat talqinida tasvirlaydi. Uning she‘rlarida oddiy qishloq odamlariga xos jaydarilik, shu bilan birga, bir oz tavakkalchilik, to‘porilik xususiyatlari yaqqol aks etadi. Ma‘lumki, poetik mushohadaning mazmundorligi va tiniqligini belgilovchi mezon shoirning badiiy mahoratidir. O‘zbek shoirlari tabiatnomasida an‘anaviy tashbehlarni yangilashga urinish, yalang‘och, quruq so‘z-iboralardan qochishga intilish kuchli. Chunki «she‘riyat biror fikrning shunchaki vaznga solingan quruq ifodasi emas. Asarga asos qilib olingan fikr har qancha teran, salmoqli, umumlashtiruvchi bo‘lmasin, agar u yalang‘och va quruq ifodalansa, she‘r tug‘ilmaydi. Haqiqiy she‘r nimasi bilandir musiqaga o‘xshaydi – unda mazmun teranligi bilan birga kitobxon qalbiga ta‘sir ko‘rsata oladigan yuksak nafosat bo‘lishi kerak». Ana shu shoirona-emotsional iqtidor sohiblari hech kimning xayoligi kelmagan, kutilmagan poetik xulosalar chiqaradilarki, dastlab erish tuyulgan bu misralar mag‘zini chaqsangiz unda olam-olam ma‘no borligiga amin bo‘lasiz. Shu ma‘noda Iqbol Mirzoning quyidagi misralariga nazar tashlaylik:

Bir daraxtni ko‘rdim – mag‘rur, barkamol,

Istagan faslida gullaydiganday.

Pisandiga yaqin kelmas, qor, shamol:

Durkun bargi mangu so‘lmaydiganday<sup>40</sup>.

She‘rda insonlarga xos manmanlik, xudbinlik kabi illatlar “istagan faslida gullaydigan”, “mag‘rur, barkamol”, “qor, shamolni ham pisand qilmaydigan”, “durkun bargi mangu so‘lmaydigan” - daraxtga qiyoslanadi. Tabiat tasviri orqali

<sup>40</sup> Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. Toshkent: “Sharq” – 2007. 16-bet.

asosiy fikrni yoritib berish ko‘plab ijodkorlarning asosiy ijod mahsulini tashkil etadi, biroq kutilmagan tashbehlar, betakror ifodalar, yorqin obrazli tasvirlar har qanday ijodkorga ham nasib etavermaydigan haqiqiy iste’dod sohibigagina tegishli bo‘lishi mumkin. Hozirgi zamon o‘zbek she’riyatida Humoyun Akbar ijodi ham alohida ahamiyatga ega. Uning she’rlari 80-yillardan buyon she’riyat ixlosmandlarini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Shoirning asosiy yutug‘i samimiyatdir, buningsiz o‘quvchi qalbini zabt etish mumkin emas. 2003-yili Qarshi shahrida maktab o‘quvchilarining “Umid nihollari” sport o‘yinlari ishtirokchilari bilan uchrashuvda Humoyun Akbar “Nasaf qal’asi” she’ri bilan muxlislarning e’tiborini qozongan. Bu she’rda shunday satrlar bor:

Alpomishday bag‘ring kezaman,

Bobolarning bordir daldasi.

Momolarning mehrin sezaman –

Nafasingdan Nasaf qal’asi.

Barchamizni ham xayolga toldiradigan dunyoni anglash tuyg‘usi, tarix haqiqatiga, hayot ziddiyatlarining mohiyatiga yetish istagi shoir ijodiga xos xususiyatlardan. Inson yuragining teranligini anglash va shoir sifatida o‘quvchiga anglati olish istagining ustuvorligi Humoyun she’rlarining o‘ziga xos tamoyillaridandir. Bu she’rlarning yurak amri bilan “yozmasdan turolmaslikning dardidan” tug‘ilganligi seziladi.

Humoyun tabiatan lirik shoir. Uning she’rlari tuyg‘ular bulog‘iga chayib olingandek o‘ziga xos ifor taratib turadi. Tabiat manzaralarini so‘z bilan aynan chizar, uning asl qiyofasini o‘tkir nigoh, zehn bilan tasvirlarkan o‘ziga xos ma’nolar kashf etish orqali bizga go‘zal she’rlar tuhfa etadi.

Bu tuyg‘ular bir lahzalikday, shoir ularni hayot kengliklari ichra anglay biladi va tuyg‘ular suratini chiza oladi.

Fikrni qisqa, ortiqcha izohlarsiz ifodalashga, mavzuning, voqea-hodisaning mohiyatini o‘quvchi yetkazishga intiladi. Mavzular mundarijasi keng, ruhning mohirona tasvirlari, ko‘hna, azaliy va bugunning shirin tashvishlari shoir asarlariga qanot bag‘ishlaydi.

**Natija.** Umuman, hozirgi zamon she'riyatida inson qalbining bukilmis torlari, eng inja nozikliklari-yu, eng katta iztiroblariga qadar o'z ifodasini topmoqda. Bunda har bir shoir ijodida yaqqol ko'zga tashlanuvchi faol obrazlar tizimiga ham, yoki kamdan kam uchraydigan kamyob obrazlar tizimiga ham duch kelishimiz mumkin. O'rganishni lozim topgan ijodkorlarimiz – Minhojiddin Mirzo, Iqbol Mirzo ijodini tutashtirib turuvchi jihatlar ham, ularni bir-biridan tubdan farqlantirib turuvchi tafovutlar ham aynan shu obrazlar sistemasida yaqqol ko'rinadi. Masalan, Iqbol Mirzo ijodida xalqona ruh, soddalik ufuhib turgan turfa mavzudagi she'rlar ko'plab uchraydi. Biroq ularning hammasini birlashtirib turuvchi yagona jihat bu – hayotga muhabbatdir. Xuddi shu fikrlarni Minhojiddin Mirzo ijodiga nisbatan ham aytishimiz mumkin. Buni ijodkorlarning obrazlar tizimidagi differensiallik deb baholaydigan bo'lsak, ularning muhabbat va vatan mavzuidagi she'rlarini va shunga doir obrazlar silsilasini mualliflar o'rtasidagi mushtaraklikka misol keltirishimiz mumkin.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, hozirgi zamon she'riyati shu kungacha bo'lgan davr tarixida o'zining obrazlar tizimidagi yangilanishlari bilan alohida o'rin tutadi. Istiqlol davrida yurtimizda qanchalar yo'l-u ko'priklar solingani yanglig', nech aziz-u avliyolarning yotar makonlari obod etilib, yana qanchalar muhtasham muazzam binolar tiklangani misol adabiyotimiz, she'riyatimizda ham bu yillar nurli izlar qoldirdi. Ular orasida o'z so'zi, o'z ovozigacha ega Minhojiddin Mirzo, Humoyun Akbar, Iqbol Mirzoday xalqimizning suyukli shoir va shoiralari borligi bizga ulkan faxr va g'urur bag'ishlaydi. Ularning ijodini o'rganish, mustaqillik davri adabiyotiga, istiqloq davri she'riyatiga adabiy tahlil nuqtayi-nazaridan yondashish orqali o'rganganlarimiz va kuzatganlarimiz hozircha shular bo'ldi. Bundan ham chuqurroq tahlillarimizni keyingi tadqiqotlarimizda davom ettirishga umid bildiramiz.

#### **Adabiyotlar:**

1. Humoyun Akbar. Intihosiz navolar. – Toshkent: Muharrir, 2012.
2. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent: Sharq, 2007.
3. Minhojiddin Mirzo. Visol xabari. – Toshkent, 2003
4. Sharafiddinov O. Zamon. Qalb, poeziya. – Toshkent, 1962.
5. Sharafiddinov O. Lirikha haqida mushohadalar. – Toshkent, 1956.

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA RAHBAR FAOLIYATI VA KREATIV TARBIYACHILAR MUHITINI YARATISH

*Toshkent shahar Chilonzor tuman 407-son*

*Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori*

*Sodiqova Feruza Qudratovna*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada "Maktabgacha ta'lim tashkilotida rahbar faoliyati va kreativ tarbiyachilar muhitini yaratish" haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Tarbiyachi, kompetentlik, kompetensiya, individ, ijtimoiy zamonaviy tarbiyachi

Maktabgacha ta'lim bolaga ijtimoiy muhit tomonidan ta'sir ko'rsatadigan, malakali shaxslar tomonidan ta'lim-tarbiya faoliyatni samarali tashkil etadigan ilk bilim dargohi hisoblanadi. Har bir bola ruhiyati o'ziga xos bo'lgan murakkab konfiguratsiyaga ega, shu bilan unga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'siri ham juda xilma-xildir. Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi.

Yosh avlodni shaxs sifatida shakllanishida oiladan tashqari, uzluksiz ta'limning ham o'z o'rnini hamda vazifalari bor. Tarbiyachi yosh avlodni halqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va fahrli shu bilan birga ma'suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy etukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun halq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o'z maxoratini doimo faollashtirib bori shva hamkasblarning ishdagi o'sishga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka xayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo'lishi kerak. Avvalo rahbar qanday bo'lish kerak

rahbarning vazifalari, rahbar tashkil etadigan jamoani shakllantirishdagi yo'l-yo'riqlarni batafsil bilmog'i kerak. Quyida biz rahbar faoliyati bilan tanishmiz.

Ta'lim tashkilotining pedagogik faoliyatini boshqarish ta'lim tashkilotining faoliyat xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyatidir.

*Rahbar kompetensiyasining shakllanishi besh bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:*

*Rahbar kompetensiyasining shakllanish bosqichlari:*

- Qobiliyatni aniqlash;
- Tarbiyalash va shakllantirish;
- Chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish);
- Ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish);
- Rahbarlik cho'qqisi.

Pedagog – tarbiyachi shaxsiga qo'yilgan talablar: Bolalar bog'chasida bolalar bilan olib boriladigan ta'lim va tarbiya ishning butun mazmunini tarbiya vazifalari bilan belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berishning maqsad va vazifalari: 1) bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish 2) ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilishi va ehtiyojlarini qondirish: 3) milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik g'oyalari sodiq holda voyaga etib borishini ta'minlash: 4) ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'limiga tayyorlashdan iborat. Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, bigalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbga sadoqatliligi, goyaviy e'tikodliligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqat o'kituvchi – tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turiladi. Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga [www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi kerak. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi kerak. Kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi lozim. Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib, axborot almashtirib turishi kerak. Pedagog bolalarga nisbatan hayrihoxlik munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, hafa bo'lsa ovuntara olishi kerak. Kun tartibida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak. Pedagog – tarbiyachi shaxsiga quyiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikkasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasi chuqur bilishi bolalarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Bu pedagog – tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muxim fazilatlaridan talablaridan biri bolalarni sevish ularning xayoti bilan qiziqish har bir shaxsni xurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimni bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar kilaoladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi pedagog bo'la oladi. Bolaga befarq uning kelajagi va qiziqmaydigan tarbiyachilik kasbiga loqayd odam haqiqiy pedagog – tarbiyachi bo'la olmaydi. Bolalarni sevish – pedagogning murakkab mehnatini jozibali va engil qiladi. O'qituvchi tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga xurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagoga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarga chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zaxarash, T. O'qituvchilar malakasini oshirish mazmunining zamonaviy yangilanishi / T. Zaxarash // Maktabgacha ta'lim - 2011.-№ 12. S.74
2. Svatalova, T. O'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini baholash bo'yicha qo'llanma / T. Svatalova // Maktabgacha ta'lim - 2011.-№1. S.95.
3. Xoxlova, O.A. O'qituvchilarning kasbiy vakolatlarini shakllantirish / O.A. Xoxlova // Katta o'qituvchining qo'llanmasi - 2010. - № 3.- B.4.



## ABDULLA ORIPOV SHE`RLARIDA KOMIL INSON XUSUSIYATLARI

*Azimov Sarvar Ne'matulla o'g'li*

*Toshkent "Irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash  
muhandislari instituti" Milliy Tadqiqot Universiteti Hidromelioratsiya  
fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annototsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'riyatida keng qo'llaniladigan folklorizmlar va uning ahamiyati komil inson xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Shoir ijodining xalq jonli tiliga yaqinligi tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** Abdulla Oripov, folklorizmlar, xalq og'zaki ijodiyoti, iste'dod, tasviriy vositalar, badiiy matn, xalqchillik, she'riyat, ifoda uslubi.

She`r - qalbning eng nozik va eng chuqur qatlamlaridansizibchiqadigan buloq suvidek pokiza tuyg`u. Tomchida olam ketganidek she`rdashoir ruhiyatidagi inju-marvaridlar jilolanadi. Inju esa o`z bag`rida yurtning, xalqning sevinchlari, dard-u quvonchlari, orzu-armonlari natijasida paydo bo`ladi.

So`z ahlining yuksak maqomiga ko`tarila olgan ijodkorlaridan biri Abdulla Oripovdir. Shoir hech bir zamonda eskirmaydigan she`rlar yozdi. Uning asosiy yutug`i mumtoz adabiyotimizni ham, zamonaviy adabiyotni ham teran bilishida, ijodida milliy adabiyotimizning yuksak maqomini taminlagan yutuqlardan samarali foydalana olishidadir. Chingiz Aytmatovning shoir haqidagi fikrlari buning yorqin isbotidir: "Katta shoir hamisha o`z vaqtida maydonga keladi, u- hamisha tarixiy. Zotan, katta shoir o`z xalqining ovozi, uning orzu-umidlari va inson qalbi iztiroblarining ifodachisidir. Biroq, eng asosiysi, u-o`z davrining hakami va kuychisi, u-jarchi va faylasuf, u-so`z sehgari va uzlatga chekingan mutafakkir darvesh. Bularning bari unga qalb izhorini hammaga birday tushunarli, sevimli va shu bilan birga, ko`tarinki, teran ma`nolar mohiyatini ifodalash uchun ato etilgan. Shu bois shoirning so`zlaridan zamondoshlari ham, kelgusi avlodlar ham faxrlanib yuradilar. Abdulla Oripov menga XXI asrga qadam qo`ygan

[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

davrlarimizning buyuk madaniy ahamiyatga molik ana shunday shoiri bo`lib gavidalanadi”[1].

Shoirning mahorati aruzda ham, barmoqda ham birday namoyon bo`lgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Abdulla Oripov ijod dunyosi rang –barang bo`lib, she`rlarining ma`no ko`lami ham juda katta. Shoirning eng yangi she`rlari ham bu fikrni tasdiqlaydi. Istiqlol shoir ijodida yangi bosqichni boshlab berdi desak, also mubolag`a bo`lmaydi. Abdulla Oripov she`riyati mudom mazmunan teranligi, shaklan mukammalligi bilan she`riyat muxlislarini hayratga solib kelayotir. Diniy-axloqiy mavzularga oid she`rlari falsafiy teranligi bilan ajralib turadi.

Diniy- axloqiy mavzularga bag`ishlangan she`rlar mustaqillik davri o`zbek adabiyoti namunalarida juda ko`p uchraydi. Qur`oni karim, Hadisi –sharif, diniy tasavvufiy ruhdagi asarlardan ta`sirlanib hadislarga murojaat qilish alohida yo`nalishga aylandi. Ushbu yo`nalishda turkum she`rlar yaratish tamoyili kuchaydi. Abdulla Oripovning “Haj daftari” turkumini, Sirojiddin Sayyidning “Qirq hadis”, Shukur Qurbonning “Unutmadi adolat rasmin“ she`riy turkumlarini misol qilish mumkin[2]. Shu bilan birgalikda lirik dostonlar ham yaratildi. Tohir Qahhorning “Muhammad bilan suhbat” lirik dostonini, Asqar Mahkamning “Naqshbandiya” dostoni bilan “Tavajjuh“, ”Ishq” dostonlarini namuna sifatida keltirish mumkin. Abdulla Oripovning “Haj daftari“, ya`ni “Hikmat sadolari “ nomli ellik hadisdan iborat turkumi shoirning haj safariga yo`l olishi munosabati bilan yuzaga kelgan. “Haj daftari“ turkum she`rlari alohida falsafiy tahlilni talab etadi. Abdulla Oripov ijodi doimo adabiyotshunoslar diqqat markazida bo`lib, shoir asarlari turli ilmiy ishlarning yaratilishiga sabab bo`lgan. Xususan, “Haj daftari”dagi she`rlarning tahlilini N.Jabborovning “Zamon, mezon, she`riyat ”,

N.Rahimjonovning “Mustaqillik davri o`zbek she`riyati ”, Ulug`bek Hamdam “Yangi o`zbek she`riyati ”, Bahodir Karimning “Ruhiyat alifbosi” asarlarida kuzatishimiz mumkin. Yuqoridagi ijodkorlar “Haj daftari”dagi she`rlarning g`oyaviy, badiiy, diniy xususiyatlarini o`z asarlarida she`rlardan namunalar keltirish orqali yoritganlar. Abdulla Oripovning “Haj daftari” asari o`zida komil insonga xos

boʻlgan xususiyatlarni mujassamlashtirganligi bilan ham eʼtiborga moyil. Asar muqaddimasida shoir Kaʼbatullohga borganida, tilovat qilish barobarida baytlar quyilib kelganligini yozadi. Bundan koʻrinib turibdiki, shoirdagi ilohiy ishq, yurakdagi eʼtiqod quyma satrlar quyilib kelishiga sabab boʻlgan. Shoirning “Haj daftari” turkumidan oʻrin olgan sheʼrlarida diniy tasavvufiy ruh ufurib turadi. Ushbu turkumdan oʻrin olgan “Hasrat” sheʼrida shoirning qalb iztiroblari, komil insonga xos xususiyatlar tasvirlanadi. Ollohning buyukligi, uning tavba qilgan bandasini kechirishini, gunohkor bandalar tavba qilganlaridan keyin ham yana gunoh ishlarni qilishlaridan shoirning qalbi ogʻrinadi:

Qochgan ham, quvgan ham Allohim deydi

Qochgan ham, quvgan ham emasman do'stim.

Mening iztirobim shul edi,

Insondan o'zgani demasman do'stim. [3]

Komil inson gʻoyasining yuzaga kelishi soʻfiylik taʼlimotining paydo boʻlishi, qaror topishi va shakllanishi bilan bogʻliq. Komil inson termini dastlab Ibn al-Arabiyning asarida keltiriladi. Komil insonning buyuk timsoli bu Ollohdir. Shoir ushbu sheʼrda insonlarni komillikka davat etmoqchi. Qadim zamonlardan beri ziyolilar inson shaxsiyati va ruhoniyyat dunyosini tushunishga intilib, insoniyat tabiatidagi komillik alomatlarini tushuntirib kelishadi. Komillikka erishish mashaqqatli yoʻl boʻlib, pokiza qalb, ezgu amal, yuksak bilimga ega boʻlishni talab etadi. Inson ruh va vujud yaxlitligidan iborat boʻlib, Ollohni unutgan paytda ruh bilan vujudning yaxlitligiga raxna tushadi. Insonning ikki yelkasidagi shayton va rahmon oʻrtasidagi kurashda shaytoniy istaklar ustuvor boʻlsa, inson vahshiylashadi, bir –birini koʻrolmaydi, munofiqlik qilib gunohga botadi.

Insonki to hanuz vahshiy va g'addor.

Bir-birin tinimsiz qulatar chohga

Insoniyatga xos bo`lgan yomonliklardan shoir qalbi o`ksinib, barcha hasratlarini ollohga aytib insoniyat gunohlarini kamaytirishini chin dildan istaydi.

Bundayin qismatga ko'nikmoq dushvor

Netay hasratimni aytgum Allohga.

Abulla Oripovning “Haj daftari “dagi she`rlaridagi asosiy masala bu komil inson masalasi bo`lib , ushbu yo`nalishdagi asarlar XX asr she`riyatimiz badiiy tafakkur taraqqiyotida alohida o`ringa ega .Shoirning “Asliyat”,”Ibodot”, Hazrati odam”,Inson”, “Tavba “ she`rlarida ham komil inson masalasi tasvirlanadi.Shoir lirik qahramonining haj safari bu Ollohga erishish yo`li orqali insonning o`zligini anglab yetishi g`oyasi yotadi. Shoirning “Haq gap ” she`rida ham komil insonga xos xususiyatlar biri ezgu amallar va iymonli bo`lish haqidagi g`oyalar tasvirlanadi. Xalqda dunyodan o`tgan insonlarni yomonlash gunoh degan diniy aqida mavjud. Birov haqida uni yaqindan bilmasdan turib gapirmaslik,yovuz insonlar yovuzligini, axmoqlar axmoqligini boqiy dunyoda ham anglamasliklaridan shoirning qalbi og`rinadi:

Ketganni bilmasdan maqtama ,banda,

Garchi marhumlarning yodi porloqdir.

Yovuz yovuzligin qilmagay kanda,

O`sha joylarda ham axmoq axmoqdir.

Insonning ezgu amallari, qilgan yaxshiliklari, iymonining sofligi uni jannatga tomon yetaklashi mumkin .Biroq, bu oson emas, pok qalb egasigagina jannat eshiklari ochiladi.Shoirning ushbu she`rida chuqur falsafiylik mavjud bo`lib, foniylar dunyodagi qilingan barcha ishlarning, yaxshiliklarning natijalari boqiy olamda namoyon bo`lish g`oyasi yotadi:

O`lim bir nafasda keltirmas obro` ,

Nogoh aziz bo`lib qolmagay joning.

Seni qutqarishi mumkin bilib qo`y,

Ezgu amallaring hamda iymoning.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, XX asrning ikkinchi yarmi, 70-yillardan bugungacha o`zbek she`riyatida falsafiylikni Abdulla Oripov lirikasi bilan bog`lash o`rinli hol. Shoir she`rlarida so`zlar, satrlarda cho`g`dek yonib turadi. Shuning uchun ham shoir she`rlarini loqaydlik bilan o`qib bo`lmaydi. Bu narsa shoirning so`z mas`ulyatini chuqur his qila bilishi, oddiy so`zlar zimmasiga chuqur ijtimoiy –falsafiy ma`no yuklay olishi samarasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Abdulla Oripov “Haj daftari” Toshkent. 1992
2. Nurboy Jabborov “Zamon, mezon, she`riyat”. G`afur G`ulom nashriyoti Toshkent 2015.
3. Ulug`bek Hamdam “Yangi o`zbek she`riyati” Toshkent .2012.
4. Abdulla Oripov Tanlangan asarlar 8 -jild Toshkent. 2016-yil

[1] Jabborov N. “Zamon, mezon, she`riyat”. G`afur G`ulom nashriyoti ,Toshkent. 2015.200-bet.

[2] Rahimjonov N. “Mustaqillik davri o`zbek she`riyati. Toshkent . “Fan”. 50-bet

[3] A. Oripov Tanlangan asarlar 8 -jild Toshkent. 2016-yil

## CHARACTERISTICS OF LEADERSHIP AND LEADERSHIP ABILITIES IN PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR MANAGEMENT ACTIVITIES

*Asatova Dildora Aslamovna*

*Navoi State Pedagogical Institute Theory and methods of education (preschool education) specialty 2nd year master*

*Аннотация: в данной статье рассматриваются различия и особенности лидерства и лидерских качеств при подготовке будущих педагогов к управленческой деятельности.*

*Ключевые слова: лидер, способность, управление, спрос, профессиограмма, управленческая деятельность.*

*Annotation: this article discusses the differences and characteristics of leadership and leadership skills in preparing future educators for management activities.*

*Key words: leader, ability, management, demand, profессиogram, management activity.*

Management is one of the most complex professions, it is not only economic, social and psychological knowledge both theoretically and practically requires adequate preparation while minimizing. at the same time, a great responsibility falls on the leader and leaders who lead the team.

Interactions in teams are top-down or vice versa, and the specific positions of group members include the relationship between the leader and subordinates. it is necessary to talk about the differences between the concepts of leader and leader in this regard. B. Parigin distinguishes between these two concepts and writes:

1. If the leader mainly manages interpersonal relationships in the group, the leader manages the formal relationships in that group;

2. If leadership is a phenomenon specific only to small groups, the rights of leadership can occur and be exercised even within large groups;

3. If leadership is a spontaneous, chaotic process, leadership is an event that occurs as a result of elections based on norms and procedures developed in a purposeful society;

4. Leadership is a temporary phenomenon in relation to leadership, depending on the expectations of group members, their mood, direction of activity, in the long run or in the short term;

5. The difference between a leader and a leader is that he or she has a system of punishment and incentives that the leader does not have, on which basis he or she can have little influence over his or her employees;

6. In the leader group, one or another decision, instructions can make initiatives less voluntarily, and in the leader, there are many instructions, plans, norms, orders in this direction, which are difficult for the leader to go beyond, arbitrarily;

Today, the concept of *professiogramma* exists, which is a harmonious set of individual knowledge, skills and abilities arising from the requirements of a particular profession. *Professiograms* created on the basis of requirements for managers M. Kuronov emphasizes that - a certain position *professiogramma* to the question of what should be the holder of this position? is the sum of the answers

Today, the issue of radical improvement of the management system, selection, training, retraining, advanced training and creation of conditions for higher education of leading (young) personnel is becoming an important factor of development for Uzbekistan. Addresses of the head of our state to the Oliy Majlis, conceptual ideas that make up the content of his works, decisions taken in the Legislative Chamber and Senate factions of the Oliy Majlis, within the Government are also topical issues indicates that Today's events show that it is not in vain that the twenty-first century has been predicted to be the age of high information technology and a sharp rise in intellectual level. this situation also requires reforms in the field of human relations, the choice of subtle and unique ways of dealing with people of [www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

high intellectual level and influencing them effectively. If we take the example of Uzbekistan, the traditions of behavior, our national values, the formation of a layer of rulers who are not free from the influences of world civilization, universal values, without losing the unique aspects of our mentality, through their activities it is the need of the hour to inculcate the foundations of justice, humanity and democracy in the minds and consciousness of the people. The leap in the development of society should be characterized by professionalism, broad-mindedness, strong will, purposefulness in carrying out the complex tasks facing leaders at all levels of government in times of change. Zero, President Sh. As Mirziyoyev puts it: "It's one thing to be demanding, it's quite another to touch people's identities. People can obey you on the job, never forget that they have the same rights as you on any other issue. ...we all know well that our people are aristocratic, honorable people. Our people can tolerate anything, but I repeat, they cannot tolerate injustice and injustice. a real leader is appointed as a leader not to test the endurance of real leaders, but to create the right conditions for them. leaders in all walks of life, whether he is a minister or governor, head of department or organization, should be an example and role model to all with their manners and culture.

#### **References:**

1. Quronov.M. About professional profiles of leadership positions. Manager and employee. -T .: Academy, 1998
2. [https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl\\_2151\\_20211115.pdf](https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_2151_20211115.pdf).Hayitov.O.E. Management psychology. Chirchik 2020
3. <https://oz.sputniknews-uz.com/20171124/6912743.html>



## MUNDARIJA

DAVLAT TILIDAN TA'LIM BERISHDA O'ZIGA XOSLIK .....	4
ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ ПРОСТОРЕЧНОЙ ЛЕКСИКИ В РАССКАЗАХ А. П. ЧЕХОВА .....	8
КОМИЧЕСКИЕ ПОИСКИ РЕАЛЬНОСТИ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА .....	14
SHASHMAQOM IJROCHILIGIDA KOMMUNA ISMOILOVANING IJRO TALQINI .....	20
МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИК ҲУЖЖАТЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОЛИҚ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАВЗУСИДА АНИҚЛАНГАН МУАММОЛАР .....	25
TASVIRIY SAN'AT ASOSIDA ESTETIK DIDNI TARBIYALASH .....	35
TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING ANAMIYATI .....	38
ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ РЕЖАЛАШТИРИШ .....	43
FUQAROLARGA TIBBIY YORDAM KO'RSATISHNING HUQUQIY KONSEPSIYALARI .....	48
“KUNTUG‘MISH” DOSTONINING YOZIB OLINISHI, NASHR ETILISHI VA ILMIY TADQIQ QILINISHI TARIXI .....	53
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АУТЕНТИЧНЫХ ВИДЕОМАТЕРИАЛОВ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА .....	63
BIOTEKNOLOGIK KOMPETENSIYANI TALABALAR ONGIGA SINGDIRISHDA BIOTEKNOLOGIYANING OB'EKTI BO'LGAN MIKROORGANIZIMLAR YORDAMIDA FOYDALI MODDALARNI OLISH USULLARINI NAZARIY JIHATDAN O'RGANISH .....	73
BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSION YANGILIKLAR KIRITISH MAZMUNI VA YO'NALISHLARI .....	79
O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASI O'QUV PREDMETI, FAN HAMDA AMALIYOT SIFATIDA .....	82
LEBEG INTEGRALI VA LEBEG INTEGRALINI HISOBLASHDA UNING XOSSALARIDAN FOYDALANISH METODLARI .....	87
МАЪРИФАТПАРВАР ЧЎҚОН ВАЛИХОНОВ .....	92
«ПУТИ ПОВЫШЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКОГО ЗАПАСА ШКОЛЬНИКОВ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ» .....	96
INNOVATSION RAQAMLI IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....	102
INNOVATSION RAQAMLI IQTISODIYOTNI XALQARO MIQYOSIDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....	105
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINI O'QITISH VA MAQSADI .....	108
РОЛЬ И МЕСТО ВНЕКЛАССНОЙ РАБОТЫ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ .....	112
O'SIMLIKLAR VA HAYVONLAR BIOXILMA-XILLIGI .....	120
COMPONENTS OF THE SYNERGISTIC EFFECT OF MECHATRONIC SYSTEMS AND ROBOTICS IN MECHANICAL ENGINEERING .....	125

КЛИНИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ АУДИТА СЛУЧАЕВ ПЕРИНАТАЛЬНОЙ СМЕРТНОСТИ КАК ИНСТРУМЕНТА ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКУШЕРСКОЙ ПОМОЩИ .....	133
O‘QUV JARAYONIDA NAZORAT QILISH ELEKTRON TIZIMINI YARATISHNING DAVRGA XOSLIGI (HEMIS DASTURI TIMSOLIDA).....	140
TA‘LIMDA KOMPYUTER DASTURIY VOSITALARINING TUTGAN O‘RNI.....	144
ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ПРИ ПЕРЕХОДЕ ИЗ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ В СРЕДНЮЮ ШКОЛУ .....	153
TURLARNING PAYDO BO‘LISHI .....	158
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA LEKSIK-SINTAKTIK STILISTIK USLUBLARNING QIYOSIY TAHLILI .....	164
"МАТЕМАТИКА FANIDA MATNLI MASALALARNI YECHISHNI INTERFAOL USULLARI" .....	168
THE ESSENCE OF THE LATEST REFORMS IN THE FIELD OF HEALTH CARE .....	174
OBTAINING DONAXIN AND ITS DERIVATIVES .....	177
QAYTA TIKLANUVCHAN ENERGIYA MANBALI ELEKTR TA‘MINOTI TIZIMINI MASOFALI MONITORINGI AXBOROT TIZIMI.....	181
MAKTABDA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA INNOVATSIYALAR. INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	188
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA MEHNATNING O‘RNI.....	194
METHODS FOR SOLVING PARAMETRIC EQUATIONS AND INEQUALITIES.....	198
HOZIRGI ZAMON SHE‘RIYATIDA OBRAZLILIK.....	209
MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTIDA RAHBAR FAOLIYATI VA KREATIV TARBIYACHILAR MUHITINI YARATISH.....	214
ABDULLA ORIPOV SHE‘RLARIDA KOMIL INSON XUSUSIYATLARI .....	217
CHARACTERISTICS OF LEADERSHIP AND LEADERSHIP ABILITIES IN PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR MANAGEMENT ACTIVITIES.....	222

*Note!—Pedagogs || articles and numbers in the legal, medical, social, scientific journal, information in classes, information rights and the correct authorities are responsible for the accuracy of the authorities.*

**Editor in chief**  
**Saidova Mohinur Jonpo'latovna**

**Executive Secretary**  
**Abdurahmonov Boburjon**

**Preparing for publishing**  
**Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li**

— Pedagogs || legal, medical, social, scientific journal, 2022-years. – Rishtan city: Pedagogs, 2022.